

D.I. ALIMDJANOVA
I.T. ALIYEV

DAVVA OZIQ-OVOAT
OGIVASIG

74 - 42

№ 42

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Alimjanova Djonon Ismatovna
Aliyev Islambek Tursinbayevich

KIMYO VA OZIQ-OVQAT
TEXNOLOGIYASIGA OID FANLARNI
O'QITISHIDA INNOVATSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

4284
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif
vazirligining Muyofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan
o'quv go'llanma sifatida taysiya etilgan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOVATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOVATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent
«Iqtisod-Moliya»
2015

UO'K: 372.8:66.001.76(075)
KBK: 74.202.4
K42

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori, professor N. Azizzodjayeva
pedagogika fanlari doktori, professor H. Rashidov

Alimjanova Dj.I., Aliyev I.T.
Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda
innovatsion pedagogik texnologiyalardan / Alimjanova Dj.I., Aliyev I.T. –
T.: «Iqtisod-Moliya», 2015.

O'quv qo'llamma kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish sohisdagi dolzab muammolarni o'z ichiga oladi. Unda texnika oliv o'quv - yurtlarida o'qitiadigan fanlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni o'qitishda yuzaga keladigan murakkabliklar, talabalarda kimyoviy-texnologik fikrlashni rivojlantirish masalalariiga alohida e'tibor qaratilgan, bunda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish shari-sharoitlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Taklif ettilayotgan o'qitish metodlari va vositalari talabalar o'zlashtirish bosqichlariga mos ravishdagi ketma-ketlikda yoritib berilgan. Har bir metodning tattibiqa oid maxsus fanlarga tegishli aniq misollar keltirilgan. O'quv mashg'ulotlarining zamон talablariga javob beradigan texnologik model va xaritalari hamda ularga mos ravishda ilovalar ko'retildigan.

Ushbu o'quv qo'llannmadan texnika oliv o'quv yurtlarida tahlisil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchilar, malakasini oshirish kurslari tinglochchilar hamda magistrantlar foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanna 5111000 «Kasbiy ta'lim» yo'naliishlari bo'yicha tahlisil ola'digan talabalar uchun tansiya etiladi.

UO'K: 372.8:66.001.76(075)
KBK: 74.202.4

KIRISH

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'llidan odil qadam tashhab borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimini uzluksz tarzda isloh qilib borish va takomillashtirish, uni zamonaviy sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish ta'lim samaradorligini oshirish maqsudida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan eng dolzarb masalalar qatoridan o'rinn olgan.

Jahoning eng ilg'or va zamonaviy texnologiyalari bilan qurollangan, kasbiy mahorat darajasi yuqori bo'lgan, kuchli raqobatga dosh bera oladigan, xalqaro talablardagi zamonaviy taraq-qiyotni ta'minlay oladigan dadil, mustaqil, ijodiy tafakkuri, mulakali, bilimli mutaxassislarini, ayni paytda shaxsiy insoniylar shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash olyi ta'limning eng muhim va murakkab vazifalari hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining sifati va mazmungiga hamda biltiruvchilarning malakaviy darajasiqa qo'yiladigan talablar Dawlat Ta'lim Standartlari tomonidan belgilab beriladi. Tuyyorlanayotgan yosh mutaxassislarining sifati va tayyorlik darajasi «kasbiy mahorat» tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Kasbiy mahorat deganda, avvalambor, yosh mutaxassisning kasbi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malaka darulasi, uning ishlab chiqarish sharoitiga moslashuvchanligi, o'ziga maqbul sohanni tanlay olish qobiliyati, ilm-fan yutuqlarini indin sur'ada egallab, uni hayotga tatbiq eta olish qobiliyati, mu'naviy va ruhiy darajasi tushuniadi.

Bitiruvchilarda kasbiy mahoratning shakllanishi ko'p jihat-chon mutaxassislik fanlaridan o'tladigan darsarni tashkil etilish sharti-sharoitlariga va ularda qo'llaniladigan ta'lim metodlarga bog'liqdir. Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyasi ta'lim yo'naliishuniga oid mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabajaruga aksariyat hollarda mahsulotni ishlab chiqarish texnolo-

siyasi haqida nazarlar va amaliy ma'lumotlar beriladi, ularda kechadigan jarayonlarning mohiyati ochiladi, ishlashlidan qiziqarish metodlari tuzilishi va ishlash tarzi bilan tanishtiladi, mavjud bo'lgan ishlab chiqarish metodlari taqqoslanib, afzalliklari va kamohilliklari aniqlanadi, maqbullarini tanlash mezonlari asoslab beriladi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti qonuniyyatlari asosida rivojlanib kelayotgan hozirgi bosqichida kimyoiy va oziq-ovqat texnologiyasi sohalari uchun tayorlanayotgan yosh mutaxassislardan nafaqat ixtisosligiga doir chuquq bilimlar, balki bir qator ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammoli vazifalarni yechha olish uchun yetarli darajadagi ko'nikmalar ham talab etiladi. Deyarli barcha korxonalarlardagi yechimini kutayotgan muammoli vaziyatlar mahalliy xomashyo va energiya zaxiralaridan samarali foydalaniш, moddiy va energiya resurslarini tejaydig'an samarador yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, mahsulot sifatini oshirish va uni eksportiga yo'naltirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joyri etish masalalari bilan bog'liqidir.

Yuqorida keltirilgan qobiliyatlarни o'zida mujassamlashtirgan, davlat ta'lim standartlarini talabalarga mos bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan yosh mutaxassis kadrlarni tayorlash jarayoni hozirgi kunda olyi ta'linda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalaniш muammollari bilan uyg'unlashib ketadi.

Ma'lumki, ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun ishonchli zamin yaratadi.

Hozirda samarasasi bo'yicha amalda o'z tasdig'ini topgan zamonyaviy o'qitish metodlarining yuzdan ortiq metodlari mayjud bo'lib, ularning barchasi talabalarda erkin va mustaqil fikrash muammollarni yechha olish, tanqidiy jihatdan tafakkur yuritish, ijodiy faoliyat olib borish kabi xislatlarni shakllantiradi, o'qubilish jarayonini faollashtiradi, har bir ta'lim oluvchining individual potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, an'naviy tarzda tashkil etilgan darslarda talabalarini axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darjasini

30 %ni taskil etadi, xolos. Lekin bu an'naviy dars berish metoddidan butunlay voz kechish kerakligini bildirmaydi. Chunki barcha dars turlari uchun noan'anaviy metodni qo'llash mumkin emas. Barcha metodlar an'naviy yoki noan'anaviy bo'lishidan qat'iy nazar o'quv materialining didaktik vazifasi, shartsharoitlar va vaqtini e'tiborga olgan holda tanlanadi. Agar darsning maqsadi ma'lum darajada murakkab mazmunga ega material bo'yicha yangi bilimlarni berishdan iborat bo'lsa, noan'anaviy metodlarni qo'llash yaxshi natija bermaydi, bunda darsni an'naviy tarzda olib borgan ma'qulroq. Chunki noa'anaviy o'qitish metodlarining asosiy maqsadi yangi bilim berish emas, balki talabalarning tanqidiy tafakkurini oshirish, mustaqil fikrashga o'rgatish, ijodiy yondashuvni shakllantirishdan iboratdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, an'naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman o'quvchilar faoliyatini o'zlashtirish tiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga olib keladi, fanga va bo'rajak mutaxassisligiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Texnika olyi o'quv yurtlarida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarining aksariyati texnologik jarayonlarni mukammal tarzda o'qitish va o'zlashtirishga qaratilgan. Ushbu fanlarni o'zlashtirish jarayonida talabalar yangi texnik tushunchalar, atamalar va terminlarga duch keladilar, texnologik operatsiyalarni amalga oshirish boshqichlari bilan tanishadilar, o'ziga xos bo'lgan va ma'lum bir vazifani bajaruvchi texnologik jihozlarning tuzilishi va ishlash tartibini o'rGANADILAR. Ushbu o'quv materiallari tushunari bo'lishi va talab darajasida o'zlashtirilishi uchun talabarda texnik va ijodiy fikrash, texnologik metodlarni taqoslash va samaraliroq'ini tanlay olish, texnologik jarayonlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil tarzda yechha olish kabi qobiliyatlarini va ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Shu sababdan, texnologik yo'nalishdagi mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim modelollarini to'g'ri tanlash, ularda mavjud bo'lgan ijobiy tomonlarni va sifatlarni uyg'unlashirish hamda bog'lash, o'tilayotgan dars mazusining mazmuni va mohiyatiga katta e'tibor berish, darsni faollashtiruvchi hamda talabani texnik fikrashga undovchi samarali o'qitish elementlaridan unumli foydalananish katta ahamiyat kasb etadi.

Taqdim etilayotgan o'quv qo'llanmada texnika oliv o'quv yurtlari talabalarida kasbiy mahoratga oid qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik, psixologik va metodik masalalar o'rtaga tashlangan. Tavsiya etilayotgan interfaol o'qitish metodlari ta'limga oluvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga muvoziq ravishda taqdim etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmani nashrga tayyorlashda mualliflarining «Kashb ta'limi» kafedrasida faoliyat ko'rsatgan davrlarida jamlangan ba'zi bir o'quv-uslubiy materiallardan ham foydalandi, ularni tayyorlashda ishtiroy etgan o'qituvchi va talabalariga mualliflar minnatdorchilik bildiradilar. O'quv qo'llanmasi ilk bor nashr qilinayotganligi sababli ayrim kamchiliklardan xolimesas, albatta. Shu sababli kitob haqidagi barcha fikr va mulo-hazalarini mualliflar samimiy minnattorchilik bilan qabul qilalidilar.

Ta'limga avlodlar uzziyligini, jamiyatning to'laqonli faoliyat ko'rsatinishini va shunga mos ravishda shaxsnинг rivojlanish dairasini ta'minlaydi. Bunda ta'limga jamiyatdagи obyektiv o'rnii va psixologik ma'nosи aks etadi. O'qitish jarayonida ta'limga mazmuni o'zlashtirishning asosiy mexanizmi ta'limga beruvchi va ta'limga oluvchilarning hamkorlikdag faoliyati va mulloqotidir. Ta'limga mazmuni va tashkil etilishi tarixiy sharoitlarga bog'liqdir.

Pedagogikada ta'limga deganda, maxsus ravishda tashkil etilgan, aniq maqsadga qaratilgan hamda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi jarayoni tushuniladi. Uning maqsasi – bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish, dunyoqarashdi – bilim, ko'nikma va malakalarini imkoniyatlарини ri-ni shakllantirish, ta'limga oluvchilarning aqly imkoniyatlарини rivojantirish, mustaqil ta'limga olish malakalarini mustahkamlashdir.

Ta'limga asosini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil etadi.

Ta'limga o'rinda ta'limga insonlarda bilim, ko'nikma va

malakalarni shakllantirish funksiyasi turadi.

Birinchchi funktsiya *inson dunyogarashini shakllanirish hisoblanadi*. Dunyoqarash asta-sekin atrofda olam haqidagi bilimlar boyitilishi bilan shakllanadi.

Yuqoridaq funksiyalar bilan bir qatorda *shaxs va mustaqil shakllashni rivojlanirish funksiyasi* ham alohida ahamiyatga ega. Inson rivoji uning jismoniy, fiziologik, psixik tasniflarining miqdoriy va sifat o'zgarishidir. Ular ichida aqly rivojlanish muhim rol o'ynaydi.

Ta'limga *kasbga yo'naltiruvchi funksiyasi* ham muhimdir. Ta'limga oluvchi ishlab chiqarishning u yoki bu sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallab, bu faoliyatga qiziqish bildiradi. *Uzluksiz ta'limga tayyorgartlik funksiyasi* ta'limga oluvchilarni amaliy faoliyatga, o'z usrida ishlashga tayyorlaydi.

I bob. OLIY TA'LIMDA O'QITISH JARAYONI

1.1. Ta'limga tuzilmasi

Ta'larning *kreativlik funksiyasi* shaxsni uzuksiz ravishda komillikka intilishga undaydi.

Beglangan maqsadga erishish uchun ta'lim va tarbiya jaronlari to'g'ri tashkil etilgan bo'lishlari kerak. Boshqacha qilib aynganda, ta'lim va tarbiyanı boshqariladigan jarayon shakliga aylantirish, o'qituvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatini mujassamlashtirish maqsadga muvoqifdir. Bunday jarayon o'quv-tarbiyiy yoki pedagogik jarayon deb nomlanadi.

Pedagogik jarayon – zarur bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, shaxs va guruhning axloqiy-siyosiy, psixologik va jismoniy sifatlarini shakllantirish maqsadida insонlar tomonidan (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) tashkil etilgan va yo'naltirilgan faoliyatidir. Pedagogik jarayon boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqdir (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshq.).

Pedagogik jarayoning **birinchi komponentlari** uning *subjektlari va obyektlari* (pedagog va ta'lim oluvchi) kiradi. Ular «pedagog-o'quvchi» dinamik tizimini tashkil etadi.

Pedagogik jarayoning subyekti sifatida pedagog maxsus kelayotgan avlodlarni tayorlashga mas'ul ekanligini his etadi. Pedagog pedagogik jarayoming obyekti sifatida ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash, o'quvchilar bilan muloqot qilish jarayonida tarbiyaviy ta'sirlarga duch keladi va o'z-o'zini takomillashtirishga intildi, o'z pedagogik madaniyatini shakllantiradi.

Pedagog madaniyati – pedagogning ta'lim va tarbiya oluvchilar bilan samarali hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni muraffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini aks etadi. Pedagog madaniyatlardan qator funksiyalarni amalga oshiradi:

- bilim, ko'nikma va malakalarini berish va shu asosda dunyoqarashni shakllantirish;
- aqliy qobiliyatlar, psixikaning hissiy-irodaviy va amaliy jihatlarini rivojlanitarish;
- ta'lim oluvchilar tomonidan jamiyatda axdoqiy tamoyil va xulq-atvor ko'nikmalarni ongli o'zlashtirishini ta'minlash;
- borliqqa estetik munosabatni shakllantirish;
- ta'lim oluvchilar salomatligini mustahkamlash, ularning jismoniy kuch va qobiliyatlarini rivojlanitarish.

Pedagogik jarayonning **ikkinchchi komponenti** bu uning *mazmuni*dir. Pedagogik jarayon mazmuni har tomonlama tanlab olinadi, pedagogik tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, dunyoqarash nuqtayi nazaridan baholanadi, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariiga moslashtiriladi. Pedagogik jarayon mazmuniiga ijtimoiy munosabatlar, maskura, ishlab chiqarish, mehnat, fan va madaniyat kiradi.

Pedagogik jarayonning **uchinchchi komponentiga** *tashkiliy-boshqaruva majmuva* kiradi. Uning asosini ta'lim va tarbiya shakllari va metodlari tashkil etadi.

Pedagogik jarayonning **to'rtinchchi komponenti** – *pedagogik tashxisdir*. Pedagogik tashxis metodlariga bilim, ko'nikma va malakalar; ta'lim va tarbiya oluvchilarning mehnat va ijtimoiy faoliyat natijalarini tekshirish; ekstremal sharoitlarda o'zini tutish, qanday xulq-atvorni tanlash; mustaqil ijodiy ish natijalarini o'rganish kiradi.

Pedagogik jarayonning **beshinchchi komponentini** pedagogik jarayoning *samaradorlik mezonlari* tashkil etadi. Uning tarhibiga bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xarakteri va sifatlarining ekspert baholashlari kiradi.

Pedagogik jarayonning **oltinchi komponenti** – *ijtimoiy multivat tabiat bilan munosabaga kirishishni* tashkil etishdir. Ijtimoiy hayot tarbiyaning eng muhim omili hisoblanadi. Pedagogik jarayon maxsus tashkil etilgan tizim bo'lsa ham, hayotdan chetda amalga oshirilmaydi. Uning maqsadi ijtimoiy hayotiy multinii pedagogizatsiyalashdir.

Pedagogik muhitni oila, ijtimoiy tashkilotlar, mehnat ja-moalari, noformal birlashmalar tashkil etadi. Pedagogik muhit to'g'ri tashkil etilishi uchun ularning maqsadlari bir-biriga mos kelishi kerak.

Pedagogik jarayon ma'lum bir tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar amaliyotda sinab ko'rilgan qonuniy aloqa va ta'sirlar asosida shakllanadi.

Ta'lim jarayoni o'ziga xos mazmunga ega. Ta'lim mazmuni quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi.


- **Davlat Ta'sim Standarti** – ta'lim mazmuniiga va sifatiga qo'yiladigan talablarini belgilab beruvchi Davlat tomonidan tasdiqlanadigan asosiy me'yoriy hujjat.

- **O'quv reja** – aniq bir yo'nalish yoki mutaxassislik bo'yicha o'quv faoliyati, o'quv fanlari va kurslari, semestrilar bo'yicha fanlarni o'qitish ketmaga ketligi hamda yuklamalar hajmimi belgilovchi me'yoriy hujjat.
- **O'quv dasturlari** – muayyan fanlar bo'yicha ta'limgazining zaruriy minimummini, o'quv materialini o'rganish ketmaga ketligini va o'zlashtirish darajalarini batafsil ochib beruvchi hujjat.

• **Darslik** – Davlat Ta'limg Standarti va o'quv dasturi asosida tuzilgan, fanning asoslarini o'zlashtirishga qaratilgan va tur-dosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanimish mumkin bo'lgan o'quv nashri.

• **O'quv qo'llanma** – biror fan dasturi bo'yicha tuzilgan va ushbu fanning asoslarini chuqur o'rganishga qaratilgan, darslikni qisman to'ldiruvchi, ba'zi qismlarini kengroq qamrovchi va masalalar yechishsga mo'ljallangan o'quv nashri.

Ta'lim jarayoni strukturası




Didaktik jarayonining asosiy ishtiroykchilari – o'qituvchi va talabadir. Ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va shakllari produktiv jarayoni amalga oshirishiga qaratilgan bo'lib, har bir ta'lim oluvchida ijobjiy motivatsiyani shakllantirishi kerak. Ijobjiy motivasiya deganda – ma'lum bir harakatni ongli ravishda, hech qanday qo'rquv va salbiy fikrlarsiz bajarish istagi tushuniladi.

Masalan, talaba: «Berilgan topshiriqni bajarmasam, yomon baho olaman», – deb fikr yuritsa, bu salbiy motivatsiyadir. Aksincha, talaba ongli ravishda: «Bu fanni yaxshi o'rganishim kerak. Bu mening kelajakdagi kasbim uchun kerak bo'ladi. Berilgan topshiriqni bajarsam, yaxshi baho olaman» kabi fikrashi esa ijobjiy motivatsiyasi shakllanganligidan darak berardi. Talabada ijobjiy motivatsiyani shakllantirish ta'lum natijalariga erishishning asosiy yo'lidir.

Didaktik jarayonda o'qituvchi o'qitish, talaba esa ta'lim olish (ma'lumot olish, mustaqil ta'lim olish) vazifasini bajaradi. O'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyati samarai, kechishi uchun ta'lim mazmuniti aks ettiluvchi hujjatlar zardonidir: o'quv rejalar, o'quv dasturlar, o'quv vositalari va hokazolar. O'qituvchi va talaba faoliyati texnologiyalashirilgan jaryondir.

Didaktik jarayonning mantiqiy asoslarini didaktik qonunlar, qonuniyatlar, tamoyillar, qoidalar, paradigmalar tashkil etadi.

1.2. Oliy ta'linda o'qitish shakllari



Oliy ta'linda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi.

Lekin, tajriba shuni ko'rsatadiki, ma'ruzadan voz kechish ta'lim samadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. **Ma'ruza quyidagi vaziyatlarda juda zarurdir:**

1. Darslikdar bo'lmaganida.
2. Yangi materialni o'tiganida (agar darslikda bu mavz u yoritilmagan bo'lsa, yoki eskirib qolgan bo'lsa).
3. Murakkab mavzular o'rGANilganida.
4. O'rGANilayotgan mavzu bo'yicha turli xil konsepsiylar mavjud bo'lsa.
5. Talabalar his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir etish kerak bo'lganida.
6. Mualliflik ma'ruzalarda.

Zamonaviy ma'ruzaga quyidagi talablar qo'yillarda:

- ◆ ma'ruzaning axloqiy jihatdan ta'siri;
- ◆ ilmiylik va axborotlikk (zamonaviy ilmiy darajasi);
- ◆ isbotlanganlik (misollar, dalillarning mavjudligi);
- ◆ his-tuyg'u bilan bayon etilishi (ma'ruzachining o'zi o'qiyotgan ma'ruzaga qiziqishi);
- ◆ talabalar fikrlashini faollaShitirish, muammoli savollar berish;
- ◆ ma'lumotni metodik qayta ishlash (asosiy qismilarini ajratish, xulosalar keltirish);
- ◆ tushumari va sodda tilda bayon etish, tushunchalar va terminlar mazmun-mohiyatini oshib berish;
- ◆ didaktik va audiovizual materiallardan foydalanish.

Ma'ruza sifatini quyida baholash mezonlari asosida aniqlanadi:

1. Ma'ruza mazmuni (ilmiylik, metodik savollarning mavjudligi, fikrlashni faollaShitirish, amaliyot bilan bog'liqligi va h.k.);
2. Ma'ruzani o'qish metodikasi (aniq struktura va mantiqqa egaligi, rejaning to'g'ri tuzilganligi, adabiyotlar ro'yxatini yetka-zish, yangi termin va tushunchalarni tushuntirish);
3. Talabalar ishlini boshqarish (konseptlashtirishni talab etish, topshirinqlarni bajarishni nazorat qilish, talabalar diqqatini jalb qilish, talabalarga savol berishlari uchun sharoit yaratish va h.k.);
4. Ma'ruzachiga qo'yildigan talablar (o'z fanini yaxshi biliShi, his-tuyg'uga berilishi, ovozi, nutq madaniyati, xulq-atvori);

5. Ma'ruzaning natijaviyligi: axborotning qimmatligi, tarbiyaviy jihatni.

Bugungi kunda ma'ruzaning quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- ◆ ma'lumotli;
- ◆ umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli;
- ◆ muammoli;
- ◆ ko'rgazmali;
- ◆ binarli;
- ◆ oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan;
- ◆ anjuman;
- ◆ maslahati va boshqalardan.

Ma'ruza shakliida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari¹

Ma'ruza shakllari	O'ziga xos xususiyatlari
Ma'lumotli (Axborotli)	Ma'nuzaning eng ar'anaviy turi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> o'quv ma'lumotini bayon qilish va tuShuntirish
Ummum-lashtiruvchi qisqa ma'lumotli	Kursni yoki uning katta bo'limlarini bayon etilgan holda nazorat holatlari negizini, avvalambor ilmiy-tushunchaviy va konseptual asosni tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> Ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqalarini yoritib berish.
Muammoli	Yangi bilimlar savol / vazifa / vaziyatlarini muammoligi orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o'qtuvuchi bilan hamkorlikda va subhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash uni yechish, jamlash va an'anaviy va zamona naviy muqtabai nazarni tahlil qilishni tashkilashitirish.
Ko'rgazmali	Bunday ma'ruzani olib borilishi ko'rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashtirishga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'lumot mazmunini ta'limming texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish.

¹ Qarang: Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyiha-lashtirish va rejalashitirish. O'quv ushbu qo'llanna / Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: «Iqtisodiyot», 2012. – B. 97.

Jadvalning davomi

Binari	Bunday ma'ruzani olib borilishi ikki o'qituvchi / 2-maktab vakillari / olim va amaliyotchilar, o'qituvchi va talabalar o'rasisidagi suhbatni namoyon qiladi.
	<i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotlarni ikki tomon nisqayi nazarlarini taqoslash orqali yoritib berish.
Oldindan ko'zlangan metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalarning tashhisini va qo'yilgan xatoliklari tahlii olib boriladi.	O'qituvchi ongli ravishda yo'1 qo'ygan mazmuni, metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalarning tashhisini va qo'yilgan xatoliklari tahlii olib boriladi.
	<i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi material mazmuni yoritib berish; talabalarни taklif etilayotgan ma'lumotni domo nazorat qilishlariga qiziqitirish.
Ajxuman	O'qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur midyosida, oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg'ulot olib boriladi.
	<i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish, talabalarni yangi o'quv ma'lumotini izlash va tizimlashtrishga harakat qildirish.
Maslahatli	Turli yo'1 bilan o'tkazilishi mumkin. 1. «Savol-javob». O'qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo'lim bo'yicha talabalarning savollariga javob beradi. 2. «Savol-javob-munozara». Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo'yilgan savollarga javob izlab topishni tashkilashtiradi.
	<i>Pedagogik vazifalar:</i> talabalar bilimini mustahkanlash, rivojlanish, ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish.

Oliy ta'linda ma'ruzadan tashqari **seminar mashg'ulotlari** ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quv fanini chunqur o'rganish uchun mo'hallangan. «Seminar» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «bilimlarni ekish» degan ma'noni anglatadi.

Seminarning maqsadi – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini rivojlanitirish, ma'ruzada olingen bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirishdir. Seminar mashg'u-lotlari ilmiy tafakkur va nuzuni rivojlanitiradi, talabalar bilimlarni nazorat qilishga imkoniyat yaratadi.

Seminar quyidagi masalalarini hal qiladi:

1. Ijodiy kasbiy tafakkurni rivojlanitirish.
2. Billish motivatsiyasi.

3. Fan tilini o'zlashtirish, tush'unchalarni o'z o'mida ishlash.

4. Intellektual muammolarни yechish ko'nikma va malakalarini egallash, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatish.

5. Bilimlarni takrorlash va mustahkamlash.

6. Nazorat.

7. Pedagogik muloqot.

Seminarning quyidagi turлari mayjud:

1. Seminar oldi mashg'ulot. Asosan birinchi kurs talabalarini o'tiladi. Ularning maqsadi – adabiyyotlar bilan mustaqil ishlash, materialni tizimlashtirish va bayon qilish, referatlarni yozishga o'rgatish.

2. Seminar mashg'ulot. Uning maqsadi – materialni chunqur o'rganish, muhim va murakkab mazzularga e'tibor qaratish. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda hamkorlik faoliyatini tamoiliga riyoq qilinadi. Bu faoliyat suhbat, masalalarni muhokama qilish, kichik hajmdagi ma'ruzalar o'qish tarzida amal-tegida chiqishlar qilishga, muhim masalalarga urg'u berishga o'rgatishlari zarur.

3. Seminar-tadqiqot. Bunda talabalar guruuhlarga bo'linib, ma'lum bir muammoli masalani nazariy jihatdan hal qiladilar, ularni ichidan bitta ma'ruzachi tayinlanib, ma'ruza qiladi. Seminar mashg'ulotini o'tkazishning eng asosiy sharti barocha talabalarda mazzuga oid adabiyyotlarning (darsliklar, ma'lumnomalar, ensiklopediyalar va hokazolar) yetarli bo'lishidir.

Seminar mashg'ulotlariда asosan erkin bahs-munozara metodidan foydalaniлади.

Tajriba mashg'ulotlari nazariy bilimlarni tajribada sinash maqsadida o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarda muammoli va ziyyatlar oldin modellashtiriladi, keyin esa hal qilinadi. Tajriba mashg'ulotlariда talabalar kasbiy masalalarni yechish uchun eng quaylo'ylarni mustaqil izlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Tajriba mashg'ulotining eng asosiy metodlari – tajriba, eksperiment, tadqiqot (real yoki virtual).

Amaliy mashg'ulotlari tajriba mashg'ulotlariidan farqli ra-vishda o'sha qidirijiga nisbatan qiziqitirishga ega bo'lgan.

1. Vizualniy tajribalar. Vizualniy tajribalar uchun qiziqitirishga ega bo'lgan.

rishning eng samarali shakli **mustaqil** ishlarni bajarishdir. Chun-ki mustaqil ta'lim olish jara yonida talabalar ijodiy fikrlashlari, mustaqil bilin olishlari va ularning tahlil qilishlari mumkin. Mustaqil ishlarni o'quv faoliyatining eng oly shakli deb atash mumkin. Buyuk nemis pedagogi A. Distervegning fikricha: «Rivojanish va ta'lim hech bir kimsaga berilishi yoki aytlishi mumkin emas. Unga har bir kishi shaxsiy faoliyatni, kuchi, quvvati bilan erishmog'i darkor.

Mustaqil ish pedagogining bevosita rahbarligisiz, ammosi yoki jamoaviy o'stida amalga oshiriladigan shaxsiy yoki jamoaviy o'quv faoliyatidir.

Tashkil etish shakllariga ko 'ra mustaqil ish frontal (talabalar aynan bitta topshiriqni bajarishadi, masalan, insho yozishadi, guruhlarga (quv topshiriqlarini bajarish uchun ta'lim oluvchilar kuzatishlar (3-6 kishidan) bo 'linishadi), juft (mikroskop osida olib borishda, lingsofon kabinetidagi mashg'ulotlarda), individual (har bir ta'lim oluvchi alohida topshiriqni bajaradi, berilgan olib (har bir referat yozadi) shakllarda olib borilishi mumzuga oid auditoriya (laboratoriya, kabinetda, ustaxxonada va h.k.), auditoriyadan tashqarida o'tkaziladigan tadbinlarda (tajriba uchastkasida, tabiat burchagida, ekskursiya jarayonida va h.k.), uyda o'tkazilishi mumkin. Mustaqil ish auditoriyadan tashqarida o'tkaziladigan darslik, ma'boz ishning eng ko 'p targagan an'anaviy turlariga bilan ishlash, Jumotnomasi, adabiyotlar yoki birlinchchi manbalar bayonlar yozish, masalalar yechish, mashqilar bajarish, insho va va boshqalar yozish, kuzatishlar o'tkazish, yasash, modellashtirish va boshqalar kiradi.

1.3. Oliy ta'limda an'anaviy o'qitish metodlari

Pedagogik analiyotda ta'lim metodlarini klassifikatsiya qilish bo'yicha amaliyotda mayjud. Metod universal kategoriya hisoblanib, ko 'plab yondashuvlar yordamida quriladi. Bu xususiyatlar esa ularmi tiflash (klassifikatsiya qilish) uchun asos bo'ladi. Har xil mifalliflar metodlari toifalashda har xil asosarga tayananadilar.

1. E.Ya. Golant, E.I. Petrovskiy tomonidan berilgan klassifi-

katsiyada metodlari axborotni uzatish va qabul qilishga ko 'ra ikki surʼuhga ajratilgan:

- ◆ passiv idrok qilish metodlari – tinglash va ko 'rish hikoya, ma'ruza, tushuntirish, namoyish etish;
- ◆ faol idrok etish – kitob, ko 'rgazmali qurollar bilan ish-lash; laboratoriya metodi.

2. M.A. Danilov, B.P. Esipov klassifikatsiyasida o'quv mashg'uloti jarayonida bilimlarni o'zlashtirish ketma-ketligi asos qilib olingan. Bunda quyidagi metodlar ajratilgan:

- ◆ bilimlarni egallash metodlari;
- ◆ ko 'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- ◆ egallangan bilimlarni qo 'llash metodlari;
- ◆ ijodiy faoliyat metodlari;
- ◆ mustahkamlash metodlari;
- ◆ bilim, ko 'nikma va malakalarni nazorat qilish metodlari.

3. N.M. Verziin, D.O. Lordkinanidze, I.T. Ogorodnikov va boshqalar tomonidan metodlar axborotni uzatish manbasi va bilimlarni o'zlashtirishga ko 'ra quyidagilarga ajratilgan:

- ◆ so'z orgali uzatiladigan metodlar – o'qituvchining so'zi, kitob bilan ishlash;
- ◆ amaliy metodlar – atrofdagi borilqini o'rganish metodlari (kuzatish, eksperiment, mashqlar).

4. M.N. Skatkin, I.Ya. Lerner tomonidan metodlar bilish faoliyati xarakteri bo'yicha quyidagilarga ajratilgan:

- ◆ namoyish va tushuntirish metodlari;
- ◆ reproduktiv metodlar;
- ◆ bilimlarni muammoli tarzda bayon etish metodlari;
- ◆ qisman izlanuvchi metodlar;
- ◆ taddiqotchilik metodlari.

5. M.I. Maximov tomonidan metodlar ikki guruhga ajratilgan:

- ◆ o'qitish metodlari: axborot beruvchi, tushuntirish, amaliy, tushuntiruvchi-undovchi, undovchi;
- ◆ o'qish metodlari: bajarish, reproduktiv, produktiv-amaliy, qisman izlanish, taddiqotchilik metodlari.

6. Yu.K. Bahanskiy tomonidan o'qitish metodlari uchta katta guruhga ajratilgan.

A) o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari:

- ◆ og'zaki (hikoya, ma'ruza, seminar, suhbat), ko'rgazmali (namoyish etish, taqdim etish va boshq.), amaliy (mashq, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshq.);
- ◆ reproduktiv va muammoli-izlanuvchi (xususiydan umumiya, xususiydan xususiyga qarab o'qitish);
- ◆ mustaqil ishlar va o'qituvchi rahbarligida ishlash.

B) o'quv-bilish faoliyatini rag'battanirish, o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish metodlari:

- ◆ o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish metodlari;
- ◆ o'qishda burch va mas'uliyatni shakllantirish metodlari;
- ◆ D) o'quv-bilish faoliyatni samarradorligini nazorat qilish metodlari:

- ◆ og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;
- ◆ yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;
- ◆ tajriba-amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

7. Nemis didaktigi L. Klinberg har qanday ta'lim o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikka asoslanish kerakligini ta'kidlab, o'qitish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratgan:

A) monologik metodlar:

- ◆ ma'ruza;
- ◆ hikoya;
- ◆ namoyish etish.

B) hamkorlik shakllariga asoslangan metodlar:

- ◆ individual;
- ◆ guruhda ishlash;
- ◆ frontal;
- ◆ jamoada ishlash.

D) dialogik metodlar – suhbat.

Yugorida keltirilgan klassifikatsiyalardan tashqari yana o'nlab boshqa toifalash turlari haqida misollar keltirish mumkin, ularning barchasi ham kamchiliklarga, ham ijobjiy tomonlarga ega. Pedagogikada o'qitish metodlarining yagona klassifikasiysi yo'q va bol'shi ham mumkin emas. Chunki pedagogik jarayon doimiy ravishda o'zgarib boradigan, ijodiy jarayondir. O'quv jarayonining har bir bosqichida ma'lum bir metodlar yetakchi rolni, boshqlari esa yordamchi rolni bajaradi va nati-

rida ularning har biri ma'lum o'quv vazifalarini amalgalashishi qizmat qiladi.

Bugungi kunda eng keng tarqalgan klassifikatsiya bilimlarni qabul qilish manbasiga asoslanadi. Bunga ko'ra o'qitish metodlari uch guruhga bo'slinadi.

a) og'zaki metodlar (bilim manbayi so'zdir – og'zaki yoki yozma);

b) ko'rgazmali metodlar (bilim manbayi – kuzatiladigan predmetlar, hodisalar, amaliy harakatlar);

d) amaliy metodlar (ta'lim oluvchilar amaliy harakatlar orqali bilim oладilar, ko'nikma va malakalarни shakllantiradilar).

Metodlarni to'g'ri tanlash va ulardan unumli foydalananish har bir o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Ular o'quv materiali mazmuniidan kelib chiqqan holda tanlanishi maqsadga muvofiqdin.

I. O'quv materialini og'zaki bayon etish metodlari ta'lim oluvchilarga asosan monologik ta'sir etish orgali bilim berisnga qaratilgan. Og'zaki metodlar ta'lim metodlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy va boshqa olimlar og'zaki o'qitish metodlarini ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birligida olib borish zarurligini ta'kidlashgan. Hozirgi kunda og'zaki bayon etish metodlari eskirib qolgan va «passiv» metodlar qatoriga kiritilmoqda. Lekin bu metodlar yordamida katta hajmdagi o'quv materialini qisqa vaqtida o'quvchilarga yetkazish, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechishga undash mumkin. Bunda, so'z orqali ta'lim oluvchilar ongida yorqin obrazlarni yaratish imkoniyatlari katta. Bundan rashedqari, og'zaki metodlar idrok, xotira, tasavvur, tafakkur kabi bilish jarayonlarini samarali rivojlanadir.

Og'zaki bayon etish metoddining quyidagi turлari mayjud: hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza, bahs-munozara, kitob bilan ishslash va boshqalar.

Hikoya – pedagog yoki o'quvchi tomonidan o'quv materialini og'zaki bayon etish metodidir. Bu metoddha asosiy e'tibor aniq dalillarga, ularning aloqadorligi va bir-biriga ta'siriga qaratildi hamda ta'lim oluvchilarning eshitish orgali idrok va tasavvur etishlarini ta'minlaydi. Hikoya jarayonida ta'lim oluvchilarda nafaqat daililar o'zlashtiriladi, balki materialini ketma-ket

bayon etish ko'nikmalarini ham shakllantiriladi. Hikoyaning yetakchi funksiyasi – ta'lim berish hisoblanadi, yordamchi funksiyalariga rivojlanтирish, tarbiyalash, undash, nazorat-korreksiya funksiyalari kiradi.

Hikoya metodining samaradorligi o'quvchilarni qiziqtira olishga, ularning e'tiborini qaratishga bog'liq. Hikoya idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, hayol, emotsiional kechimmlar kabi psixik jarayonlarni faollashtiradi. Hikoya har qanday yoshdagi ta'lim oluvchilarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin.

Hikoya metodiga quyidagi pedagogik talablar qo'yildi:

- ◆ faqat ilmiy tekshirilgan va to'g'ri ma'lumotlar berilishi;
- ◆ yorqin va ishonchli misollar, da'llilar keltirilishi;
- ◆ aniq mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi;
- ◆ his-tuyg'ularni uyg'otishi;
- ◆ tushunarlari, ravon va sodda tilda bayon etilishi;
- ◆ bayon ettilayotgan hodisa va jarayonlarda o'qituvchining shaxsiy nuqtayi nazарини аks etishi.

Tushuntirish – o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonning moyiyatini ochib berish, uning boshqa hodisa va jarayonlar bilan bog'liqligini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan og'zaki metoddir. Uning funksiyasi metodlar, qonun, qonuniyat va borliqning ilmiy mohiyatini isbotlashdan iborat. Tushuntirish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy va dialektik tafakkurlari shakllantiriladi, ular o'z fikrlarini bayon etishga va isbotlashga o'rganadilar.

Tushuntirish natijasi o'quvchining hodisa mohiyatini chiquq va aniq tushunishida namoyon bo'ladi. Tushuntirish metodining tarbiyaviy jihat shundaki, bu metod ta'lim oluvchilarda haqiqatni biliшга intilish uyg'otadi, o'quv materialidagi asosiy narsalarni ikkinchi darajali narsalardan ajrata olish ko'nikmasini shakllantiradi. Tushuntirish metodidan har qanday yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda foydalanish mumkin. Ayniqsa, o'rta maxsus kasb-hunar hamda olyi ta'lim muassasalarida o'quv materialining murakkablashib borishi hamda ta'lim oluvchilarning aqiy rivoljanishini hisobga olib, tushuntirish metodidan keng foydalaniлади.

Tushuntirish metodidan foydalanish quyidagilarni talab etadi:

- ◆ masala yoki muammoni aniq ifodalashni;

◆ sabab-oqibat aloqalarini, isbotlarni ketma-ket ravishda ochib berishni;

◆ taqqoslash, solishtirish, o'xshatishlarni ko'llashni;

◆ yorqin misollar keltirishni;

◆ aniq mantiqiy ketma-ketlikni.

Suhbat – o'quv materialini muhokama qilishning eng asosiy metodidir. Bu metod ta'lim oluvchilardan ma'lum bir emperik bilimlarni talab etadi. Bu bilimlar masalani muhokama qilish, umumlashirish, xulosa chiqarish va haqiqatga intilishga yordam beradi. Suhbat metodi har tomonlarna mukammal va samarador hisoblanadi.

Suhbat metodi og'zaki metodlarning ichida eng qadimisi-dir. Bu metoddan Suqrot keng foydalangan. Muammoli tarzda olib horiladigan suhbat «Suqrot suhbat» deb ataladi.

Suhbat jarayonida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini ta'llollashirish, aqliy izlanishga undash, qarama-qarshiliklarni burtaraf etish, mustaqil ravishda xulosalar chiqarish ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida o'quvchilarning shaxsiy bilim va tajribalaridan foydalaniлади. Bu suhbatning pedagogik funksiyasi hisoblanadi.

Suhbat savollarning aniq qo'yilishini talab etadi. Suhbat jarayonida muammoli ta'lim berishni ham amalga oshirish mumkin.

Suhbat ta'lim oluvchilarda aniq va tez fikrashga, o'z fikrlarini qisqa va erkin bayon etishga, savollar berishga o'rgatadi, umumlashirish kabi aqiy operatsiyalarini shakllantiradi. Bunda suhbatning rivojlantiruvchi funksiyasi namoyon bo'ladi.

Suhbatning tarbiyalovchi funksiyasi shundan iboratki, bu metod ta'lim oluvchilarda mustaqilinkin shakllantiradi, o'ziga ishonch hissini uyg'otadi.

Suhbatning bir nechta turlari mavjud bo'lib, hozirgi kunda isnosan evristik va axborot beruvchi suhbat turlaridan keng foydalaniladi.

Evristik suhbatda o'qituvchi talabalarda mayjud bo'lgan binlarga va tajribalarga asoslanib, yangi bilimlarni mustaqil izlab topishga, qoida va xulosalarini chiqarishga undaydi.

Yangi bilimlarni ma'lum qilish uchun axborot beruvchi suh-

batdan foydalaniadi. Axborot beruvchi suhbat ham ikki turga bo'linadi. Agar suhbat yangi material bayon qilinishidan oldin o'tkazilsa, u kirish suhbat deb yuritiladi. Bunday suhbatning maqsadi talabalarini yangi materialni qabul qilishga tayyorlash- dan iborat. Agar suhbat yangi material o'zlashtirilganidan keyin o'tkazilsa, u mustahkamlash suhbat deb yuritiladi.

Suhbat muvaffaqiyati savollarni to'g'ri ifodalashga bog'liq. Savollar barcha ta'lim oluvchilar uchun berilib, qisqa, aniq, mazmuni bo'lishi kerak. «Ha» yoki «yo'q» degan javoblarni tabab etadigan savollarni berish mumkin emas.

- ◆ ta'lim oluvchilarni faollashtiradi;
- ◆ xotira va nutqni rivojlantiradi;
- ◆ bilimlarni mustahkamlaydi;
- ◆ katta tarbiyaviy kuchga ega;
- ◆ yaxshi tashxix vositasidir.

Suhbat metodining kamchiliklari:

- ◆ ko'p vaqtни talab etadi;
- ◆ noto'g'ri aytilgan javob boshaq o'quvchilar xotirasida saqlanib qolishi mumkin;

◆ o'quvvchidan ko'p bilim, tajriba va mahoratni talab etadi. **Ma'ruxa** – katta hajmdagi materialni monologik bayon chi shaxsingning ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki duryosini bilan muloqotda bo'lishining eng sanarli, jonli shaklidir. Ma ruzza o'qitishning yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ma'ruzaning yo'naltiruv funksiyasi talabalarning diqqati limlarni bo'lg'usni kasbiy faoliyatidagi qarashish, berilayotgan bishuntirishga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruzaning axborot berish funksiyasi o'quvvchi tomonidan asosiy ilmiy dalillar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochib berish jarayonida amalga oshiriladi. O'qitishning metodologik funksiyasini tadqiqot metodlarini qiyoslash, ilmiy izlanish tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi. Ma'ruzaning tarbiyalov funksiyasi esa o'quv materialiga hissия baho berish munosabatlарини uyg'о-

tish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oy-dinlashtirish yo'lli bilan amalga oshiriladi.

Ma'rizada hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

- ◆ ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- ◆ talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtilradi;

- ◆ o'quv faoliyatini va o'quv mashg'ulotlarining barcha turilari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi.

Bahs-munozara metodini qo'llash jarayonida o'quv materiali guruhda muhokama qilinadi va barcha guruh a'zolari bu jara-yonda ishtiroy etadilar. Bals-munozara metodini kichik gunuh-larda tashkil etish yaxshi samara beradi. Bals-munozara arada mu-hokama qilinadigan mayzu talabalarga o'qinuychi tomonidan 1 yoki 2 hafta oldin berilishi lozim. Mavzu bilan birga uni o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxati ham keltirilishi kerak. Bahs-munozara metodini qo'llashdan oldin o'qituvchi mashg'ulotning kinish, asosiy va yakuniy qismalarini rejalashtirishi, qo'shimcha savollar, ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi lozim. Bahs-munozara metodini ijodiy bilish jarayoniga aylantirish o'qituvchi oldida turgan eng murakkab vazifadir. Yaxshi tashkil etilgan bahs-munozara yuqori ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyatiga ega: mun-ammoni chuquq anglashga, o'z fikrini himoya qilishga va bosh-qalar fikrlarini hummat qilishga o'rgatadi.

Kitob va darslik bilan ishlash – o'qitishning eng muhim metodlaridan biridir. Oliy o'quv yurtlariда talabalardan kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlaydilar. Bu ishlarning asosiyları quyidagilardir:

- ◆ Konseptlashtirish – o'qigan narsani qisqa yozma bayon etish.

◆ Matn rejasini tuzish. Reja oddiy yoki muraqqa bo'lishi mumkin. Reja tuzish uchun matnni o'qib, uni qismalarga ajratish va har bir qismimi nomlash kerak.

◆ Tezislar yozish – o'qigan materialdagи asosiy fikrlarni ajratib yozish.

◆ Annotatsiya tuzish – asosiy ma'noni yo'qotmagan holda matnni qisqartirish.

◆ Retsenziya yozish – o'qigan narsaları haqida shaxsiy fikr-ni yozma ravishda bildirish.

- ♦ Ma'lumotlar bazasini yaratish – biografik, terminologik, geografik va boshqa ma'lumotlarni to'plash.
 - ♦ Mantiqiy model yaratish – o'qigan materialni sxema va jadvallar yordamida aks ettrish.
- Shunday qilib, kitob bilan ishlash mahorati ko'p jihatdan uning tankibiy elementlari haqida bilmnga ega bo'lish va rolini tushinish, uni o'qishgacha kitob haqida zaruriy ma'lumotni chiqarib olish mahoratiga bog'liq bo'ladi.
- B. Xodiyev, L. Golish va boshqalar kitob bilan ishlashda tabalarga quyidagi qoidalardan foydalanishni tavsija etadilar:²
1. Bitta ilmiy kitobni tanlang, uning tarkibiy apparatini o'renganing. Kitob mazmuni va tarkibi haqida o'zingizning fikringizni bildiring.
 2. To'plam yoki journalni tanlang. Sharh bering. Sharhda quyidagi holatlarni qayd eting:
 - ♦ To'plam, journalning nomlanishi; ixtisosligi.
 - ♦ Nashriyot.
 - ♦ Chiqish davriyiligi. Shu kabi nashrlar o'rtasida uning o'mri.
 - ♦ Bo'limlari, mavzulari.
 - ♦ Chop etilgan materiallarning ajralib turadigan jihatlari.
 - ♦ Eng qiziqarii ishlar, ularning muammo doirasi.
 - ♦ Tahlil qilinmayotgan nashrni baholash.

- 2. Ko'rgazmali metodlar.** Bu metodlar yordamida o'quv materiali ko'rgazmali qurol yoki texnik vostitalar orqali o'zlashdirildi. Ko'rgazmali metodlar og'zaki va amaliy metodlari bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bu metodlarning ichida namoyish metodi asosiy hisoblanadi.
- Namoyish metodi** ta'lim oluvchilarga real hayot, tabiat, hodisalar, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlari, uskuna va apparatning ishlashini bir butun va mayda detaillarda ko'rsatib berish, ularning mazmun-mohiyatini tushuntirishda ishlataladi.
- Bu metodning maqsadi ta'lim oluvchilarda premet yoki hodisaning ko'rgazmali obrazini yaratish, uning mohiyati va mazmuni haqida tasavvur hosil qilishdan iboratdir. Bu metod o'rganilayotgan hodisalar dinamikasini ochib berishda qo'llanadi.

² Xodiyev Bahodir Yusupovich, Golish Lyudmila Vladimirovna. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vostitalari (birinchi bosqich) talababuiga yordam tafsida: O'quv-usubiy qo'llanma – T.: TDIU, 2010. – B. 11.

ladi. Shuningdek, namoyish metodi premetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi bilan tanishitirishda, o'rganilayotgan premetga o'xshash premetlar qatoridagi o'rnnini ko'rsatishda ham ishlataladi.

Namoyish etish metodi o'quvchilar tomonidan borliqdagি hodisalarni ularning dinamikasi, vaqt va fazoda idrok etishlari hamda anglashini ta'minlaydi. Namoyish metodi yordamida ta'lim oluvchining dunyoqarashini kengaytirish, bilim olish jaryonini psixologik jihatdan yengillashtirish, barcha psixik jaryonlarni faollashtirish mumkin. Namoyish metodining tarbiyaviy ahamiyati ta'sir oluvchiga emotsiонал ta'sir etishidadir.

Namoyish metodlarini qo'llaganda quyidagi qoidalarga riyoq qilish kerak:

- a) ko'rgazmali qurollar ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariiga mos kelishi;
- b) ko'rgazmalarни o'quv mashg'ulotining kerakli vaqtida taqdim etilishi;
- c) ko'rsatilayotgan, taqdim etilayotgan narsa barcha ta'lim oluvchilarga aniq ko'rinishi;
- d) namoyish jarayonida eng asosiy, muhim narsalarga e'tibor qaratilishi;
- e) namoyish jarayonida eng asosiy, muhim narsalarga e'tibor qaratilishi;
- f) namoyish etilayotgan narsa o'quv materialiga mos kelishi;
- g) ta'lim oluvchilarni namoyish etilayotgan narsalarda yangiliklarni izlab topishga undash lozimligi.

3. Amally metodlar ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatiga asoslanadi. Bu metodlar yordamida o'quvchilarning amaliy konikma va malakalarni shakllanadi. Amally metodlarga mashqlar, tajriba va amaliy ishlar kiradi.

Mashq metodi – ziarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni aqiliy va amaliy harakatlarni shakllantirish, mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida ishlataladi. Bu metod ko'p marotaba va ongli ravishda takrorlashni talab etadi.

Tizimli mashqlar – samarador va produktiv mehnatning tekshirilgan va ishonchli metodidir. Uning afzallik tomoni shundan iboratki, bu metod ko'nikma va malakalarni samarali rivoljantirishga xizmat qiladi. Mashq metodining mazmun-mohiyati bilimlarning bir qismini ko'nikma va malakaga ayanitirish, amaliy harakatlarni bajarishga tayyorlash, har xil sharoit-

larda produktiv va produktiv faoliyatni amalga oshirishga o'retishdan iborat.

Mashqlarni bajarishdan oldin ta'lim oluvchilar nazariy materialini hamda o'qituvchining ko'rsatmalarini puxta o'zlashtirishlari kerak.

Mashq metodi ta'lim oluvchilarning aqliy va jismoniylar sohalardagi amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Bu metodning rivojlantiruvchi abamiyati ijodiy imkoniyatlarga yo'lin ochib berishida va ta'lim oluvchilarning har xil qobiyaltilarini rivojlantirishda namoyon bo'ldi.

Mashqlarni doimiy ravishda bajarish o'quvchilarning irodasini tarbiyalaydi.

Mashqlarni og'zaki, yozma, grafik va o'quv-mehmat turlarini ajratish mumkin. Bu mashqlar aqliy va amaliy mehnatni talab etadi.

Og'zaki mashqlar ta'lim oluvchilarning xotirasi, nutqi, diqqati, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Bunday mashqlar o'zgaruvchan bo'lib, ko'p vaqtini talab etmaydi.

Yozma mashqlar bilimlarni mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Ular mantiqiy fikrlashni, yozma nutq madaniyatini rivojlantiradi. Yozma mashqlar og'zaki va grafik mashqlar bilan birgalikda olib borilishi yaxshi natija beradi.

Grafik mashqlarga sxema, chizma, grafik, texnologik xarita tuzish, album, plakat, stendlarni tayyorlash, rasmlarni chizish kabi mashqlar kiradi. Grafik mashqlar odatda yozma mashqlar bilan birgalikda olib boriladi. Bu turdag'i mashqlar ta'lim oluvchilarga o'quv materialini yaxshiroq va chuqurroq fazoviy tasavvurini rivojlantiradi.

O'quv-mehmat mashqlariga ishlab chiqarishga yo'naltirilgan amaliy ishlar kirdi. Bu mashqlarning maqsadi olingan bilimlarni amaliyotda sinashdir. Bu turdag'i mashqlar mehnat tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Tajriba ishlari — maxsus asbob-uskuna yordamida ma'lum bir hodisa va jarayonlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Amaliy ishlar — katta hajmdagi materialini o'tgandan keyin o'kazildi. Amaliy ishlar o'quv materialini umumlashtirisha xizmat qiladi.

O'qitish metodlari ichida talabalarning mustaqil ishlari alohida o'ringa ega.

Mustaqil ishlar — o'qitishning eng asosiy metodlaridan bo'lib, ta'lim oluvchilarning individual faoliyigini talab etadi.

Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlariда o'quvchilarga yetkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadi, o'quvchi mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida timimsiz ishlasagina bilimlarni chuequir o'zlashtirishi mumkin. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari asosan mustaqil ta'lim jarayonida shakllanadi, mustaqil foliyat ko'rsatish qobiliyatni rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashta ga qiziqish paydo bo'лади.

Mustaqil ta'lim o'quvchilarning bilim olishdan maqsadlari va shu maqsadlarga qanday erishishlari — mayjud o'quv resurslaridan foydalangan holda amaldagi o'quv dasturlari doirasidagi materiallarni qanday o'zlashtirishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishlarini nazarida tutadi.

O'quvchi o'zi anglashi va harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning tadqiqot olib bo'rish ko'nikmalari, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojilantrishga undashi lozim. O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga va uni bajarishga o'rgatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Professor Bigs tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, talabalar ma'ruzachini diqqat bilan 15–20 daqiqa tinglag'anday keyin boshqa filklarga chalg'iydilar. Boston ijtimoiy guruhni tomonidan talabalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ma'ruza davomida talabalarning 25 % ma'ruzaga oid bo'lmajan narsalar haqida o'ylashini ko'rsatgan. Demak, berilgan mayzuni yanada to'lar oq va chuqurroq o'rganish maqsadida talaba tomonidan olingan bilimni mustahkamlash uchun mustaqil ravishda shug'ullanishi lozim.

1.4. Oliy ta'linda o'qitishning faol va interfaol metodlari

Bugungi kunda ta'lim sohasida pedagogik texnologiyalar, faol va interfaol o'qitish metodlari kabi tushunchalardan keng foydalaniлади.

Kо'п pedagogolar ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini to'liq anglamaydilar va pedagogik texnologiya deganda faqat interfaol metodlarni qo'llashni tushunadilar.

Ushbu masalaga oydimlik kiritsish maqsadida pedagogik texnologiya va interfaol o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya so'zi pedagogikaga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan. Bizga ma'lumki, har qanday texnologiya yakuniy natijaga qaratilgan bo'sib, bu natijani oldindan rejalashtiradi va bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Eng muhim shundaki, har qanday texnologiyada yakuniy natija kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya deganda oldindan loyihalashtirilgan va yakuniy natijani kafolatlaydigan ta'lim va tarbiya jarayoni tushuniлади. Demak, pedagogik texnologiyani amalga oshirishdan avval o'quv maqsadlarini aniq belgilash zarurdir. O'qituvchi dars natijasini oldindan ko'z oldiga keltirishi lozim. Ya'ni darsga kirishdan oldin har bir o'qituvchi «Hozir o'quvchilar... larni bilmaydilar, men darsni yakunlab, auditoriyadan chiqib ketganimdan keyin, o'quvchilar ... bajara oladilar» kabi masalalar haqidagi jiddiy o'yashli kerak.

Pedagogik texnologiya doirasida ikki hil yondashuvni ajratish mungkin: texnologik va jarayoni.


Texnologik yondashuvning maqsadi — talabalarga bilim berish, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlanitishdir. Bu yondashuvda o'quv maqsadini aniq va to'g'ri belgilash muhim hisoblanadi.

Jarayoni yondashuvning maqsadi esa — talabalalar tanqidiy tafakkurni, ijodiy va mustaqil fikrlesh qobiliyatlarini rivojlantishdir. Bu yondashuvda jarayon maqsadga ko'ra muhim hisoblanadi. Aynan jarayonli yondashuvda interfaol metodlardan foydalaniлади. Chunki interfaol o'qitish metodlarining aksariyati talabalarga yangi bilim bermaydi. Bu metodlar o'quvchi va talabalarda mavjud bo'lgan bilimlarni faollashtiradi, umunlash-

tiradi, analiz, sintez qilishga о'ргатади. Interfaol metodlar talaburni mustaqil fikrleshga о'ргатишнинг асоси меканизми hisoblanadi. Shuning uchun «Sinkveyн», «Klaster», «Nilufar puli», «Venn diagrammasи» va boshqa interfaol metodlar asosida hajarilgan topshiriqlar baholannmaydi, talabalar rag'battantiriladi, har qanday fikrlar qabul qilinadi (bu fikrlar o'qituvchining nuqtayi nazaridan noto'g'ri bo'lsa ham).


Interfaol o'qitish metodlarini yaxshiroq anglash uchun, ularни an'anaviy va faol o'qitish metodlari bilan taqqoslash mumkin.

O'qitishning ana'naviy metodlari quyidagi chizmada o'z aksini topgan:




An'anaviy o'qitishda o'qituvchi faol ishtiroy etib, o'quvchilarga faqat axborotni yetkazib beradi. Bunda axborot bir tomonlama uzutiladi.

O'qitishning faol metodlari quyidagi chizmada aks ettirilgan:



Bunda ham o'qituvchi mashg'ulotning markazida bo'lib, axborotni yetkazib beruvchi yagona manba hisoblanadi. Lekin o'quvchilar passiv tinglovchilardan faol tinglovchilarga aylanadi. Ular savollar berishi, o'z fikrlarini bildirishlari mumkin.

O'qitishning **interfaol metodlari** esa quyidagi chizmada ko'rsatilgan:



Interfaol strategiyalarida o'qituvchining roli keskin o'zgaradi, endi o'qituvchi darsning markaziy figurasiidan darsning tashkilotchisiga aylanadi, darsning umumiy yo'nalishini belgilaydi (oldindan kerak bo'lgan topshiriqlarni tayyorlaydi, guruhlar ishini tashkil etish bo'yicha savollar va mavzularni taraydi), vaqtini nazorat qiladi, maslahat beradi, murakkab terminarni tushuntirib beradi. O'quvchilarda esa axborotning qo'shimcha manbalari paydo bo'ladi — kitoblar, lug'atlar, ensiklopediyalar, kompyuter dasturlari va boshqalar. Bundan tashqari, o'quvchilarning ijtimoiy tajribalari ortadi — ular bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, berilgan topshiriqlarni hamkorlikda bajarishga o'rGANADILAR, bir-birlarini fikrlarini tinglash va hurmat qilishga odatlanadilar.

Bugungi kunda faol va interfaol metodlarning 100dan ortiq turlari mayjud. Ularning ichida quyidagi metodlardan texnika oliv o'quv yurtlariда ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiqdır.

«Aqliy hujum» metodi

«Aqliy hujum» (breynstroming — aqlilar to'zoni) — amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishdir.

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'1 qo'yishmay, uni hal etishning ko'proq shaxsxiy g'oyalarini yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq maqbul va boshqa g'oyalarini ajratadilar,

ulurni muhokama qiladilar va rivojantiradilar, ulurni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarni baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifikasi — ta'llim oluvchilarni o'quv-bilish faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va yechishga qiziqtrish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malkakalarini rivojantirish, tashqi ta'sir ostida fikrleshdan ozod bo'lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlanchi yo'1 fikrlarini yengib o'tishni tarbiyalaydi.

An'anaviy ta'linda vazifani yechish jarayonida ko'pgina ta'llim oluvchilar o'z g'oyalarini aytishga botina olmaydilar, o'z talkliflarining xatoligi, ta'llim beruvchining salbiy munosabati, boshqa ishtirokchilarning tanqididan qo'rqadilar.

Aqliy hujum qoidası:

1. Hech qanday birga baholash va tanqidga yo'1 qo'yilmaydi!
2. Maqsad miqdor hisoblanadi!
3. Tanqid qilma — hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

Ortaga chiquvchini bo'lma!
Turki berishdan o'zingni ushlashi!

1. Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarini paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.
2. Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va xijolat chekmaga.
3. Tasavvuringni «jo'sh urishinga» ruxsat ber!

«Insert» metodi

Insert — samarali o'qish va fikrlesh uchun matnda belgilashning interfaol tizimidir.

Insert usuli yordamida avvalgi bilimlar faollashadi, taqdim etilgan matn ongli ravishda o'zlashtiriladi. O'qilayotgan materiallar talaba tomonidan tabii qilinadi va maxsus belgilarni qo'yiladi. Insert usuli orqali ta'llim oluvchi o'zining mustaqil bilim

o'lishini faol kuzatish imkoniga ega bo'ldi. Bundan tashqari, insert yordamida talabada adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasi ham samarali rivojanadi.

Matnida belgilash tizimi

- (+) – men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;
- (+) – yangi axborot belgisi;
- (-) – meni bilganlarimga zid belgisi;
- (?) – meni o'yantirib qo'yди. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

«Pinboard» metodi

Pinboard (inglizchadan: *pin* – mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ta'lim beruvchi taklif etilgan muammoni yechishda o'z nuqtayi nazarini bayon qiladi, ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkilashdiradi.

Ta'lim oluvchilar g'oyalarni taklif etadilar, muhokama qildilar, baholaydilar, eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oya-larni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar; guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tamonidan belgilangan 2–3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- ◆ aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- ◆ tortishuvlarni aniqlaydilar;
- ◆ g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqaydilar;
- ◆ shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar.

Ta'lim beruvchi g'oyalarni umumlashtirradi va ish natijalarini baholaydi.

«Klasser» metodidan farqli ravishda «Pinbord» metodida so'zlar qog'oz varag'ida yozilgan bo'ldi.

«Pedagogik (ishbilarmon) o'yin» metodi

Pedagogik o'yinlar o'quv materialini o'zlashtirishga va uni mustahkamlashga, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga

umumiy ko'nikmalarini shakkantiruvchi masalalar majmuularini yechishga qaratiladi, talabalarga turli holatlardan o'quv materialini tushinib etish va o'rganish imkonini beradi. O'quv jaronida esa ishbilarmon o'yinlarni turli hil shakllarda ishlash mumkin: imitatsion, operatsion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psiko va sotsiodramalar. Ishbilarmon o'yinlar o'zida bo'lajak mutaxassisining kelajakdag'i kasbiy faoliyatining premetni va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi. Faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini modellashtiradi. Ishbilarmonlik o'yinida talaba o'zida o'quv va kasbiy elementlarni uyg'unlashtirgan o'xshash kasbiy faoliyatni bajaradi. Bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirilishi abstrakt darajada emas, balki kasbiy mehnat ko'rinishida amalga oshadi. Ishbilarmonlik o'yinlar orqali talabalar o'z kasbinning muhim jihatlarini kashf etadilar, shuningdek berilgan rolni ijob etish orqali o'z kasbidagi bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan chiqish yo'llarni izlash orgali bilimlarini boyitadi, kasbiga bo'lgan qiziqishi orradi, atrofdagilar bilan muomala qilish madaniyati shakllanadi va albatta o'zi rivojlanadi.

Imitatsion (taqpid) o'yinlar – ular ishbilarmonlik o'yinlaridan hajatidan kichikligi va hal etiladigan masalalar cheklanganligi bilan farq qiladi. Imitatsion o'yinlarning maqsadi talabalarda ijodiy muhitda u yoki bu malakalarni mustahkamlash, shuningdek, muhim tushuncha va kategoriyalarga alohida diqqat qaratishni nazarda tutadi. Shuningdek, imitatsion o'yinlar taqpid qilinadigan jarayon va obyektlar tarkibi hamda ahamiyati haqidada tafsilotlarni o'z ichiga oladi.

Amallli (ishlab chiqarishda uchraydigan aniq kasbiy vaziyatlarini tahlli qilishga bag'ishlangan) o'yinlar – mutaxassisining kasbiy faoliyatida vujudga keladigan muayyan voqeani xarakterlovchi o'zaro aloqador hodisa va dalillarni o'zida mijassamlashiruvchi vaziyat bilan talabalar tanishradi va unga mos yechimlarni taqdim etadi va jamoada muhokama qiladilar.

Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsniz vaziyat va majburiyatlarini bajarishdag'i ruhiy holatlari, xatti-harakati o'rganiladi va roller ko'rinishida ijob etiladi.

Keng qamrovli ishbilarmonlik o'yinlari – ma'lum bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamning xatri-harakati ishlab chiqiladi. Va-

ziyatning tafsiloti, ishtirot etuvchilar vazifa va majburiyatlarini, maqsadlari ko'rsatilgan sisenaryi tuziladi. Bu yerda ma'lum bir shaxsning shaxsiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri xatti-harakatni tansh muihim hisoblanadi.

Psixo va sotsiodrama – bu rolli va ishbilarmonlik o'yinlarga oxshagan bo'lib, faqat bu yerda sotsial yoki psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish boshqa kishining ruhiy holatni to'g'ri baholash, unga ta'sir ko'rsata olish, u bilan unumli muloqta kira olish kirdi.

Ishbilarmonlik o'yinlari quydagi vazifalarni yechish uchun tanلانади:

1. Talabalarda to'liq kasbiy faoliyat va uning dinamikasi to'g'risida tasavvurlarni shakkantirish.
2. Shaxsiy va jamoaviy yechimga ega bo'lgan muammoli kasbiy va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish.
3. Kasbiy sohada nazariy va amaliy tafakkurni rivojlanтирish.

4. Biliш motivatsiyasini shakkantirish orqali kasbiy motivatsiyani vujudga kelish shartlarini ta'minlash.

Shunday qilib, ishbilarmonlik o'yinlarni modellashtirishga faqat individual ravishda o'zlashtirish imkoniyati bo'Imagan hamda muammoli mazmunga ega bo'lgan kasbiy faoliyat to'g'ri keladi.

Ishbilarmonlik o'yinlarning afzallik tomonlari quydagi lardan iborat:

1. Ishtirotchillarda ta'lim jarayonidan emotsiional qoniqish hissi va o'rganishga bo'lgan yuqori motivatsiya yuzaga keladi.
2. Kasbiy faoliyatga tayyorlanish, shuningdek, talabalar o'zbilimlari ni qo'llash, ya'ni bilim, ko'nikmalar shakllanadi.
3. O'yinday keyingi muhokama bilimlarning mustahkmalanishiga yordam beradi.

4. Kompleks pedagogik maqsadlarga erishiladi: bilish, tarbiyaviy va rivojlanтиручи.

Ishbilarmonlik o'yinlariida talabalarda jamoaga taalluqlilik shakllanadi. Umumiy savollarni jamoaviy muhokama qilish esa tanqidiylikni, o'zini tuta bilishni, boshqalarning fikrini hurmat

qilishni, boshqalarga e'tiborni shakkantiradi. Shuningdek, ishbilarmon o'yinlar jarayonida mantiqiy fikrlash, berilgan savollarga yechim izlash qobiliyati, nutq va nutq etiketi, babs-munozarada ishtirot etish ko'nikmasi rivojanadi.

Ishbilarmonlik o'yinlарини о'казишнинг афзалик томонлари билан бир qatorda salbiy томонлари ham mayjud:

1. O'qituvchi uchun o'quv mashg'ulotiga tayyoragarlik ko'rishi katta hajmdagi mehnatni talab etadi.
2. Hamma o'qituvchilar ham ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish ko'nikmasiga ega emas.

3. O'zin jarayonida o'qituvchidan bir vaqtning o'zida aktyorlik va rejissyorlik ijodiy jarayonini boshqarish talab etiladi.

4. Ishbilarmonlik o'yinlarida ishtirot etishda talabalarning o'zları tayyor emasligi.
5. Ishbilarmonlik o'yinlari ko'p vaqtini, aniqrog'i dars jadvalini o'zgartirishni talab etadi.

Ishbilarmonlik o'yinlarni o'tkazishda quyidagi talabarga rioya qilish kerak bo'sladi:

1. O'yinda ishtirot etuvchilarmi reglamentga rioya qilishlari shart.
2. Qoidalar haddan tashqari ko'p bo'Imasligi (5–10 tagacha), ular plakat yoki slayd ko'rimishida taqdum etilishi kerak.
3. Qoidalar o'yinning hayotiyligini va ishbilarmonlik manosidagi xarakterini ko'rsatib berishi kerak.

4. Qoidalar o'yin ishtirotchilarining yo'riqnomalariga va o'yimmi tartibga tushuruvchi tizim (stsenariy) bilan aloqador bo'lishi kerak.

O'yining metodik ta'minoti quyidagi materialarning mavjudligi bilan bog'liq: o'yin loyihasi va qoidalari, o'yin hujjatlari (stsenariy).

O'yining yakuniy bosqichi bu nafaqat xulosa chiqarish, balki uning haqiqiy natijalarining kelib chiqish sabablarini tahlil qilishdir.

Shunday qilib, **birinchidan**, ishbilarmon o'yinlardan faqat bo'lajak kasbiy faoliyatni to'liq yorituvchi mavzularni o'rganishda foydalananish maqsadga muvoqiqdir. **Ikkinchidan**, ishbilarmonlik o'yinlarni ishlab chiqishda tizimli yondashuv talab etiladi va talabalar bilan ishlashning boshqa turlariga ta'sirini, boshqa

o'qituvchilarning munosabatini inobatga olish kerak. **Uchinchidan**, ishbilarmonlik o'ynlarida ishtirokchilardan predmetli va ijtimoiy kompetentlik talab etiladi. O'yningacha talabalarda bahs-munozarada ishtirok etish madaniyati shakllantirilishi lozim. **To'rtinchidan**, ishbilarmonlik o'ynlarning tarkibiy qismi shunday ketma-ketiqlika bo'lishi kerakki, ulardan ishtirokchilar zerikmasligi, balki jo'shqin qiziqish bilan ijo etishlari kerak. **Beshinchidan**, ishbilarmonlik o'yni o'z-o'zini boshqarish tamoyillariga bo'yusunishi kerak. O'qituvchi faqat o'yindan oldingi tushuntirish ishlariда va o'yin yakunidagi tahlidida ishtirok etishi nazarida tutildi. **Oltinchidan**, ishbilarmonlik o'yn jarayonida talabalar an'anaviy xulq-atvori bilan ajratilgan vaqtida ular gurmaydi. Shu sababli bu holat modellasshtirilgan ishlab chiqarish jarayoni mantigiga bo'ysindirilishi kerak. **Yettinchidan**, ishbilarmonlik o'ynlarini ko'proq haftaning oxirgi kuni amaliy darslarda o'tkazish maqsadga muvoqifdir.

Dars jarayonda muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun pedagogik (ishbilarmon) o'ynlardan foydalanish orqali muammoli vaziyatni hal etishimiz bilan birga talabalarda ushbu kasbiy faoliyatda uchraydigan masalaning yechimini izlash va topa olish, jamoada ishslash, bo'lajak kasbinining nozik tomonlari o'r ganishga imkoniyat yaratg'an bo'lamiz. Shu bilan birga o'qituvchi o'z darsiga, kasbiy faoliyatga va talaba tanlagan kasbiy qiziqish uyg'otadi.

«Muammoli vaziyatlar» metodi

Muammoli vazifalar metodi – ta'lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qaromi qabul qilishdan iboratdir. Metodning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'rgatuvchi – bilimlarni faollashtirish.
 2. Rivojlantruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylilikni ko'ra biliшини shakllantirish.
 3. Tarbiyalovchi – fikr almashinish ko'nikmalarini shakllantirish, boshqalar fikrini hurmat qilish.
- Muammoli vaziyatlardan foydalanish metodi nazariyani amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilardan iborat:

- ◊ noma'lumning borligi, uni topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi;
- ◊ noma'lumni topish yo'nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun ta'lim oluvchilarda ma'lum darajada bilim manbalari shakllanadi.

Muammo 3 tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- ◆ Ma'lum (ushbu berilgan vazifadan).
- ◆ Noma'lum (topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi).
- ◆ Noma'lumni topish yo'nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan avvalgi bilimlar (ta'lim oluvchilar tajribasi).
- ◆ Noma'lum (ushbu berilgan vazifadan).

Muammoli vaziyatni ishlab chiqish katta mehnat va pedagogik mahoratni talab etadi. To'g'ri tuzilgan muammoli vaziyatlar nazariyani amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, ta'lim oluvchilarning kelajakdag'i kasbiy faoliyatları uchun zamin yaratadi.

«Klaster» metodi

Klaster – tutam, bog'lam – axborot xaritasini tuzish yo'lli – barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarini yig'ishga qaratilgan metod.

Bu metod bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvur-larni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi quyidagicha. O'qituvchi doska yoki katta qog'oz varaqning o'rasisiga asosiy so'z yoki 1–2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar «yo'ldoshlar» yozib qo'shiladi. Ularni «asosiy» so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu «yo'ldoshlarda» «kichik yo'ldoshlar» bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

Klasterni tuzish qoidasi:

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

«Toifalash jadvali» metodi

Toifa – xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiyligi) alomat.

Bu metod ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi, tizimli fikrash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojantiradi.

Talabalar toifali sharhlashni tuzish qoidasi hamda yangi o'quv materiali bilan tanishganlardidan so'ng, kichik guruhlarda ishlaydilar, olingan ma'lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar.

Toifalar jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi. G'oyalar yoki ma'lumotlar toifaga mos ravishda bo'linadi. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi yoki yangilari paydo bo'lishi mumkin.

«Toifalash sharkini tuzish qoidasi

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta miniguruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas, bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin.

Toifalash jadvali

Toifalash jadvali

«Konseptual jadval» metodi

Bu metod o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi, tizimli fikrash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, o'quv materialini tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojantiradi.

Talabalar oldin konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tuzishadilar. Taqqoslanishi kerak bo'lgan tavsiyalar, toifalar aniqlanadi, ularning o'zigan xos xususiyatlari ajaratiladi. Konseptual jadval alohida yoki kichik guruhlarda to'ldiriladi.

- *Uzunlik bo'yicha* taqqoslanadigan (fikr, nazarriyalar) joylashtiriladi;
- *Yotig'i bo'yicha* taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiyalar yoziladi.

Konseptual jadval

...	Tavsiyalar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar
... tushunchalarga yondashuvlar	

«Tushunchalar tahlli» interfaol metodi

Ushbu metod yordamida mavzu bo'yicha o'tilgan tushunchalar, kalitli so'zlar aniqlashtiriladi, chuqurlashtiriladi, ularning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Bu metod talabalarning tafakkur operatsiyalarini rivojantiradi. Chunki har bir kalitli so'zga izoh berish uchun talaba o'quv materialini har tomonlama tahlil qiladi, mayjud bilimlarini umumlashtiradi va xulosha chiqaradi.

Tushunchalar tahlli jadvalini to'ldirish yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajarilishi mumkin.

Ushbu metod asosan yangi mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Shuning uchun undan amaly va seminar mashg'ulotlarida yoki uy vazifasi sifatida foydalananish yaxshi natija beradi.

Toifalash jadvali

Toifalash jadvali

«B/B/B» metodi

«Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim» metodi.

Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Bu metod ham talabalarning tizimli fikrash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojantiradi. Talabalarga jadvalga tuzish qoidasi tushuntiriladi. Keyin B/B/B jadvali alohida kichik guruhlarda rasmiy lashtiriladi.

Talabalardan mashg'ulot boshsanishida «Mavzu bo'yicha nima-larni bilasiz» va «Nimani bilishni xohlaysiz» degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiriladi. Mashg'ulot yakunida 3 bo'lim to'ldiriladi.


Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

«Venn diagrammasi» metodi

«Venn diagrammasi» 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llamildi. Bu metod tizimli fikrash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojantiradi.

«Venn diagrammasi» yordamida ikki va undan ortiq tushuncha, hodisa yoki jarayonlarni taqqoslash mumkin.

Venn diagrammasi



«SWOT – tahlil» jadvali metodi

Bu metod alohida muammo yoki loyihani tashkillashtirishdek, vaziyatni tahlil qilish va manbani baholash vositasi sifatida xizmat qiladi. Metodning asosiy maqsadi tizimli fikrash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish kabi ko'nikmalarini rivojlan-tiradi.

Oldin talabalar «SWOT – tahlil» jadvalini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Keyin esa kichik guruhlarda jadvalni tuzadilar va to'ldiradilar.

«SWOT – tahlil» jadvalining nomi inglizcha so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan:

Strengths – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki man-balari mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarining mavjudligi;

Opportunities – tashqarida rivojlanish uchun mayjud imkoniyatlar;

Threats – tashqi muhitda tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi xavf-xatarlar.

«SWOT – tahlil» jadvali

S	O	W	T

Qoidaga ko'ra, SWOT – tahlil muvaffaqiyatini tashkillashtirishga bog'liq bo'lmay, balki muhokamaning natijalari kel-gusidagi aniq taklif va loyihalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi mumkin. Bundagi ketma-ketliklar quyidagicha bo'lishi kerak:

Tahlii tarkiblari	Natiyalarni amalga oshirishning xususiyatlari
S Kuchli tomonlari (tashkilashtirishning ichki manbalari)	<ul style="list-style-type: none"> – barqaror rivojanishning asosiy mekanizmi bo'lib xizmat qiladi; – yangi loyihalar asosi hisoblanadi; – to 'sigaqlarni yengib o'tishining yo'li bo'lishi mumkin.
W Kuchsiz tomonlari (tashkilashtirishning ichki muammolari)	<ul style="list-style-type: none"> – tashkilashtirish faoliyati aynan shularni yengib o'tishga yo naltirlegen bo'lishi lozim; – yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; – rivojanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur.
O Imkoniyatlar (tashqaridan)	<ul style="list-style-type: none"> – moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha ko'rsatkichi yoki tashqi manba bo'lib xizmat qiladi, – ular trashkilashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosega kelishishi bilan qanchalik mos kelishimi hisobga olish zarur bo'ladi; – yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo'lishi mumkin.
T Xavflar (tashqaridan)	<ul style="list-style-type: none"> – har bir yangi loyihaba hisobga olinishi zarur; – ularni yengib o'tish yoki betaraf etish yo'llari ishlab chiqilishi kerak; – ba zida maniqa mas kelmaydigan «raqiblar» «ittifoqchilarغا» aylanishi mumkin.

Beshinchchi qatorda mavzuni mohiyatini ifodalovchi bitta so'z beriladi. U batcha yuqoridaq fikrlarni umumlashtirgan bo'lishi kerak.
 «Sinkveynni» sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Muammo nomi
2. Sifat
3. Harakat
4. Hissiyotni (mavzuga shaxsiy munosabatni) ifodalovchi jumla
5. Xulosa

Sinkveyn ma'lum mavzvu o'rganilgandan so'ng twilsa, uning ma'nosi chuqurroq bo'ladi. Sinkveyn materiallar ustida o'ylashga, murakkab axborotni sintezlashga va uni uzoq xotirada saqlashga yordam beradi. Ijodiy ishlash imkoniyati kelib chiqadi.

«Nima uchun» metodi

«Nima uchun» sxemasi – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiridir.
 Metodni amalga oshirish uchun muammo tanlanadi. Asosiy muammo shakllanganidan keyin «Nima uchun?» savoliga javob beriladi. Berilgan javobga yana «Nima uchun?» degan savol beriladi va hokazo.


«Sinkveyn» interfaol metodi

«Sinkveyn» so'zi frantsuzchadan olingan bo'lib, «besh qator she'r» degan ma'noni anglatadi. Sinkveynda narsa yoki hodisa haqidagi fikr qisqa ko'rinishda ifodalanadi. Sinkveynda ma'lumotlar 5 qatorda yoziladi.

Birinchi qatorda mavzua bir so'z bilan (odatda, ot bilan) ifodalanadi. Ikkinchchi qatorda mavzuga juda mos keladigan ikkita sifat beriladi.

Uchinchi bildiruvchi fe l'dan foydalaniлади.

To'rinchi qatorda mavzuga doir muhokama etuwchilarning hissiyotini ifodalovchi jumla tuziladi. U to'rt so'zdan iborat bo'ladi.



♦ «Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to'g'ri to'rburchak shakklardan foydalananishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini – mulhazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chizigli emasligini o'zingiz tanlaysiz.

3. Yo 'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlarinizi: daslatki holdidan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.


«Baliq skeleti» metodi

«**Baliq skeleti**» bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi.

Asosiy muammo «baliq»ning bosh qismida yozildi. Ustida qatorda asosiy muammoga mos ravishda kichik muammolar keltiriladi. Pastki qatorda esa kichik muammolarga daillar keltiriladi.

«Baliq skeleti» metodi kichik guruhlarda qo'llanilishi tavsiya etildi.

«Baliq skeleti» chizmasi




«Qanday?» diagrammasi

Bu metod muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiri metodidir.

Bu metod quyidagi chizma ko'rinishida amalga oshiriladi.

Quyidagan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'y sunuvchi

«Qanday?» diagrammasi



«Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari

(talabalarغا ko'rsatmalar)

Ko'pgina hollarda muammoni yechishda «nimma qilish kerak»ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda «buni qanday qilish kerak?», «qanday» asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchini gal-dagi harakatlarning ro'yxatiga mos keladi.

1. Barcha g'oyalarни o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqlasmasdan tezlikda yozish kerak.

2. Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarни kiritish mumkin.

3. Agarda chizmada savol uning «shoxlarida» bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiyси bo'lishi mumkin.

4. Yangi g'oyalarни grafik ko'rinishda: daraxt yoki kaskad ko'rinishidami, yuqoridaн pastgani yoki chapdan o'ngda qayd qilinishimi o'zingiz hal etasiz.

5. Agarda siz o'zingiza to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'naliishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«Nilufar gul» metodi

«Nilufar gul» interfaol usuli sxema ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu usul har qanday muammolarni hal etishda qo'llanishi mumkin. Interfaol usul o'zida nilufar guli obrazini mujas-sam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadrattilar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Sxemani tuzish qoidalari. Yakkta (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (masala) markaziy kvadratning markaziga yoziladi. Uni hal qilish g'oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yoziladi. Har bir ushu sakkizta g'oya markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkaziladi, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkaziladi. Shunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

«Nilufar guli» chizmasi

	B						
		Z					
			C				
B				F			
D	A	Z	C				
G	H						

«Nilufar guli» metodi talabalarga yangi bilim bermaydi. Bu metod orqali ularning mayjud bilimlar mustahkamlanadi, g'oya-lar mujassamlashadi, muammlarni yechish yo'llari aniqlanadi. «Nilufar guli» metodidan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish yaxshi samara beradi.

«Nilufar guli» guli chizmasini tuzish qoidaları

- ◆ Amaliy nuqtayi nazzardan barcha g'oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitra-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.
- ◆ Sizga katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Doimo o'zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishningizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

«Rezyume» metodi

«Rezyume» metodi interfaol usul hisoblanib, talabalarga har xil narsa, jarayon va xodislarini taqqoslash, ularning afzallik va kamchilik tomonlarini tahlii qilish imkonini beradi.

«Rezyume» metodidan foydalanimish tartibi:

1. Talabalar kichik guruhlarga ajratiladi
2. O'qituvchi talabalarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir kichik guruhga A4 formatdagagi qog'oz targatiladi. Qog'ozning yuqori qismida asosiy muammo va bu muammoni yechish yo'llari ko'rsatiladi.
4. Har bir guruh asosiy muammoni yechish yo'llarini tahlil qilib, ularning afzallik va kamchiliklarini berilgan varaqqa ezzadi. Oxirida xulosa qilinadi, ya ni qaysi yo'l qulayligi aniqlanadi va xulosa qismiga yoziladi.
5. Kichik guruhlarda ish yakunlangandan keyin har bir guruh sardori bayon etilgan fikrlarni taqdimot etadi.
6. Talabab har bir taqdimotga baho beradilar, o'z fikrlarini bildiradilar.

«Charxpalak» metodi

Bu metoddan ma'lum bir mavzuni yakunlagandan keyin foydalanimish tavsiya etiladi. Ushbu metod yordamida aniq bir ma'lumotlar o'rtasidagi muvosiflik aniqlanadi. Jadvalning chap tomonida asosiy tushunchalar, jarayon va hodisalar mazmuni yoritiladi, o'ng tomondagagi horizontal qatorda esa shu asosiy tushunchalar, jarayon va hodisalarga taalluqli ma'lumotlar keltiriladi. Talabalar kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga katta formatdagagi qog'ozda bir xil «Charxpalak» jadvali tarqatiladi. Har bir guruh o'zi uchun ma'lum bir begini tanlaydi. Masalan, I guruh to'rburchak shakldagi belgini, II guruh esa yulduzcha shaklini tanlashni mumkin va hokazolar. Har bir guruh to'g'ri javobni topib, bo'sh katakchalarining biriga o'zining belgisini qo'yadi. Keyin varaqlar almashinadi, ya ni I guruh o'z varag'ini II guruhga, II guruh III guruhga, IV guruh I guruhga va hokazolar. Endi har bir guruh boshqa guruh tomonidan qo'yilgan belgilarni o'rganib chiqib, o'z belgilarini qo'yadi. Agar

barcha guruhlarning fikri bir hil bo'lsa, bu masala yuzasidan savollar paydo bo'imaydi. Har xil javoblar berilgan bo'lsa, o'qituvchi bu masalalarga oydinlik kiritadi va to'g'ri javobni aytadi.

«Bumerang» metodi

«Bumerang» metodini o'tkazish tartibi. «Bumerang» metodining birinchi bosqichi bo'yicha guruh talabalari to'rt yoki undan ortiq guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh uchun har xil mantlar tarqatiladi.

Talabalar 20 daqiqaga ichida berilgan ma'lamlarni o'qib, tushuning va boshqa talabalarga yetkazib berish darajasida o'rganishi kerak. So'ngra o'qituvchi har bir guruh talabalariiga 1–6 gacha (guruh talabalari soniga qarab) bo'lgan sondan binini tanlashni tavsiya etadi.

O'qituvchi har bir guruhdagi 1-raqamli talabalarini to'plab, yangi guruh tuzadi. Ya'ni, «Bumerang» texnologiyasining ikkinchi bosqichida talabalar yangi guruhlarga bo'linadi. Yangi guruhdagi talabalarning matnlari har xil bo'ladi.

Ikkinchchi bosqichda har bir talaba o'z matni bilan yangi guruh a'zolarini tanishtiradi. Bunga 20–30 daqiqa vaqt ajaratiladi. Barcha matnlar o'rganilganidan keyin, talabalar bir-birligiga savollar berib, yangi mavzuni takrorlab, mustahkamlaydilar. Shunday qilib, ikkinchi bosqich yakunida har bir talaba barsha matnlarni o'zlashtirgan bo'ladi.

Uchinchchi bosqichda o'qituvchi talabalarini bilimlarini tekshirish maqsadida matnlar bo'yicha savollar beradi.

Mashg'ulot yakunida, to'rinchi bosqichda xulosalar chiqariladi, talabalar baholanadi. Bunda o'zini-o'zi baholash usullari dan ham foydalanish mumkin. Talabalar bir-biriga savollar berib, «Eng yaxshi guruhi», «Eng yaxshi savol» kabi baholarni qo'yishi mumkin.

«Kubik» metodi

Talabalarning mashg'ulot jarayonida diqqatini jamlash, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish va mustaqil fikrlashega o'rgatishda «Kubik» metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bu metod dars boshlanishida talabalarga tushuntiriladi, mashg'ulot yakunida esa o'tilgan dars bo'yicha guruh fikrlari tinglanadi.

Talabalar diqqatiga 6 tomonli kubik taqdim etildi va mashg'ulot jarayonida talabalar ushbu kubik bilan ishlaydilar.

1. Guruh talabalari 6 kichik guruh bo'linadi, har bir guruh kubikning ma'lum bir tomoni bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar oladi.

2. Har bir guruh kubikning «o'z tomonini» to'ldiradi.

3. Har bir guruh o'z ishining natijalarini boshqa guruhlarga taqdim etadi.

Kubikning birinchi tomoni bo'yicha ko'rsatmalar «Assotsiatsiyalar» (ya'ni nimaga o'xshaydi)

Hurmatali guruh ishtiroychilar!

Sizlar mashg'ulotning assotsiativ «portretini» (obrazini) yaratasizlar.

Sizlar mashg'ulotimizing umumiy ko'rinishini obrazlar orqali aks etasizlar. Bu rasm, geometrik shakllar yoki biron bir insonning portreti bo'lishi mumkin. Ya'ni ushbu mashg'ulotimiz qanday obrazlarni ko'z oldingizga keltirisa, shularni chizing.

Guruhda maslahatlashib, «obrazni» alohida varaqda chizing.

Kubikning ikkinchi tomoni bo'yicha ko'rsatmalar «Tasvirlab bering»

Hurmatali guruh ishtiroychilar!

Sizlar mashg'ulotning borishini, uning bosqichlarini va qo'llanilgan usullarini tasvirlaysizlar.

Fikrlaringiz aniq va to'liq bo'lishi kerak. Siz o'zingiz istagan belgilarni tizimidan foydalaniishingiz mumkin.

Guruhda maslahatlashib, fikrlarni alohida varaqda aks eting.

Kubikning uchinchchi tomoni bo'yicha ko'rsatmalar

«Taqqoslang»

Hurmatli guruh ishtirokchilari!

Sizlar faol ma'ruzani an'anaviy ma'ruza bilan taqqoslaysizlar. Buning uchun bugungi mashg'ulotimizga asosanib, quyidagi jadvalni to'ldirishlariz kerak bo'ladi:

Faol	1	2	3	4	5	6
ma'ruza						
An'anaviy						
ma'ruza						

1, 2, 3, 4, 5, 6 – bu ma'ruzalarni taqqoslash uchun siz o'zingiz mustaqil tanlab olgan asoslardir.

Nima qilish kerak?

Birinchidan taqqoslash uchun asoslarni tanlaysiz; ikkinchidan asosga mos ravishda faol va ana'anaviy ma'ruzaga xos tomonlarni kerakli kataklarga yozasiz.
Jadvalni alohida varaqda chizing va guruhda maslahatlashib uni to'ldiring.

Kubikning to'rtinchchi tomoni bo'yicha ko'rsatmalar

«Tahbil qiling»

Hurmatli guruh ishtirokchilari!

Sizlar faol ma'ruzani bugungi ma'ruzaga nisbatan tahlil quilingiz kerak bo'ladi.

Sizning tahlilingiz aniq va to'liq bo'lishi uchun quyidagi «AKM jadvali»ni to'ldirishni tavsiya etamiz:

A: Azzalligi (mashg'ulotning samarali bo'lishiga nimalar ta'sir etdi?)	K: Kamchiligi (mashg'ulot olib borilishida nimalar «tormoz» bo'ldi)	M: Muammo (interfaol usullardan foydalaniishda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?)
---	--	--

Jadvalni alohida varoqda chizing va guruhda maslahatlashib uni to'ldiring.

Kubikning beshinchchi tomoni bo'yicha ko'rsatmalar

«Baholash»

Hurmatli guruh ishtirokchilari!

Siz faol ma'ruzani bugungi ma'ruza bilan taqqoslagan holda baholashingiz kerak. O'z baholaringizni 10 balik tizimda quyidagi ko'rinishda keltirishingizni so'raymiz.

10									
9									
8									
7									
6									
5									
4									
3									
2									
1									

Eniga ezilgan 1, 2, 3 va hokazo raqamlar darsni baholash mezonlaridir. Bu mezonlarni o'zlarining topasizlar. Masalan, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik va hokazolar. Shkalani alohida varaqda chizing va guruhda maslahatlashib uni to'ldiring.

Kubikning oltinchchi tomoni bo'yicha ko'rsatmalar

«Qo'llash»

Hurmatli guruh ishtirokchilari!

Sizlar ushbu mashg'ulotda olingan bilimlarningizdan ketajkdagi faoliyatningizda qanday foydalana olishingiz mumkinligi haqida fikr yuratisizlar.
Fikrlar aniq va to'liq bo'lishi uchun qo'yidagi jadvalni to'ldirishingiz kerak:

G'oyalilar (kalitli so'zlar)	Izohlar
------------------------------	---------

Jadvalning birinchi ustunida mashg'ulotda olingan asosiy g'oyalarni yoki mashg'ulotning muhim jihatlarini, e'tiborga

loyiq tomonlarini ko'rsatishingiz mumkin. Ikkinchisi ustunda esa ularga izoh berasiz, ya'ni ularning mazmun-mohiyatini, nima uchun ularga e'tibor qaratganingizni to'liq olib berasiz.

Mashg'ulot yakunida har bir guruh o'z varaqlarini kubikning o'ziga tegishli tomoniga yopishshtiraadi.

Bu metod talabalarini butun mashg'ulot jarayonida o'z dengatlari jamlashga undaydi. Mashg'ulotning har bir bosqichi talabalar tomonidan ongi ravishda tahlil qilinadi.

Yuqorida ko'rib chiqigan interfaol metodlar ta'limgarayonda talabalarning axborotlarni o'zlashtirib olish faoliyatini tashkil qilishning eng qulay va samaradji metodlaridir. Interfaol o'qitish jarayonida barcha talabalar bilim olish jarayoniga jalb qilinadilar, o'zlar o'yagan narsalar xususida tushunish va fikr-lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quv materialini o'zlashtirishga har bir talaba o'z hissasini qoshadi (ish kichik guruhlarda olib borilganida). Bunda bilimlar, g'oyalar, faoliyat usul-lari bilan almashinuv jarayoni kuzatiladi. Shu bilan birga interfaol metodlar o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash va ochiq-ko'ngilllik muhitini yaratadi.

O'qitishning interfaol metodlari insomming umumiy kamoloti uchun zarur bulgan ijtimoiy ko'nikmlarni ham rivojiantiради, shu sabab ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

II bob. TEXNIKA OLIV O'QUV YURTILARIDA O'QITILADIGAN MUTAXASSISLIK FANLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Texnika oliv o'quv yurtlarida ta'limgarayoni

Texnika oliv o'quv yurtlarining talabalarini o'zlarini tanlagan soha bo'yicha maxsus bilimlarni o'zlashtirishlari uchun ularga tabbiy-ilmiy, umunkasbiy va muaxassislik fanlari bo'yicha ixtisoslikka oid saboqlar beriladi. Ushbu fanlarga tegishli asosiy tu-shunchalar va ma'lumotlar uzviy bog'liqlikda, manitigan ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich tarzda o'rnatiladi.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishdan maqsad bitiruvchi talabalariga davr talabi darajasidagi mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun kerak bo'lgan bazaviy nazariy-amaliy bilimlarni berish, kasbiy faoliyatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish hisoblanadi.

Bakalavr tizimida mutaxassislik fanlarini o'qitishdan asosiy maqsad talabalariga o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha texnologik bilimlarni berish, ularni ish faoliyatiga tayyorlash, ularda Davlat Ta'limgarayoniga mos ravishda kasbiy tayyor-garlikni shakllantirish hisoblanadi.

Magistratura tizimida o'qitiladigan maxsus fanlar talabalgan faqat kasbiy faoliyat bo'yicha bilimlar beradilar, balki ularda soha bo'yicha ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarni shakllantiradilar.

Bakalavr tizimida o'qitiladigan maxsus fanlardan farqli ravishda magistratura tizimida o'qitiladigan maxsus fanlarning o'quv dasturlari tarkibida ilmiy-nazariy o'quv materiallarning salmog'i yuqoriroq bo'ladi, ularda texnologik jarayonlarning tub mohiyatini oshib berishga qaratilgan materiallarr to'liq ravishda keltiriladi. Shu bois ular talabalarini ilmiy va ijodiy faoliyatga yo'naltiradi.

Ushbu o'quv materiallari tushunari bo'lishi va talab daramasida o'zlashtirilishi uchun talabalarda texnik va ijodiy fikrلаш, texnologik metodlarni taqqoslash va samaraliroq 'ini tanlay olish,

texnologik jarayonlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil tarzda yechha olish kabi qobiliyatlarini va ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Shu bois, texnika oliv o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan tashabdalarda mutaxassislik fanlariga nisbatan qiziqish uyg'otish, soha fanlarini chuqur o'zlashtirishga undash, mutaxassislik fanlar bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllashtirish, kasbiy mahorat sirlarini egallashga zamin yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kimyoiy texnofanlarini o'qitish jarayonida kimyoiy-teknologik fikrlashni shakllantirish ta'lim samarasini oshirishning eng muhim shartlardan biridir.

Mutaxassislik fanlarining aksariyati odatda yuqori kurslarda o'qitiladi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish ketma-ketligini belgilashda avval texnologik jarayonlarning fizik-kimyoiy asoslarimi o'rnatishga qaratilgan, mantiqan nazariy ma'lumotlarni o'zida qanragan fanlar, keyin texnologik mazmunga ega bo'lgan, texnologik jarayonlarning shartlari va kema-ketligini, ishlatalidigan texnologik jihatolarning tuzilishi va ishslash tarzi bilan tanishti-rivchi fanlar va nihoyat tanlov fanlari qatorida tor mutaxassislik bo'yicha mukammal bilimlar beruvchi va ko'p hollarda bitiruvchining bo'lajak ish joyi bilan bog'liq bo'lgan sohaga tegishli fanlar o'qitiladi. Tanlov fanlari bitiruvchi talabalarini mustaqil faoliyatga tayyorlash, unga kasbiy mahorat sirlarini o'rnatish, ishlab chiqarish sharoitiida yuzaga keladigan muammolarni yechha olish, o'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha egallagan bilmalarini tor doira kesimida chuqurlashtirish va mustahkamlash vazifasini bajaradi. Tanlov fanlari odatda bitiruvchi kafedralar tomonidan nisbatan oz sonli talabaldardan tashkil topgan guruhlarda o'tkaziladi, ba'zi hollarda qaysi tanlov fanidan saboq olishni talabaning o'zi tanlaydi.

Texnika oliv o'quv yurtlarida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarining o'quv dasturlari ko'p hollarda murakkab texnik mazmundagi materiallardan, jarayonlarning mohiyatini ochib beruvchi matematik formulalar va ifodalardan, texnologik jihatolarning tuzilishi va ishslash tarziga bag'ishlangan sxemalar, eskrizmlar, chizma materiallar va texnologik tasvirlardan tashkil topadi.

2.2. Mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv materiallarining tavsifi

Umumtexnika va mutaxassislik fanlari o'quv materialini umumiyl holda texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va insonlar ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bazaviy fanlardan ajratib olingan ilmiy daillar, nazariyalari qonun va gipotezalarni sifatidagi ilmiy-teknikaviy tushunchalar hamda maxsus ma'lumotlar tizimi sifatida qabul qilish mumkin. Texnikaviy fanlarga oid o'quv materiallarining mazmuni fizika va kimyo sohalaridagi ilmiy yutuqlar bilan bevosita bog'liqdir, chunki ushbu fanlarning qonunlari texnologik jarayonlarni tashkil qilishda, atrof-muhit muhofazasida va ishlab chiqarish texnologiyalarida ilmiy asos bo'llib xizmat qiladi. Fan bo'yicha o'quv dasturi kesimida o'quv materialining mazmuni turli daramada umumlashirilgan o'quv elementlari konkretnashtiriladi, fan bo'yicha o'quv adabiyotlar kesimida esa talabani manbilan mustaqil ishslashiga imkon beruvchi ko'rgazmali materiallar holida taqdirm etiladi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv materiali talabuning bo'lajak kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan konkret texnik va texnologik obyektlarga yo'naltiriladi. Uning mazmuni xususan, texnik, texnologik, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy ma'lumotlari, fan, texnika va ishlab chiqarish taraqqiyotining holatini, ilmiy-teknikaviy taraqqiyotda va atrof-muhit muhofazasida ingsonlarning rolini hamda tarixiy daillarni o'zida aks ettiради.

Didaktika nuqtayi nazaridan o'quv materiali bilib olish yo'

lidagi vazifalardan tashkil topgan va ma'lum maqsadga qaratilgan tizim safatida qabul qilinadi.

Kashbiy ahamiyatiga ko'ra o'quv materiali **asosiy va yordamchi** turlarga ajratiladi. **Asosiy** o'quv materiali bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatiga ega bo'lgan texnik va texnologik bilimlarning hajmi va mazmunitini aniqlaydi. U kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan konkret texnik va texnologik tushunchalar, qonun va nazariyalar hamda ulardan foydalanish amaliyotining mohiyatini ochib beradi. Ularning mazmuni qo'yildigan asosiy talab: ilmiylik, to'liq va chugur holda

taqdim etish, kichik hajmida katta sig'indagi ma'lumotni aks ettirish va hokazolar.

Bundan farqli o'laroq, **qo'shimcha** o'quv materiali talabanining bilish doirasini fan, texnika va ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlar, olimlar, ishlab chiqarish novatorlari, texnologiya rivojishga qaratiladi. Bu turdag'i o'quv materiali istiqbolli muammolizmat qiladi.

Texnik sohalarga qarashli fanlarning o'quv materiallari mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

– **Bayon etuvchi, hikoya qiluvchi va dalili.** Bu guruhga kiruvchi materiallarni ishlab chiqarishning tuzilishi, texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlari, texnika xavfsizligi, ishlab chiqarishning taxxi haqidagi ma'lumotlarni oshib beradi.

– **Ishbotlovchi.** Bu guruhga kiruvchi materiallar ishlab chiqarish jarayoni, texnologik jarayonlarni loyihalash, uskuna va jihatlarini ishlab tartibi bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar va nazariyalarning mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

– **Analisy.** Kasbiy faoliyat sharoitida nazariya va qonunlarni qo'llash va ulardan foydalanish qoidalarini va yo'llarini oshib beruvchi materiallar ushbu guruhni tashkil etadi.

O'quv materiallarni ushbu guruhlarga ajratilishi ta'lim jaryonida o'qitish metodlari va vositalarini to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Texnika sohasidagi mutaxassislik fanlarning o'quv materiallarda 4 guruhdagi texnik bilimlar namoyon bo'ladi:

«**Bilim – texnika**»;

«**Bilim – texnologiya**»;

«**Bilim – xomashyo va materiallar**»;

«**Bilim – iqtisodiyot**».

Texnik fanlarning o'quv materiallari talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan real texnik va texnologik obyektlarning tavsisi, ularning tuzilishi va ishlash tarzi, ularda kechadigan jarayonlarning ketma-ketligi va mohiyatini yoritishga bag'ishlanadi.

Texnik obyektlarni bayon etish insonnинг real ishlab chiqarish va mehnat faoliyatida yuzaga keladigan jarayon va hodi-

salurni tushuntirish va moliiyatini ochish bilan birga kechadi. Bu vazifa yangi terminlar, ilmiy-texnikaviy tushunchalar, rasmilar, chizmalar, grafiklar, sxemalar yordamida bajariladi. Yangi texnik tushunchalar bilan bir qatorda o'qitish jarayonida yuqori darajadagi abstraksiya sifatida yuzaga chiquvchi kinematik va texnologik shartli belgilari ham ishlataladi. Texnik tushunchalarining ushbu xususiyatini ularni shakkantirish metodikasini tanslashda, o'qitishning moddiy, moddiylashtirilgan va belgiligi vosisi talarini orasidagi nisbatni aniqlashda e'tiborga olish lozim. Bunda ba'zi bir texnik va texnologik tushunchalar talabalarga fizika, kimyo va boshqa avval o'qitilgan texnikaviy fanlardan tanish ekanligini ham ko'zda tutish kerak. Shu sababli, o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga qo'yildigan talablardan kelib chiqqan holda, ularni dolzorligini oshirish, kengaytirish va chugurlashtirish muammosi har tomonlana maqbullik asoslariga tayangan holda yechiladi.

Texnik fanlarning o'quv materiali mazmunini tashkil etgan barcha texnik tushunchalar ko'pkomponentli hisoblanadi. Ko'p hollarda, yangi texnik tushunchalar bo'yicha daslatlabki bilumlarni tababalar bitta premetnai o'qish jarayonida egallaydilar, keyin-chalik boshqa premetnai o'zashitirish davomida ular kengayradi va chuqurlashadi. Bu holat texnik fanlardan dars beruvchi o'qituvchilarda o'qitilayotgan fanga oidi yangi tushunchalar, ma'lum va qisman ma'lum tushunchalar tarkibini chegaralashga majbur qiladi, bu esa o'qitish jarayonida talabalarga tushadigan ortiqcha yuk hajmini kamaytirish, o'qitish vositalarini va fan dasturi mazmunini to'g'ri tanlash uchun imkoniyat beradi.

Texnik termin va unga xos bo'lgan texnologik belgi yuqori darajadagi abstraksiya bo'lib, u katta qiyinchiliklar bilan o'z-lashtiriladi, chunki har bir termin va sharli belgi orgali talaba o'rganilayotgan obyektni uning barcha xossalari va belgilari, afizalliklari va kamchiliklari, taysiylanishi, ishslash tarzi va qo'l-lanish sohalarini ko'ra bilishi lozim. Buning uchun o'quvchidan real obyektlarni ko'ra turib, fikran ularning modellari va shartli belgilariiga o'ta olish va aksincha xarakterdag'i ko'nikmalar talab qilinadi.

O'quv materialining mantiqiy strukturasi uning asosiy xarakteristikasi hisoblanadi. Pedagogik adabiyotda u mantiqiy-

didaktik bog'lanishlarning barqaror va tartiblangan tizimi sifatida ifodalanadi. Mantiqiy struktura tushunchalar qurilishi o'quv materialini mantiqiy elementlar orasidagi bog'lanishlari topilgan struktura yagonasi sifatida aks ettradi. O'quv materialining struktura-mantiqiy sxemasi nafaqat mexanik jihatdan birlashgan, balki fikrlash jarayoniga jiddiylikni, qonuniyatni va dalillikni ta'minlab, bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan darajada bog'laning tushunchalarning mifodoriy tarkibini ifodalaydi. O'quv materialining mantiqiy strukturasi operator, graf va formulalar sifatida, diagrammalar, grafiklar hamda texnik bilimlarni ifodalashning bosqqa til yordamidagi vositalari sifatida yozildi.

2.3. Texnik tushunchalar shakllanishining nazariy asoslari

Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida texnik tushunchalar taba bilish faoliyatining qonoli sifatida namoyon bo'jadi. **Texnik tushuncha** – texnik obyektlarni va texnologik jarayonlarni va hodisalarни уларни о'зига хос беғилари, xossalari va tavsiyalarini qayd etilishi hisobiga tafakkurda aks etishining umumiy shaklidir. Texnik tushunchalar sifatida quyidagilarni ta'rif lab beruvchi terminlar yuzaga chiqadi:

- texnik obyektlar;
- texnologik jarayonlar;
- mexanik, fizik, kimyoiy va texnologik hodisalar;
- konstruksion materiallar;
- texnik obyektlar, hodisalar va jarayonlarning xossalari va beғilari.

Umumtexnik va mutaxassislik fanlariga oid texnik tushunchalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular mazmuni va umumlashirish darajasiga ko'ra turlichadirlar. Ba'zi texnik tushunchalar o'z mohiyatiga va tavsiyalanishiga ko'ra fundamental hisoblansalar, umumlashirilgan texnik obyektlarning ko'lamiga ko'ra kengdirilar, boshqalar, hajmi bo'yicha tor hisoblanib, xususiy masalelarni o'zida qamraydilar.

Texnologik jarayonlar, xomashyo materiallari, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar hamda nazariyalarni yoritish uchun ishlataligani texnik tushunchalarning ma'nosi shartli belgilari va ta-

rillar yordamida ochib beriladi. Bunda ta'rif o'rganilayotgan obyektni aniq va ravshan tarzda, e'tiborni uning jiddiy belgilariغا qaratgan holda xarakterlab berishi lozim. V.V. Davidov fikricha, tushunchani shakllantirish birdan uning ta'rifidan boshlanadi, keyin uni konkretlashtirish va umumlashirish amalga oshiriladi. O'quvchida esa abstraktdan konkretga va undan amalda texnik vazifani yechishga qarab fikr harakati kuzatiladi.

Texnik tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni ular orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni o'chish va anglash, nazariya bilan uni xususiy ifodalanish holatlari orasidagi munosabatlarni hamda tushunchalar orasidagi umumiylilikni aniqlash yordamida sodir bo'ladi. Ba'zi bir tushunchalarni o'zlashtirish esa, ma'lum turdag'i yagona obyektlarning xossalarni va belgilarini topish yo'lli-mazmunini yoritish asosida amalga oshadi. Tushunchalarni o'zlashtirishning muhim mezonlariga yana talabaning o'quv va kasbiy faoliyatida ularni qo'llay olish moturligi ham kiradi. Texnik tushunchalarni o'zlashtirish darajasi esa anglash, faxmlash, umumlashirish va mustahkamlash me'yori asosida baholanaadi. Texnik terminlarni o'quv jarayonida erkunlik va ijodkorlik bilan qo'lllash aqly faoliyatni boshqarish orqali sodir bo'ladi. Fikrlash o'z faoliyatini tushunchaning hosil bo'lishidan boshlab, quydagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: differensiyalashgan yuzaki tushunchalar bosqichini; tushunchalarda qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni aks etish bosqichini. Bunda inson nutqi tushunchalarda fikrlash vositasi bo'lib xizmat qiladi, unda fikrlash va xotira bir-biriga qo'shilib ketadi va biri-biriga o'tadi.

O'quv predmeti kesimida texnik tushunchalar tahlil qilish va o'zlashtirishga qaratilgan o'quv elementlari, ya'ni o'zlashtirishning mazmuni birligi va muhandis-teknik faoliyatning shakli, ya'ni kasbiy fikrlash instrumentariysi sifatida yuzaga chiqadi.

Kasbiy fikrlash – maxsus texnik terminlar (tushunchalar) va ular tizimidan foydalananmoq demakdir. Tushunchalarni egal-lamoq – bilimlar tizimini egallamoq demak. Demak, bular asosida ikkita uslubiy vazifani bajarish talab ettiladi: birinchisi, o'quv elementlari minimumini aniqlash va uni moddiylashtirish,

ikkinchisi, o'quv jarayonida texnik tushunchalarini tarkib topish mehanizmini va usullarini ishlab chiqishdir.

Ushbu metodik vazifalarни yechishda o'quv materiali tahlili (tipik texnik vazifalarни yechish jarayonida) aqil harakat strukturasidan o'qitish mazmuni strukturasiga tomon ijodiy yondashuv asosida olib borish maqsadga muvoqifdir. Ular mohiyatini ochamiz:

- avval asosiy didaktik maqsad kesimida o'quv materialining chegaralari belgilanadi; kimni o'qitish va nima uchun o'qitish;
 - keyin faoliyat mazmuni o'rganiladi: nimani bilihish va qanday bajarish;
 - so'ngra texnik vazifalarни yechishda fikrlash instrumentariysi sifatida zarur bo'lgan o'quv elementlарining minimum aniqlanadi;
 - o'quv materiali moduli elementlari tizimi sifatidagi mantiqiy strukturna ishlab-chiqiladi.
- Bunda har bir keyingi o'quv elementi avvalgisidan kelib chiqishi va keyingi mulohaza va tushuntirishlar uchun dali materialini taqdim etishi muhim hisoblanadi.

2.4. Texnik fanlarni o'qitish shakllarining o'ziga xosligi

Kasbiy ta'lim jarayoni ma'lum tashkiliy shakllar asosida amalga oshiriladi, ularning asosini o'qitish maqsadi, o'quv materiali mazmunining o'ziga xosligi, o'qitish metodlari va o'qitish vositalari tashkil qiladi.

Davlat ta'lim standarti talablari asosida mutaxassislarini tayyorlash maqsadida o'qitiladigan umumtexnik va mutaxassislik fanlaridan mashg'ulotlarni tashkil etishda nazariy va amaliy mazmundagi o'quv darslari, maslahat darslari, fakultativlар, ko'ra o'qitishning tashkiliy shakllari trizimini hosil qiladi.

Dars shakli avvalambor, uning maqsadi hamda o'tkazish joyi va vaqt bilan belgilanadi. Darsning mazmuni va o'qitish vositalari o'qitish maqsadining funksiyasi sifatida yuzaga chiqadi. Darsni o'tilish sifati metodik va moddiy-teknik ta'minoga, o'qituvchining muhandislik va metodik jihatdan tayorgarlik

darajasiga bog'liqdir. O'qiturchi tomonidan rejalashtiriladigan o'qitishning turli shakllari fan bo'yicha o'quv jarayoniga ma'lum darajadagi muntazzamlilikni, strukturaviy yaxlitlikni mazmun jihatidan to'liqlikni va protsessual tugallanganlikni bahshida etadi. O'qitishning barcha shakllari o'quv rejasiga morand holda mutaxassis tayyorlashning yagona o'quv tizimini tashkil etadi.

Nazariy va amaliy miqyosdagi darslar – oliv o'quv yurtlarda asosiy o'qitish shakli bo'lib xizmat qiladi. Ular, odatda, 80 daqiqani o'z ichiga oladi, chunki dars davomida talabalarga katta sig'imdagi ya amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan o'quv materiali taqdim etiladi. Bunda yangi materialni o'zlashtirish jaramoni konspektlash va har xil turdag'i mustaqil ishlarni bajarish bilan birga amalga oshiriladi.

Fakultativlar – kasbiy tayyorgarlik kesimida o'qitilayotgan fan mavzulari va bo'limlari bo'yicha bilimlarni aniq mutaxassislikka yo'naltirilgan holda kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida o'tiladigan darslar. Ular mutaxassis tayyorlashning o'quv rejasini bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z mazmuni da kadr tayyorlashning nazariy va amaliy tomonlarini saqlaydi. Fakultativlar tasdiqlangan dasturlar asosida majburiy darslardan so'ng tashkil etiladi Shu sababdan, ular o'quvchidan qo'shimcha ravishdagi aqliy va jismoni zo'riqishni talab etadi va talabchalar qiziqishini qo'shib beradi. Ular o'quvchidan qo'shimcha balarda kasbiy bilim va malakaga nisbatan chuqur qiziqish yuzaga kelтирadi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – talabaning qiziqishini e'tiborga olgan holda fan bo'yicha bajariladigan o'quv ishlaring shakli. Ular fan dasturi kesimida ham, dasturdan tashqari ham tashkil etiladi.

Agar dastur kesimida fan bo'yicha qo'shimcha darslar tashkil etilsa, dasturdan tashqarida texnologik va konstruktoriyik yo'nalishidagi texnik ijodkorlik to'garaklari, nazariy materialni chuhur o'rganish to'garaklari, tematik kechalar va olimpijadalar, kasb bo'yicha anjumanlar va tanlovlardan o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarning mavzusi, davriyligi o'quvchi bilan birga belgilanadi. Ularning muvaffaqiyati o'qituvchiga, bilan

uning ijodiy tashabbusiga va yuqori darajadagi kasbiy tayyor-ganligiga bog'liqdir.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar barcha talabalar uchun majburiy hisoblanmaydi, ammo o'qituvchining vazifikasi ularga munkin qadar ko'p talabalarni jah qilishdir.

Maslakatlar – turli xildagi hisobiy chizma ishlarni va kurs loyihasini bajarish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishga qaratilgan darslar. Ularda mashg'ulotlarni o'tish davrida 'o'z-lashtirilmagan hamda talabalarda zo'r qiziqish uyg'otgan savollar tushuntiriladi, Maslahat darslari ko'p hollarda ma'lum bir kumlari va soatlariда o'tkaziladi.

Sayohatlar – ular aslida umumtexnik va mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladigan oddiy darslar bo'lib, farqi ko'p hollarda ishlab chiqarish konxonalarida o'tkaziladi. Ushbu dars turlarini aniqlashda uning bosh maqsadidan emas, balki o'qitish vositalari va o'tish joyidan kelib chiqiladi. Ular hodisa va jarayonlarni real ishlab chiqarish sharoitida o'rganish imkonini beradi. Bunday dars turi talabaga o'rganiylayotgan obyekt yoki ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha to'g'ri tasavvurni shakllanishi uchun yordam beradi.

Umumtexnik va mutaxassislik fanlaridan o'tiladigan darslar o'qitish metodlari va vositalariga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarga egadirlar. Bir tomonдан, har bir dars o'qitish maqsidi mazmuni va vositalarning birligi, vaqt va fazo doirasini bilan chegaralangan o'quv-tarbiyiy jarayonning yaxlit elementi sifatida qabul qilinadi. O'z mohiyatiga ko'ra, har bir dars mantiqiy tugallangan hamda «o'qituvchi» – «o'quvchi»ning birlgiligidagi faoliyati yordamida amalga oshiriladigan bilim va malakalarni yaxlit shakllanish jarayonini ifodaydi. Boshqa tarafdan, har bir darsga yaxlit o'qitish tiziminining elementi, talabaning bir bilim va rivojanish pog'onasidan ikknchisiga va so'ngra, uchinchisiga qaraladi.

Har bir darsning yaxlitligi va mustaqilligi uning tugallanganligidan kelib chiqadi, chunki har vaqt nimani o'rganiyligani va qanday o'zlashtirilganligi haqida xulosha yasaladi. Darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan anglanishi va uning ahamiyati va

o'qitish natijalariga qo'yiladigan talablar asosida o'quvchilarga yetkazilishi lozim. Ammo mashg'ulotning tugallanganligi nisbiy xarakterga ega: har bir darsda o'quv materialining o'zlashtirilishi undan oldingi o'qitish bosqichiga, ya'ni talabarining konkret dastlabki bilimlariga ya'ni shaxsiy intellektual multkiga bog'liqdir.

O'qituvchining vazifasi yangi texnik tushunchalarini o'zlashtirishda mayjud bilimlarni dastlabki muqaddima va aqliy harakat usullari sifatida dolzarblashtirish muammosini to'g'ri yechish hisoblanadi. O'z naybatida, yangi olingan bilimlar keyingi darsda o'quv materialining yangi porsiyasini o'zlashtirish uchun boshlang'ich bo'lib qoladi. Buning natijasida texnik fanlarni o'qitishda har bir dars fanlar ichidagi va fanlar orasidagi bog'yanishlarni analga oshiruvchi o'qitish tiziminining elementi sifatida yuzaga chiqadi. O'quv materialining yangi porsiyasini o'zlashtirish uchun boshlang'ich bilimlarning mazmuni va hajmini aniqlovchi texnik ma'lumotlarni ajratib olish, o'qituvchi va talaba orasidagi o'zaro munosabat yo'llarining maqbulini topish, o'qituvchining texnik va metodik jihatdan bilimdondoligini ta'minlash kerak bo'ladи.

2.5. Turli tipdag'i darslar mazmuni qismimi tuzishdagi umumiyliklar

Umumtexnik va mutaxassislik fanlari bo'yicha o'tiladigan darslar o'qitishning asosiy tamoyillariga bog'liq holda tashkil etiladi. Ularning turi va o'ziga xos xususiyatlari darsning asosiy maqsadi va o'quv materialining mazmunitidan kelib chiqadi.

Umumtexnik va mutaxassislik fanlaridan o'tiladigan darslari ni asosiy didaktik maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- yangi bilimlarni shakllantirish darslari;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari;
- avvalgi o'tilgan materialni qaytarish va umumlashtirish darslari;
- bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish darslari;
- murakkab darslar; bu dars turiga asosiy maqsadi bir nechta bo'lgan darslar, ya'ni o'quv materialini qaytarish va umum-

lashtirish, yangi bilimlarni shakllantirish, kengaytirish, va churqashtirish, mustahkamlash, nazorat qilish va baholash maqsadida o'tkaziladigan darslar kiradi.

Har bir dars turi strukturasiда о'qitishni tashkil etish bosqichi va mazmuniy bosqichi ya'ni o'quv materialini o'zlashtirishga qaratilgan «bilib olish» bosqichi mayjud. Ularni alohida ko'rib chiqamiz:

Darsni tashkil etish bosqichining maqsadi talabani tashqi chalg'ituvchi omillardan chegaralab, bilish faoliyatiga chorlash hisoblanadi. O'qituvchi buning uchun ma'lum bir harakat yo'lini tanlaydi. Bu bosqich uchun 1–2 daqiqaga teng vaqt sarf bo'ladi, lekin uning muhimligi beqiyosdir.

Darsning mazmuni bosqichi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- o'tilgan material bo'yicha qaytarish-o'qitish ishi;
- o'quv faoliyatini to'liq tarzda yo'naltiruvchi asosi (kutilayotgan o'quv faoliyatining maqsadi, mazmuni va rejasini tasavvur qilish va anglash);
- yangi bilimlarni texnik tushunchalar va ularga o'xshash bo'lgan aqiyu harakat usullarining tizimi sifatida shakllanishi;
- andozali masalalarni yechishda umumlashgan va angangan harakatlarning shakllanishi;
- ko'nikmlarni shakllanishi boshlang'ich ko'nikmlarni, o'z-o'zini nazorat qilish va ijod elementlari bo'lgan ko'nikmlarni;
- uy vazifasini taqdirm etish.

Darsning mazmuni bosqichini tashkil etuvchi bu komponentlarning tarkibi va ketma-ketligi asosida dars turi va strukturasini aniqlanadi.

Yangi bilimlarni shakllantirish darslari. Ushbu darslar o'qitishning asosiy didaktik maqsadi sifatida texnik tushunchalarini va ko'nikmlarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Yangi bilimlarni shakllantirish darslarining asosiy maqsadi o'rganilayotgan texnik obyekti haqidada aniq va yaqqol tasavvurlarni shakllantirish, ularning asosiy belgilari va xossalarni o'zlashtirishni ta'minlash, hodisalar va jarayonlarni tushuntirish va texnik vazifalarni yechishda yangi texnik terminlarni ishlata bilish hisoblanadi. Bu

tundagi darslarning asosiy maqsadi va vazifalari ularning strukturnisidan kelib chiqadi:

- auditoriyadagi talabalarni yangi o'quv materialini o'zlashtirishga keltirib qo'ymoq; oldinda kutilayotgan o'quv faoliyatining umumiyy rejasini va maqsadini o'zlashtirish (nimani bilish, tunmani qila olish, qayerda va qanday foydalananish, o'qitish natijalariga qanday talablarni qo'yish);
- yangi texnik tushunchalar va ularga o'xshash bo'lgan nujly harakat usullarini shakllantirish. Bu bosqichning didaktik strukturasi «tayanch bilimlarni dolzarblashtirish – yangi texnik tushunchalarini shakllantirish – ulardan amaliyotda foydalananish» ko'rinishida bo'lgan o'quv holatlarini tizimidan tashkil topadi:
- bir andozali masalalarni yechish va ularni amally faoliyatda qo'llashdagi algoritmk y'o'riqlarni o'zlashtirish maqsadida o'qiv materiallarni bir tizimga solish;
- uy vazifasini taqdirm etish. Bu maqsadda sifati va mashq qildiruvchi, hisob-kitobli va tajribali, yangi matn bilan ishslash kabi vazifalarni berish mumkin. Uy vazifasini muvaffaqiyatli bajarilishi ko'pgina omillarga, jumladan, o'qituvchi tomonidan uy vazifasini tashkil etishga qo'yiladigan talablarни bajarilishiga ham bog'liqdir, xususan, talkabaga o'ta qiyin bo'lmagan va murakkabligi bo'yicha bevosita dars paytida bajarilgan masalalarga teng bo'lgan vazifalarni berish; uy vazifalarining bir xil bo'lib qolmasligi va hokazolar.

Yangi bilimlarni shakllantirish darslariga yangi o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltirilgan ma'ruzaar, frontal laboratoriya va amaliy ishlari kiradi. Ushbu darslarning asosiy vaqtiga o'quv materialini qabul qilish, anglash va o'zlashtirishga sarf bo'ladi. Bunda talabaning bilish psixologiyasi quyidagi tarzda yacqol ifodalananadi: «tasavvur qilish – texnik tushunchani aniqlash – undan amaliyotda foydalananish – u to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish, kengaytirish va chuqurlashtirish».

O'tilgan materialni qaytarish, agar bunga zarurat bo'lsa, qisqa vaqt ichida, 5–10 daqqa davomida jonli suhbат shakida bajariladi. Tayanch bilimlarni dolzarblashtirish maqsadida o'tkaziladigan bunday qaytarish yangi o'quv materialini qabul qilish va o'quv muammolarini yechish uchun qulay hissiy holatni tug'diradi.

Bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilish talaba mustaqil ishining ajralmas qismi hisoblanadi, u talabada o'z-o'zini nazorat qilish va ijod qilish elementlarini saqlaydi. Nazorat dars davomida ham, uning yakuni yoki boshida ham amalga oshirilishi mumkin.

Amaliy va laboratoriya ishlari texnik fanlarni o'qitishda o'quv materialini umumlashtirish, bir tizimga solish va tegishli ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. BUndan tashqari, ushbu darslar o'chov asboblari, mekanizmlar va jihozlardan foydalananish, materiallar va mahsulot turлarini tekshirish, texnologik jarayonlarni tadqiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Ushbu darslarning asosiy mazmunli komponenti sifatida talabalarning maxsus metodik ta'minot asosida bajaradigan mustaqil ishi yuzaga chiqadi.

Har bir dars turining mazmunli qismi yangi bilimlarni o'zlashtirishga va bir andozali masalalarni yechishda umumlashgan va anglangan harakatlarni shakllantirishga qaratiladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi o'tilgan o'quv materialini qaytarish va umumlashtirish jarayonini, ya'ni darsda qaytarish-umumlashtirish ishini amalga oshiradi. Bunda avval o'tilgan va o'rganib bo'lingandek tuyulgan materialni tegishli darajada o'zlashtirmay turib, yangi materialni o'rganishga kirishish produktiv bo'la olmaydi. BUndan tashqari, ushbu bosqich tushuncha va mulohazarlar orasida yangi aloqolar va munosabatlarni aniqlash, o'quv materialining yangi qirralari va mazmunini ochishga imkon beradi.

Qaytarish-o'qitish ishining metodlari va yechimlarini tamlash o'quv materiali mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va o'qitishning shu bosqichida uni amalga oshirish uchun qo'yilgan vazifalarga bog'liqdir. Bunda o'quv materialini oddiy tarzda qabul qilinishi turli mashqlarni bajarish, texnik masalalarni yechish, grafik, sxema va jadvalarni tahli qilish, ma'lumot beruvchi adaptiyotlardan soydalanish, tajribalar, diafilmlar va filmлarni namoyish qilish bilan birga uyg'unlashtiriladi. Darsning ushbu bosqichi talabalar bilimini umumlashtirish va bir tizimga solish hamda ularning zarurligiga ishonch hosil qildurish asosida tugallanishi lozim.

Yo'naltirish asoslari bosqichi texnik fanlardan o'tiladigan darslarda o'quv faoliyatining umumlashtirilgan dasturi sifatida yuzaga chiqadi. Umumlashtirish darajasiga bog'liq holda ushbu dastur fanni bir yo'la yoki bo'yicha va mavzulari bo'yicha alohida o'rganishda ko'rsatkich bo'llib xizmat qiladi. BUndan tashqari, u bir andozali texnik vazifalarini yechishda, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda algoritim rollini o'ynaydi

O'qituvchining metodik ishi talabada quyidagilarni shakllantirish uchun metodik ta'minotni trayorlashdan iboratdir:

- kutilayotgan o'quv faoliyati, uning hajmi va mazmuni, yaxlit holda ko'rinishi haqidagi aniq va yaqqol tasavvur hosil qilish; bu talabaga mavzuga intuitiv holda emas, balki uni anglagan, mazmuni va hajmi, o'rganish mantiqi bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lgan holda kirish imkonini beradi;

- o'qitish natijalariga qo'yiladigan talablarini tushnish.

Kutilayotgan o'quv faoliyatida bilimlarni o'zlashtirish sifati ko'p jihatdan tushuncha mazmuni modelining sig'imi va ko'regazmaliligiga va qay darajada unda o'quv materialining mo'hiyati, mazmuni va strukturasi to'liq va aniq tarzda o'chib berilganligi, dastlabki, asosiy va qoshimcha tushunchalar, ularni shakllantirish bosqichlari va amaliy ahamiyatining qaydada konkretlashtirilganligiga bog'liqdir.

«Kutilayotgan o'quv faoliyati mazmuni qabul qilish va anglash» bosqichi o'qitish strukturasiда nisbiy mustaqillikka ega. Uning sifatini qanday tarzda nazorat qilish psixologik-pedagogik fanda hozirgacha ma'lum emas. Ammo, tajribalarning ko'rsatishicha, bilimlarni o'zlashtirish sifatining umumiyligi ko'satkichlari tugal holda bo'lajak faoliyat yo'nalishini o'zlashtirishga bog'liqdir.

Texnik tushunchalar tizimini shakllantirish umumtexnik va maxsus fanlarni o'qitishda fikrlash instrumentariysi sifatida asosiy struktura elementi bo'llib xizmat qiladi. Bunda texnik termin talabada fikrlash predmetining obrazni bilan qo'shilib ketishi lozim. O'z navbatida, u yangi texnik tushunchalarini anglashtida poydevor va vosita sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, yangi bilimlarga sari bosqichma-bosqich ko'tarilish yuz beradi. Shu sababli, tayanch bilimlarni o'zlashtirishda usullarini dolzarblashtirish birinchi navbatdagi metodik vazifa hisoblanadi.

Dolzorblashtirish deganda ishlab chiqarish holatlari, ilmiy va eksperimental dalillar, laboratoriya hamda amaliy mashg'ulotlari natijalarini tahlil qilish asosida yuzaga keladigan yangi bog'lanishlar va munosabatlarni qabul qilish hamda tushunish maqsadida uzoq vaqtli xotirada qolgan tayanch texnik tushunchalar, nazariya va qonunlarni esga solish, ya'ni yo'qlash jaritishga, chuqurblashtirishga va ularni yangi texnik tushunchalarini aniqlash, ular mohiyatini hamda amaliy ahaniyatini anglash uchun tayorlashga imkon beradi. Shundan so'ng faol bilish faoliyatni jarayonida texnik tushuncha rivojlarib, o'rganilayotgan fan bilan boshqa fanlar orasidagi yangi bog'lanishlar asosida uning boyishi kuzatiladi.

Shunday qilib, texnik tushunchalarni shakllantirish o'quv jarayoni tizimida eng murakkab va mas'uliyati jarayon hisoblanadi. U o'qituvchini bilish faoliyatini o'zlashtirishning psixolog-pedagogik qonunlariga tayangan holda loyihalashtirishga, texnik va texnologik sohalar bo'yicha ilmiy bilish metodlaridan foydalanishga, o'qitishda onglik va faoliyk tamoyillarini amalgashirishga yo'naltiradi.

Bir andozali texnik masalalarni yechishda umumlashgan va anglangan harakatharni shakllantirish muhim metodik vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'p hollarda talabalar ushbu amallarni ularda fikrlash predmetining mayjud emasligi sababli yecha olmaydilar.

2.6. O'tiladigan darslar sifatini o'qituvchi tomonidan baholanishi

Darsda talabalar fikrlash faoliyatining xarakteri, ularning faolligi va mustaqilligi, o'quv materialining o'zlashtirish sifati o'qituvchi faoliyatini, uning o'zlashtirish jarayonini boshqarish va tashkil etishdagi san'atimi xarakterlaydi.

Dars o'tilishini baholashtirishga sifat nuqtayi nazaridan yondashish o'qitishning an'anaviy nazariyasiga asoslanadi. Bilimlarni o'zlashtirish pog'onasining parametri ya'ni **o'zlashtirish koefitsiyenti** o'zlashtirilgan harakatlar sonini berilgan harakatlar soniga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Agar bu ko-

elitsiyentning miqdori 0,7 dan oshiq bo'lsa, dars muvaffaqiyatli o'idi deb sanaladi.

O'quv materialini o'zlashtirish sifatining yana bir ko'rsatichi **fundamentallik koefitsiyenti**. Fundamentallik darajasi mutaxassisini tayorlash bo'yicha Davlat Standarti talablarasi asosida rejalashtiriladi. Fundamentallik darajasining ortishi o'quv fanini ilm yo'lida yo'1 ko'rsatuvchiga aylanib qolishiga olib keladi. Ushbu holat mutaxassis tayorlash sifatini oshirishda o'ta muhim hisoblanadi. Fundamentallik darajasi qancha yuqori bo'lsa, bir xil o'zlashtirish pog'onasidagi faoliyat shuncha sarmalli bo'ladi.

O'qitishda egallangan mahoratni baholash parametri, ya'ni o'zlashtirish koefitsiyenti nazorat qilinayotgan o'zlashtirish po'jonasida va fundamentallik bosqichida berilgan vaqtini talaba surʼlagan vaqtga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

Bilimlar mustahkamligi parametri xotirada ma'lumotlarni va faoliyat usullarini saqlanish davomiyligi bilan aniqlanadi. Shu sababli o'qitish jarayonida talabalar diqqatini usoq vaqt xotirada qolishi lozim bo'lgan mazmunga va shu jarayonni ta'minlovchi faoliyat turlariga qaratish lozim.

O'quv materialini o'zlashtirishining boshqa ko'rsatkichlari ham mavjud:

Oqilonalik – to'g'ri yechim qabul qilishdagi maqbullik darrasini aniqlaydi.

Umumlashtirmoqlik – fundamentallik parametring tarkibiy elementi bo'llib, mulohaza va harakatlarning qisqartirilishini anglatadi.

Avtomatlik – harakatlarning o'zlashtirib olish darajasini bildiradi.

Umumiy holda, o'qituvchi tomonidan o'tiladigan darslar o'qitish maqsadiga monand o'quv faoliyatini bilan to'ldirilan holdagina samarali bo'ladi.

Shunday qilib, o'qitish texnologiyasini loyihalashda dars vaqtini mumkin qadar talabaning bilish faoliyatini tashkil etish uchun sarflash, o'quv materialini o'zlashtirish tezligini oshirishda mulohazalarni umumlashtirish hamda bilimlar universalligiga yo'naltiruvchi yo'llarni va vositalarni topish zarur hisoblanadi.

Talabəlarning auditoriyada va uyda bajariladigan ishlari fun-damentallikning berilgan bosqichi hamda pog'onsida o'quv materialini o'zlashtirishning yagona texnologik jarayoni sifatida yuzaga chiqishi lozim. Bunda harakat va ko'nikmalarri shak-lantirish usullari bilan bog'liq bo'lgan nisbatan murakkab ishlar dars paytida, nisbatan oson ishlar uyda bajarilishi shart.

O'quish jarayonining samarasi ko'p omillarga bog'liq, ular-ga quyidagi larni kiritish mumkin:

- ajratib olingan o'quv materiali mazmuning maqbulligi, uning mantiqiy strukturasi va moddiylashuvi;
- bilmlarni o'zlashtirishga olib keluvchi aqiy harakat usul-larining, ma'lum tipdagisi masalalarni yechishda nima yuzasidan va qanday o'yash zarurligini aniqlab beruvchi faoliyat modeli-ning tanlamishi;
- talabaning o'quv va bo'lajak kasbiy faoliyatida har bir o'quv elementi rolini to'g'ri anglanishi;
- o'quituvchining o'quv materialini ko'zda tutilayotgan da-rajada o'zlashtirilishi va undan foydalanimish samarasini baholash asosida loyihibay olish mahorati.

2.7. Texnik fanlarga o'quish metodikasining asosiy tushunchaları

O'quishni algoritmlash – o'quishning muhim metodlaridan biri bo'lib, uning asosida o'quv jarayonida o'quv algoritmlarini, ya'ni bilish faoliyatida va o'quv vazifalarini yechishda yozma yo'riqlarni qo'llash usuli yotadi.

Agar o'quv algoritmi o'zlashtirilgan bo'lsa, unda u talaba-ning fikrlash faoliyatini mustaqil ravishda boshqarish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. O'quv algoritmi fikrlash va yodda saq-motlarni tahlil qilish yo'llariga o'rnatish maqsadida kiritiladi. Texnik fanlarga o'quish jarayonida algoritmlar maxsus o'zlashtirish predmetni va o'quish mazmuning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ular talabalarda texnik masalalarni va ishlab chiqarish muammolarini yechishda hamda fikrlash faoliyatı ja-rayonida universal ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida qo'l-hiladi.

'Texnik fanlar bo'yicha o'quv materiali tahlili – o'quish na-tulariga bo'lgan talablar, mazmuni materialni mantiqan tu-shunish, tushunchalar, mulohazalar orasidagi bog'lanishlar va o'ganilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalar, belgi hamda xos-salarning butun borlig'i bo'yicha minumumini aniqlash.

Suhbat – o'quituvchidan katta mahoratni telab qiladigan o'quituvchining dialogli metodi. Bu – maqsadni qo'yish bilan bosh-landigan va xulosalar bilan tugallanadigan yaxlit, bir-biri bilan mantiqiy ravishda bog'langan mulohazalardir. O'quituvchining mahorati bunda qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirish vosita-larin tanlashida, savollarmi ta'riflash va masalalarni yechish yo'l-larini aniqlay olishda ko'rindi. Suhbat tayordovchi, xabar beruvchi, evistik, qayta tiklovchi, umumlashtiruvchi va qaytaruv-chi bo'lishi mumkin.

Ish o'yini – bu jiamoaviy bilish shakli hisoblanadi. Ish o'yini asosidagi o'quv faoliyatni darsning barcha bosqichlarida qo'llani-shi mumkin. Bularga o'yn-trening, o'yn-mantiqiy zanjir, par-chalangan dalillarni bir zanjirga toplash, ma'lumotlarni tizim-lashtirish va hokazolalar kiradi.

Ko'rgazmali eksperiment – o'quituvchi tomonidan texnik va tabiiy-ilmiy fanlardan o'tiladigan darslarda qo'yiladigan qisqa muddatli tajribalar tizimi; texnik tushunchalarни shakllantirish metodi; tabiat qonunlarini va muhandislik tajribasidagi naza-riyalarni ko'rsatish vositasi.

O'quitishni jadallashtirish – o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'qi-tuvchining metodik bilimlari rolini oshirish asosida samarali qayta qurish. Fanning zamонави yutuqlarini nazarга olgan holda umumintexnik va mutaxassislik fanlarini o'qitishni jadallashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- ◆ tushunchavi mazmuni maqbullahtirish, uning tizimli-ligi va tuzilishi dagi ierarxiyasini ularning tarkibi va tuzi-lishini takomillashtirish;
- ◆ bir andozali texnik masalalarni yechishda nazoriy bilimlar rolini oshirish va fikrlash faoliyatining umumlashgan yechim-larini shakllantirish uchun o'zlashtirishning didaktik birliklarini yirklashtirish;
- ◆ texnik bilimlarda tizimlik, umumiylilik, sig'imlik va funkcionallikga erishish uchun bilishda mustaqillikni rivojan-lahiladi;

tirish va o'zlashirishda o'z-o'zini nazorat qilish uchun mazmuni modellashtirish;

- ◆ belgi-grafik vositalarni va ko'rgazmali tajribani keng ravishda qo'llash;
- ◆ o'quv-moddiy bazani va xonalar ta'minotini modernizatsiyalash;
- ◆ rejalashtirilayotgan natijalarga yo'naltirilgan holda o'qitish texnologiyasini loyihalashtirish.

Ma'ruza o'z strukturasi bo'yicha yetarli darajada sig'imli mazmunga ega materialni ochib berish shakli va metodidir. Ma'ruza talabalardan usoq davom etadigan diqqatni, yuqori darajadagi abstrakt fikrleshni, assosiy g'oyalar, xulosalar, ta'riflarni yozib olish mohirligini, zarur chizmlarni bajarish, grafik va sxemalarni tasvirlash qobiliyatini talab qiladi. Shuning uchun ma'ruza mazmumini talabalarga tezislar ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvoqeqdir.

Mantiqiy yechimlar – o'quv fanlarini nazariv bilish metodlarining assosi va texnik vazifalarini yechish asosi hisoblanadi. Mantiqiy yechimlar (solishtirish-taqqoslash, analiz-sintez, abs-traktlashtirish-unumlashtirish) texnik fanlarni o'qitish tizimida texnik obyektlarning belgi va xossalarni, ular orasidagi bog'larnishlarni, munosabatlarni ochish hamda anglash imkonini beradi. Ular hissiy obrazlarni qabul qilish, taqqoslash, ajratish va birlashtirish, ularning jiddiy belgilari va xossalarni aniqlash hamda unumlashtirish yordamida texnik tushunchalarda ifodalashga yordam beradi.

Texnik fanlardan o'quv materialining mantiqiy strukturasi – uning assosiy xarakteristikasi; o'quv materialining strukturaviy yaxlitligini ifodalaydigan, tushuncha hamda mulokazalar orasidagi barqaror va tartibli mantiqiy-didaktik bog'lanishlar tizimidir. O'quv materialining mantiqiy strukturasi operator va grafiklar, formulalar, diagrammalar, grafiklar hamda boshqa texnik terminlarni ifodalash vositalari orqali yoziladi.

Tushunchaviy mazmunni moddiylashtirish – ajratib olingan o'quv materiali mazmunini o'qituvchining ijodiy faoliyat mahsuli sifatida belgi-grafik (grafiklar, rasmlar, sxemalar, chizmlar) tarzda qayd qilish.

Kashbiy o'qitish metodikasi – maxsus o'quv yurtlarida mutaxassislarini kasbiy tayyorlashi jarayonini tadqiq qiluvchi va shunga bog'liq holda metodik ta'minotni ilmiy jihatdan asoslovchi, o'quv yurtlari uchun uning mazmunini ishlab chiquvchi fan hisoblanadi. U didaktikaga, pedagogika – psixologiyaga, fiziologiyaga va mantiqqa tayanadi.

Texnik fanlarni o'qitish metodikasi – o'quvchilarda umumtexnik va maxsus fanlar bo'yicha o'quv materialining mazmuniy asosiga tayangan holda texnik bilimlarni shakllantirish, tarbiyalash va rivojlanтиrish kabi muammolarni yechishga qaratilgan pedagogika fanining mustaqil sohasi, didaktikaning bir qismidir. Uning kelib chiqishi va rivojlanishi ilmiy-teknik taraqqiyot hamda malakalai mutaxassislarini tayyorlash zaruriyat bilan bog'liqidir.

Texnik fanlarga o'qitish metodikasi o'quv fani sifatida – muhandis-pedagogik kadirlarni tayyorlashga yo'naltiriladi. Ushbu fanning yetakchni komponentlari bo'sib mazmuni, protsessual va o'z-o'zini tashkil qilish jihat dari yuzaga chiqadi.

Grafik ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi – texnik fanlarga o'qitish metodikassining tarkibiy qismi hisoblanib, tala-balarni turli jihozlar va texnologik jarayonlarga tegishli bo'lgan chizma materiallarni o'qiy olish va ularni ishchi chizmalarini bajara olishga samarali tarzda o'rnatish imkoniyatlaridir.

Texnologik hujatlarni tahlil qila olish ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi – mashinasozlik fanlariga o'qitish metodikassining tarkibiy qismi bo'sib, turli mashina hamda apparatlar va texnologik jarayonlarga tegishli hujatlarни tahlil qilishga doir ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Texnik fanlarni o'qitish metodlari – o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining tarbiya solingan usullaridir. Texnik fanlarga o'qitish metodlari o'zida texnik fanlarga qarashli o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlarini va ularni biliш mantiqini saqlashi lozim. Ular talabani bilmaslikdan bilishga o'ziga tushunarli bo'lgan bilish yo'li orqali o'tish uchun bajariladigan harakatlarning aniq ketma-ketligini o'zida saqlaydi. Texnik fanlarga o'qitish metodlari texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish faoliyatining ilmiy metodlarini o'z ichiga oladi.

Texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining nazariy ilmiytadqiqot metodlariga modellashtirish usullari va tajriba orqali tekshiriladigan matematik xulosalar, tajribaviy va nazarini ma'lumotlardan soydalanish yo'llari hamda mantiqiy usullar, ya'ni analiz-sintez, solishtirish-taqqoslash, abstraklashtirish-unumlashtirish, induksiya-deduksiyalar kiradi. Ushbu nazariy-ilmiytadqiqot metodlari texnik fanlarni o'qitishda qo'llanishi lozim.

O'quv materialni nazariy xulosalaridagi mantiqiy-aqliy xulosalarning asosiy turi bu deduksiyadir. Bunda dastlabki holat bo'lib, ba'zi bir mulohazalar yuzaga chiqadi, ulardan mantiq qonuniyatlariga asosan boshqa mulohazalar paydo bo'ladi, ular asosida esa xulosalarning haqiqiyligi kelib chiqadi.

Texnik fanlarga o'qitishda induksiyadan evristik suhbat davrida, yangi o'quv materialini tushuntirishda, tajribadan olingan natijalarini analiz qilishda va solishtirishda, yangi texnik tushunchalarini kiritishda tushuntirish yo'lli sifatida foydalaniлади.

Tajribaviy metod nazariy tadqiqot metodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tajribalarni o'tkazishda vazifalarni qo'yish, analiz, umumlashtirish va xulosalar uchun ilmiy dalillarni yig'ishni o'z ichiga oladi. U texnik fanlarni o'qitishda ko'rgazmali tajriba orgali hamda laboratoriya ishini bajarish bilan joriy etiladi. Shular asosida talabalar texnik fanlarning tajribaviy metodini bilib oladilar va amaliy ko'nikmlarni egallaydilar. Kuza-tish hamda tajribalarning natijalarini analiz qilinadi va induksiya yordamida aqliy xulosalar emperik umumlashtirishga olib kelinadi.

Shu bilan bir qatorda, o'qitish davrida tajriba ilmiy-tadqiqotdan maqsadning qo'yilishi, texnik jihatdan qurollanganligi va uni o'tkazish sharoiti bilan farqlanadi. Ammo u tadqiqot belgilari bilan sug'orilgan bo'laci.

O'quv bilish ilmiy biliшдан shu bilan farqlanadiki, unda o'rganuvchi bilmastilikdan bilishga o'qituvchi rahbarligida turli o'qitish vositalari yordamida qadam tashlaydi. Bu esa nazaruya bilan tajriba, induksiya bilan deduksiya, mantiqiy va intuitiv – aqliy xulosalar orasidagi maqbul uyg'unlashuvni, ularning dialektik birligida aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Nazariy va tajribaviy metodlar darslarda umumtexnik va mutaxassislik fanlari o'qituvchilarining so'zлari va didaktik vositalu yordamida hamda talabalar amaliy o'quv faoliyatini tashkil etish bilan amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi va talabaning o'zaro bog'liq holdagi faoliyat o'qitish metodini tashkil etadi. Uning natijasi esa, tanlangan metodning maqbullik mezonini bo'lib xizmat qiladi. Kamdan kam hollarda o'qitish metodlari «toza holda» ishlataladi, ko'pincha ular turli ravishda bir-biri bilan bog'lanib qo'llaniladi. Bu esa o'qitish jarayonining murakkabligidan, o'quv-tarbiyaviy vazifalarning ko'p qirrali ekanligidan, o'quv materiali mazmuni va strukturasining o'ziga xos xususiyyatlaridan, o'quv materialini qabul qilish, uni bilinga va ko'nikmlarga qayta ishslash jarayonining xususiyatlardan kelib chiqadi.

O'qitish metodini tanlashda avvalambor, texnik tushunchalarning xususiyatlariга, ularni dastlabki o'zlashtirish va keyinchalik ular haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish tomonlariga, strukturaviy-mantiqiy sxemalarni tuzish mantiqiga, o'qitishning belgi-grafik vositalarining mayjudligiga, ko'rgazmali tajribadan foydalanish imkoniyatlaringa, universal ko'nikmlarni shakllantirish zaruriyatiga va shundan kelib chiqqan holda, o'qitishning algoritmik metodini qo'llashga e'tibor beriladi.

O'qitish metodlari o'zlashtirish pog'onalarini kabi ierarxiya lamoyiliga bo'ysunadi. Bu degan so'z, metodlar maqbul va sarmalni tarzda talabarni bosqichma-bosqich harakatini ta'minlaydi: avval o'quv materialini tanish pog'onasida, keyin bir andozali masalalarni yechish jarayonida universal ko'nikmlarni shakllantirish va qayta ishlab chiqish pog'onasida, undan keyin esa faqat chunqur va har tomonloma bilimlar asosidagina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan produktiv faoliyat ko'nikmlari po'g'ona'sida o'zlashtirish sifatini kafolatlaydi.

Ushbu pog'onalarning har biriga mos bilimlarni shakllantirish jarayonida bir nechta metodlar ishtirot etishi lozim. Chunki ba'zi bir tushunchalar bilan talabalar birinchchi marta tashhayotgan bo'lsa, boshqalaridan texnik vazifalarni yechishda, yana boshqalaridan yangi sharoitda foydalanishni o'rganadilar.

Metodik yechim – o'qitish metodining tarkibiy qismi. Ma-

salan, muammoli suhbat metodi turli yechimlardan foydalanishi taqazo qiladi:

- olingan natijalar talabada mayjud bo'lgan bilimlar tizimi-ga qarama-qarshi bo'lgan vazifalarini bajarish asosida, ishlab chiqarish, yoki texnologik tajribalar asosida yoki ko'rgazmali muammoli tajribani namoyish qilish asosida muammoli vaziyati yaratish;
- o'quvchining fikriy faoliyatini qarama-qarshiliklar sababli taxminlarni qidirishga yo'naltiruvchi dastlabki bilimlarni va analigiyalarni dolzarblashtirish;

– taxminlarni tekshirish va hokazolar.

«Tushuntirish» metodi turli nazariya va qonunkarni tushuntirish, analiz qilish, mag'zini chaqish va isbotlash bilan bog'liqdir.

«Ma'ruza» metodi o'quv materialining ilmiy jihatdan jiddiyligi bilan farq qiladi. Bunda ham analiz va sintez, o'qitish vosittalarini namoyish qilish, muammoni qo'yish, amaliy vazifalarini bajarish, tayanch bilumlarni dolzorblashtirish bilan bog'liq bolgan turli yechimlar qo'llanildi.

Texnik fanlarga o'qitish tajribasida ilmiy va tarixiy dalillardan foydalanish yo'llari, fikr harakati mantiqini ko'rsatish, struktura-mantiqiy sxemalardan va nazariy modellardan foydalananish, fan, texnika va ishlab chiqarish yutuqlari bilan tanishish katta ahamiyatga ega. Metodik yechimlar o'quvchining konkretni harakatini va ularga bog'liq holda o'quvchining harakatini ifodalaydi hamda o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirishga, talabalarni rivojlanitirish va tarbiyalashga yo'naltinirdi.

Texnik fanlar bo'yicha o'quv materiali mazmummini model-lashirish – bilim modelini tafakkurda bilish natijasida o'z aksini topadigan tushunchalar va mulohazalar orasidagi munosabatlar va bog'lanishlarni ifodalashning moddiy shakli sifatida loyi-halashtirish yo'li bilan o'zlashtirishga qo'yildigani talablarni e'tiborga olgan holda bilish jarayonini tadqiq qilishdir.

Tushunchaviy mazmunning modeli – o'quvchi fikrining bilmaslikdan bilishga tomon qadam-baqadam harakati, o'quvchi ongida o'qish natijasida qolishi kerak bo'lgan tushunchalar va mulohazalar orasidagi bog'lanishlar va mulohazalar loyihasining moddiylashtirilgan shakidi. U texnik obyekt, jarayon va hod-

ular haqidagi nazariy bilimlarni yaxlitligini, tizimligini hamda ularni amaliy masallalarni yechishiga ko'chirishni qayd qiladi.

O'quv materialining modulli – o'quv faoliyatni mazmumini aniqlab beruvchi o'quv materialining avtonom porsiyasi. Modui avosiy didaktik maqsadga etishish yo'lidagi harakatlarning konkret tizimini aniqlovchi o'quv elementlaridan tashkil topadi.

O'qitishda ko'rgazmalilik – didaktikaning muhim tamoyil-laridan biri bo'lib, Ya.A. Komenskiyning buyuk mehnatlari eva-ziga e'tirof etilgan. O'qitishda ko'rgazmalilik «konkretdan abs-traktlikka va undan amaliyoga» kabi tafakkur rivojining qonuniyatlariiga asoslanadi. Texnik fanlarda ko'rgazmalilikni shakllantirishga imkon beruvchi vositalar sifatida moddiy obyektlar (natural obyektlar, modeldar va maketlar)dan, belgilii va grafik vositalar (strukturaviy sxemalar, ishchi chizmalar, kinematik va texnologik sxemalar, eskizlar, grafiklar)dan foydalaniлади. Ko'revamalilik o'quvchining so'zi orgali (masalan, ishonchli misollar, solishtirishlar va taqqoslashlar, assotsiatsiyalar), alohidagi tasavvurlardan birining boshqasiga o'xshashligi yoki qo'llanishi bo'yicha yodga solgan hollarda ular orasidagi bog'lanishlar orqali ham yaratiladi.

Texnik fanlarga o'qitishda ilmiylik – o'quvchining didaktik tamoyillaridan biri bo'lib, unga ko'ra texnik fanlarda o'rgatiladigan barcha ilmiy dalillar, nazariya va qonunlar fonda qabul qilingan qarashlar va nazariyalar, qonun-qoidalarning ta'rif, hamda to'g'ri texnik terminologiyalar hamda shartli belgilarga mos holda tushuntirilishi lozim. O'quv materialini uni yengilroq o'zlashtirilishi maqsadida hech qachon o'zgartirib yoki buzib taqdim etilishi mumkin emas.

Texnik fanlarga o'qitishda tajriba ham, nazariya ham, ularning to'g'ri nisbati ham bir xil darajada muhimdir, chunki har qanday ilmiy nazariya dalillar, yangi hodisalar va qonuniyatlarini tushunturishga layoqatlidir hamda u tajribalarni o'tkazish uchun yangi impulsalarni beradi. Ilmiylik tamoyili o'quv-dasturiy huj-jatlarni va o'qitish vositalarini ilmiy-teknik ma'lumotlarning o'sishi, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi hamda ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi sababli yangilash zaru-riyatini tug'diradi.

Umumtexnik va maxsus fanlarga o'qitish – ishlab chiq-

rishtining aniq sohalarida kasbiy faoliyat yuritish uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va o'ziga xos ravishdagi kadrlar tayyorlash jarayoni. Uning o'ziga xosligi mutaxassislarini tayyorlashning maqsadi va vazifalari, moddiy-texnik ta'minotning o'ziga xos xususiyatlari, o'quv materialining mazmuni hamda bilish faoliyatining o'ziga xos tomonlari bilan aniqlanadi. U o'quchi uchun absolyut ravishda yangi bo'lgan terminlar hamda texnik tushunchalar, shartli va grafik belgililar, andozalar, hisob-kitoblar, ma'lumot beruvchi materiallar hamda ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni iqtisodiy, texnologik ko'rsatkichlarini, amaliy masalalarini yechish qoidalalarini tahlil qilgan holda ifodalashdan iborat jarayonlar bilan to'lib toshgandir. O'qitishning ijtimoiy ahamiyatli bo'lajak mutaxassisning kasbiy bilimlari va shaxsiy sifatlari bilan aniqlanadi.

O'qitish vazifalariiga quyidagilar kiradi:

- texnik bilimlarni shakllantirish;
- umumtexnik va maxsus fanlar o'quv materiali mazmuni asosida shaxsni tarbiyalash va rivojlantrish;
- bazariv fanlar o'quv metodlari bilan qurollantirish;
- mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bo'lajak mutaxassisni muvaffaqiyatlari ravishda kasbga tayorlashda o'qituvchi ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi darsda yangi o'quv materialini konspektlashtirib olishni talab qilish bilan ham chegaralanishi mumkin. Ammo bu holatda talabalar o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'p va kuchini sarf qiladilar. O'qitish jarayonida o'qituvchi talabada mustaqil fikr-lashga, talabaniing intellekti, irodasi, his-tuyg'ulari va axloqiga ta'sir ko'rsatish yo'lli bilish metodlarini, g'oyalarini o'zlashtirishga nisbatan zavq va qobiliyatni tug'dirishga hamda rivojlantrishga harakat qilishi lozim. Texnik faniarga o'qitishni tashkil qilishning ana shunday yo'lli mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratiladi.

Tushuntirish – texnik fanlarga o'qitish metodi bo'lib, u qonunlarni o'rganishda, nazariya va qoidalarini chiqarishda, masallarni yechishda, texnologik jarayonlarni tahlil etishda, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarishda qo'llanitadi. Ushbu metod shundan iboratki, unda o'qituvchi o'quv materialini matematik xulosalardan, shartli belgilardan, rasmlar, sxemalar, grafik va

chizmalar, ko'rgazmali tajribalar va boshqa o'qitish vositalari dan foydalangan holda izchillik bilan jiddiy mantiqiy tartiblikda bayon qiladi. Tushuntirish metodining asosiy belgilari bu mulohaza, hukm chiqarish va isbotlashdir.

O'qituvchining pedagogik mahorati – o'quv materialini beolg'an va avvaldan tashxis etilgan natija bilan o'zlashtirilishini ta'minlash, o'z faoliyatini bashorat qilish, tahlil qilish, to'grilash, o'quv materiali mazmuni asosida metodik vazifalarning nivariant va ordinari bo'lmagan yechimini topish bo'yicha qobilaligidir. O'qituvchining mahorati yuqori darajadagi psixologik-pedagogik, metodik va texnik tayyorgarlik bilan bog'ilq bo'lgan shaxsiy sifatlarining yig'indisi bilan belgilanadi, u yana uning ovozida, imo-ishorasida, nutqida, ohangida o'z aksini topadi. O'qituvchining mahorati – o'quv-tarbiyaviy jarayonning sa'marasin oshirish yo'llari va vositalarini doimiy ravishda va har monnolama anglash, o'quv materiali, vositalari va o'qitish metodlarini optimallashtirishni nazariy jihatdan asoslashdir. U pedagogik fan yutuqlaridan va o'qitish amaliyotida ilg'or pedagogik tajribadan foydalanish asosida yuqori natijalarga erishish hamda yuzaga kelgan pedagogik holatlarda to'g'ri yondashish mohirligini ifodalaydi.

Pedagogik kuzatish – tadqiqot etishning mazmunli metodlaridan biri. Kuzatish tadqiqotchiga daillarni yig'ish, ular asosida zaruriy xulosalar qilish imkonini beradi. Kuzatish obyektlari bo'lib, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish va tashkil etish borasidagi o'qituvchining harakatlari, o'quv ma'lumotlarini qabul qilish hamda bilmga qayta ishslash bo'yicha talabarning harakati, o'qitish mazmuni, metodlari, ma'ruzani o'qish metodi, tajriba metodini qo'llash, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish hisoblanadi. Kuzatish yozma mambalarni tadqiq qilishga ham yo'naltiriladi. Bular nazorat ishlari, laboratoriya va amaliy ishlarning hisoboti, o'qitishning belgilari hamda boshqa metodik ishlammalardir. Bunday kuzatish hujjati kuzatish, deb ataladi.

Kuzatishni pedagogik tajribadan muhim farqi shundan iboratki, u tabiiy sharoitda maxsus tashkil etiladigan tashqi ta'sirlarsiz amalga oshiriladi. Kuzatishni o'tkaza turib, tadqiqotchi qo'yilgan savolga hali javobni bilmaydi va u to'g'risida umumiy

tasavvurga ega bo'libadi. Tajiribada tadqiqotchi taxminning ta'sifini isbotlashsga yoki inkor etishiga harakat qiladi.

Tushunchaviy mazmun – bu asosli ravishda ajratib olingan va metodik jihatdan bir tizimga solingan texnik tushunchalarining yig'indisi. Texnik tushunchalarni ajratib olish o'qitilayotgan predbmet miqyosida o'qitish maqsadlari, o'qitish vazifalari asosida va o'qavchilarini rivojlantirish, tarbiyalashdagi roli hamda bilish ahamiyatini e'tiborga olgan holda bajariladi. Tushunchaviy mazmunning metodik konstruksiyasi sifatida modellar, ularni yaratish instrumentaryalari sifatida esa, strukturalashtrish va modellasshtirish yo'llari yuzaga chiqadi. Tushunchaviy mazmuni ajratib olishda o'qur materiali tahliliga tizimli-strukturaviy va faoliyatli yondashuv asos bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlantruvchi ta'sim – uning asosida nazariv bilimlarni ustuvor tarzda shakkllantirish g'oyasi yotadi. Bu o'qitishning emperik va nazariv metodlari orasidagi nisbatni boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Texnik fanlarga o'qitishda tizimlilik – didaktika tamoyillari dan biri bo'lib, unga ko'ra o'qur materialining barcha tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, uni mantiqan o'rjanish bazaviy texnik fanning ichki mantig'i bilan bog'liq holda quriladi. Bunda **uziyilik, uzuksizlik**, izchillik va istiqbolilik o'z aksini topishi lozim. Tizimlilik tushunchaviy mazmumni strukturallashtirishni, uning modelini loyihalashtirishni va bayon etishda jiddiy mantiqni ko'zda turadi.

Ijodiy o'qur vazifalari – bu vazifalar o'quvchilar intellektini rivojlantrish uchun katta ahamiyatga ega, ular fanga bo'lgan qiziqishni orttiradi, texnik fanlarni o'qitishni fanlar asosi va ishlab chiqarish amaliyoti bilan yaqinlashtiradi. Mazmuni bo'yicha ularni konstrukturli, bashoratlvi va tadqiqotchilik turilariiga bo'lish mumkin. Konstrukturli vazifalar – berilgan maqsad yo'lda qurilmani o'ylab topishga qaratilgan vazifalardir. Bashoratli vazifalar hammaga ma'lum bo'lgan nazariraya, kashfiyat yoki yechimlarning ijobiya va salbiy oqibatlarini tahhil qilishni ko'zda tutadi. Tadqiqotchilik vazifalari ma'lum bir hodisa yoki jarayoni tushuntirishga, ba'zida esa isbotlashga qaratilgan bo'ladidi.

Ijodiy vazifalar sifatlari xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bunday vazifalar matematik hisoblarsiz mantiqiy mulohazalar assosidagi vazifalar matematik hisoblarsiz mantiqiy mulohazalar asosidagi yechilashsga yoki inkor etishiga qaratilgan bo'ladidi.

da yechiladi. Ijodiy o'qur vazifalarini bajarish talabuning bilimdoniligidagi va topqirrigiga, uni qonumiylarning mohiyatini tushunishiga asoslanadi.

Texnik tushuncha – bu tafakkurda texnik obyektlar, mexanik, fizik va texnologik jarayonlar hamda hodisalarini, ularning umumiyligi va o'ziga xos belgilari, xossalari, xarakteristikalari yordamida umumiy tarzda aks etishidir. Texnik tushunchalar sifatida texnik obyektlar, texnologik jarayonlar, turli hodisalar, konstruksion, instrumental materiallar hamda texnik obyektlar, hodisalar va jarayonlarning xossalari hamda belgilari va hokazolarni ifodalovchi terminlar yuzaga chiqadi. Hamma texnik tushunchalar o'z mohiyatiga ko'ra ko'pkomponentlidir.

Texnik bilimlar – texnik obyektlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va ishlab chiqarish faoliyatiga doir materiallarni bilib olish natijasi hamda inson tafakkurida ularmi texnik tushunchalar, nazariraya va qonunlar, ularga adekvat bo'lgan aqliy harakatning maxsus usullari sifatida to'g'ri aks etishidir.

Mutaxassis tayyorlashning o'quv-dasturli hujjatlari – tarhibida malakaviy xarakteristikasi, o'quv rejasi va o'quv dasturlarining kompleksini saqlagan hujjatlar tizimidir.

O'quv reja – davlat hujjati sifatida mazmuni, bajarilish sur'atlari va muddati bo'yicha o'quv faoliyatining barcha turlarini o'zida saqlaydi, ya'ni nazarirya hamda amaliyotni, o'quv mashg'ulotlari va ishlab chiqarish amaliyotini, nazorat hamda attestatsiya turlarini, kurs loyihalarini, malakaviy-bitiruv ishlarini, auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ishni bir-biri bilan bog'laydi.

Unda o'quv predbmetlarning nomenklaturasi ochib beriladi, ularni o'qitish sur'atlari, ketma-ketligi va muddatlarini keltiriladi. O'quv rejada mutaxassissini tayyorlashning davriy bosqichlari aniq tarzda ko'rinib turadi: urumta'limiyl, umumtexnik va maxsus; u tor mutaxassislik predbmetlarini hamda shaxsni har tomonloma rivojlantrish uchun fakultativlarni o'zida saqlaydi.

O'quv dasturlari – o'quv predbmetlarning nomenklaturasiga bog'liq holda ma'lum mutaxassislik bo'yicha yagona o'qitish tizimini hosil qiladi, chunki ularda o'qitishning mazmuni, o'quv materiallarini o'rganish ketma-ketligi, texnik terminlarni va shartli belgilarni yagona talqini, o'lechov birliklarini belgilashdagi yagonalik muvofiqlashtiriladi. Bularning barchasi fan o'qituv-

chilarining faoliyati, bitiruv-malakaviy ishi va boshqa turdag'i kompleks vazifalar orqali amalga oshiriladi.

Fan, texnika va texnologiyalarning tezkorlik bilan rivojlanishi o'quv rejalariiga tez-tez tuzatishlar kiritishni taqazo qiladi. Bu esa o'quv-tarbiyaviy jarayonning barqarorligiga va o'quv predmetlarning metodik ta'minotini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatadi. Shularga bog'siq holda o'quv rejada barqaror va variativ bo'lilmalar yaqqol ko'rniib turishi lozim.

O'quv rejasining barqaror bo'limga tez-tez o'zgarishga uchramaydigan o'quv materialining mazmuni kiritiladi. Uning hajmi umumiy hajmning 70–90 %ni tashkil etib, barcha o'xshash kasblar uchun majburiyidir. O'quv rejasining variativ bo'limi o'quv kasbiy mazmunining 20–30 %ni tashkil etadi, u texnika sohasidagi va ishlab chiqarish texnologiyasidagi ilmiy-teknik progress sababli yuzaga keladigan o'zgarishlarni ifodalab, qayta ko'rib chiqishga uchrab turadi.

Malakaviy tarzif – malaka bo'yicha komissiya va pedagogik jamaoa uchun amal qilinadigan hujjat bo'lib, unda mutaxassissini tayyorlashga qo'yildigan talablar yoritiladi.

O'quv dasturi – ta'llim mazmunitini o'quv predmeti orgali o'zida saqlagan va tegishli ilmiy-metodik va tashkiliy strukturalar tomonidan tashdiqlangan hujjatdir. Uning mazmuni quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ◆ izohiy-tushuntiruv yozuvni va o'quishning didaktik birikklarini o'rganish bo'yicha metodik ko'rsatmalar;
- ◆ dasturning asosiy qismi va unga tegishli bo'lgan taxminiy mavzuiy reja;
- ◆ qo'shimcha nazarli savollarning taxminiy ro'yxati;
- ◆ laboratoriya va amaliy ishlarning mazmulari;
- ◆ mustaqil hisobiy-grafik ishlarning turn;
- ◆ taklif etilayotgan o'quishning ko'rgazmali vositalar;
- ◆ adapbiyotlar ro'yxati.

Izohiy tushuntiruv yozuvida quyidagilar yoritiladi: predmetni o'rganishning maqsad va vazifalari, mutaxassis tayyorlash tizimida uning ahamiyati va struktura-mantiqiy sxema tarzida tushunchaviy mazmuni; «nimani bilishi va nimaning uddasidan chiqishi kerak?» kesimida o'quishning natijalariga qo'yildigan talablar; o'quv maqsadini amalga oshirish va predmet bo'y-

cha mashg'ulot turlarining taqsimlanishi; nazorat shakkllari; kurs bo'yicha umumiy holda o'quish metodlari va ko'rgazmali vositalarini tanlashga oid ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar. Unda nazorati va amaliyotni vaqt bo'yicha nisbati belgilanadi, bilim-hur minimumi asoslab beriladi, o'quv materialini o'rganishning nentig'i, strukturasi va predmetlararo bog'lanishlar, o'zlashtiriladagi qiyinchiliklar qisqa holda ta'riflanadi.

Kursning alohidagi bo'lilmari va mazvularini o'rganish bo'yicha metodik ko'rsatmalar rivojlantiruvchi o'quish nazariyasini kesimida alohidagi muammolarni, xususan, o'quv materiali bo'lilmari va mazvularini o'rganishning maqsad va vazifalarini, strukturaviy-mantiqiy sxema tarzidagi uning tushunchaviy tarkibini, o'quish natijalariga qo'yildigan talablar va nazoratning o'ziga xosligini ochib beradi. Bundan tashqari, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, mustaqil ishning o'ziga xosligi, o'quishning metodlari va vositalarasi asoslanadi.

O'quish mazmuni – turli darajada umumulashritisirilgan o'quv elementlarining tizimi sifatida taqdim etilgan hamda dasturning markaziy struktura elementi va asosiy qismi hisoblanadi. Unda o'quv materialini mazmuni va strukturasi, o'quishning maqsad-vazifalarini vaqt bo'yicha amalga oshirilishi o'z aksini topadi.

O'quv predmeti – o'quv rejaning ro'yxatiy tankibi bo'lib, uni o'rganish orqali o'quv dasturining mazmuni amalga oshiriladi, shu sababdan ham o'quv predmeti o'quv rejaga yetakchi komponent sifatida kiritiladi. Bunda yetakchi komponent bo'lib, predmet bo'yicha bilimlar yoki shu sifatda yuzaga chiquvchi faoliyat turlari hisoblanadi. O'quv predmeti bilimlarning o'zlashtirishni, ko'nikma va mohirlikning shakkllantirishni, rivojlanish va tarbiyani ta'minlab beradi. O'quv predmeti mazmuni ni ajaratib olishda uni o'quv rejaga kiritishdagi maqsad asos bo'lib xizmat qiladi, predmetni tushunchaviy mazmун bilan to'ldirishning asosini esa bazaviy texnik fanlar, ishlab chiqarish texnologiyasi va faoliyatning ishlab chiqarish sohasi tashkil qiladi.

O'quv predmeti bo'yicha o'quv adapbiyotlar – predmet bo'yicha ma'lum tizimdagи asosiy va qo'shimcha bilimlarni o'zida saqlab, o'quv ma'lumotining sig'imi va mazmumini, soddalik va ilmiylikni, predmetlik va abstraktikni ta'minlaydi. O'quv adapbiyotlari yana fanning metodlarini, tadqiqotlarning shakli va tur-

larini, faoliyat usullarini o'chib beradi. U bilimlar va ko'nik-malarни ijodiy hamda faol tarzda egallanishini, o'zlashtirishdagi mohiрилкни, о'з-о'зини nazorat qilishni ta'minlashga va talabani kitob bilan mustaqil ishlashга qaratilgan. O'quv predmeti bo'yicha **darslik** – asosiy о'quv kitobi – predmet bo'yicha dasturning strukturasiga va mazmuniga to'liq holda muvosiq bo'ladi.

Predmet bo'yicha о'quv qo'llannasi – bu dasturning alohida masalalarini va dasturga kirmagan, lekin alohidagi munammolar bo'yicha bilimlarni kengaytirishga va chuequrlashtirishga yordam beruvchi masalalarni yoritib beruvchi о'quv adabiyotidir. O'quv qo'llannamalarga darslarda va uyda bajariladigan mustaqil ishlar uchun, laboratoriya mashg'ulotlari uchun hisob ishlarining bajarilishi bo'yicha tayyorlangan qo'llannmalar va boshqalar kiradi.

Predmet bo'yicha qo'shimcha о'quv adabiyoti – bu fan va texnikaning zamонавиyo bosqichidagi yutuqlarini o'chib berishga qaratilgan adabiyotidir. U talabaning predmet bo'yicha olgan bilimlarini texnika, ishlab chiqarish texnologiyalari va ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishiga bog'liq holda to'ldirishga va kengaytirishga qaratilgan.

Ma'lumot beruvchi adabiyot – tarkibida tajribaviy kattaliklar, о'згармас hisobiy kattaliklar, Davlat Standartti talabları keltirilgan adabiyotlardir.

Texnik fanlar bo'yicha о'quv-tarbiyaviy jarayon – texnik tushunchalar, qonun va nazzariyalar, texnik masalalarni yechish usullari sifatida to'plangan kasbiy tajribani maxsus tarzda biliш jarayoni. U mutaxassis shaxsini shakkantirishga mo'ljallangan bo'lib, «о'qituvchi – о'rganuvchi» orasidagi, о'zaro shaxsiy munosabat asosida quriladi, bunda vositachi bo'lib o'qitish vositalari xizzmat qiladi. Ittimoiy nuqtayi nazaridan ushbu jarayonning natijasi – predmet bo'yicha har bir mashg'ulotning va ja'mi o'quv jarayonining ta'lim oluvchini kasbiy tomonidan tashkil topishiga va shaxs sifatida rivojanishiga qo'shgan hissasi hisoblanadi.

MUTAXASSISLIK FANLARINI О'QITISHDA III bob. TEXNOLOGIK FIKRALASHNI SHAKLANTIRISH KIMYOVIY-TEXNOLOGIK FIKRALASH haqida tushuncha

3.1. Kimyoviy-texnologik fikralash haqida tushuncha

Mutaxassislik fanlari blogidan joy olgan fanlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra ilmiy-nazariy ma'lumotlarni beruvchi fanlarga mohiyatiga o'quv ajaratish mumkin. Birinchchi guruhibga kiruv-va texnologik о'quv dasutlari asosan texnologik jarayonlarning chi fanlariнға mohiyatini o'chib beruvchi tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlar, nisbatan qiyin o'zlashtiriladi, nazorat paytda qonuniyatlar, nisbatan ularning mohiyati kamdan kam hollarda lar tomonidан tozaronidan beriladi. Ularni o'zlashtirish uchun talabadan talabalar tozhib beriladi. Ularni о'zlashtirish uchun talab etiladi. to'liq holda o'chueqr chuequr 'bazaviy nazariy bilimlar' talab etiladi, ammo texsoha bo'yicha chuequr o'zlashtirish esa oson kechadi, ammo texsoha bo'yicha chuequr o'chueqr solishtirish, baholash kabি qobil Texnologik fikralash, tahsil qilish, Texnologik fanlar qatorida o'qitildigian nologik fikralash qiladi. Texnologik fanlar qatorida o'rgatishga qaratilgan liyatlarni ta'jib uskuna hamda jichozianni o'rgatishga qilib qobiliyatiga texnologik fikralash qolib qibiliyatishda esa talabada texnik fikralash qolib qibiliyatishda ahaniyat kasb etadi.

Shu bo'isi, texnologik fanlar o'quv dasturlaridan joy olganning mayjudigi muihimm fanlar va ijodiy tifkrash, texnologik fikralashda texnik va ijobiy tifkrash, Shu bo'isi, texnologik fanlar o'zlashtirishda samaraliroq'ini tanlay olish, o'zlashtirilishi odllarni amalga oshirishda yuzaga keladigan munologik me'marxonlarning tazda yecha olish kabি qibiliyatlarni va texnologik fikralashda lozim.

Ammolarni shakkantirish lozim. Shundan kelib chiqqan holda kimyo-teknologiya sohasi ko'nikmalarni shakkantirishda tayyorlovchi oliv ta'lim muassasalarida kimyoviy-texnologik fikralash elementlarini o'quv jarayoniga tafsiq etish, shu orqali talabalarning kimyoviy va texnologik fanlari qiziqishini orttirish, soha fanlarnini yoniga tafsiq etish, bo'lgan qiziqishini orttirish, soha fanlarni nologik fanlarga undash, mutaxassislik fanlari bo'yicha chueqr o'zlashtirishda rivojanishiga qo'shgan hissasi hisoblanadi.

kasbiy mahorat sirlarini egallashga zamin yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun kimyoiy va oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida ta'lum olayotgan talabalarda mutaxassis fanlarini o'qitish jarayoniда kimyoiy-texnologik fikrashni shakllantirish ta'lum samarsasini oshirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Dunyoni tushunish, anglash va unga ongli munosabatni biliish bilan aloqador bo'lgan bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrash deb ataladi. Tafakkur bu borliqni umumlash-tirilgan holda bilvosita aks ettirishdir.

Normal insomni fiksiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har on, har daqiga odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularни tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish – **fikrash jarayonidir**. Fikrash analiz, sintez, induksiya va deduksiya jarayonlari orqali sodir bo'ladi. Tafakkur insonnинг bilish jarayoni bo'lib, u orqali inson borliqdagi narsa va hodisalar, ularning xususiyatlari, ular orasidagi bog'lanishlar va munosabatlarni mohiyati bo'yicha umumlashtirilgan holda aks ettiradi.

Tafakkurga psixologiyada obyektiv dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lgan subyektning faoliyati sifatida qaraladi. Har qanday fikrash jarayonida analiz va sintez asosiy fikrash operatsiyalari sifatida yuzaga chiqadi. Ular yagona fikrash jarayonining ikki tomoni, ikki aspekti hisoblanadi, ular bir-biri bilan o'zaro bog'iq bo'lib, bir-biriga o'zaro qaramadir.

Analiz yordamida predmetlarning ichki, jiddiy xossalari va ular orasidagi o'zaro bog'lanishlar aniqlanib, bir-birini va yotgan bog'lanishlar alohida-alohida airatiladi. Sintez yordamida esa abstrakt holatdan konkret holatga o'tladi. Sintez bu turli elementlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, ularni taq-qoslash va bir-biriga solishtirish demakdir.

Abstraksiya bu chalg'itmoqdir, ya'ni predmetlarning ma'lum xossalarni ajratib, boshqalaridan chalg'itishdir. Umumlashtirish – yagonadan umumiyya tomon fikriy harakatni sodir etilishi uchun vosita sifatida yuzaga chiquvchi mantiqiy yechimdir.

Fikrash – hamma yangiliklarni topish va yaratishga xos psixologik jarayon bo'lib, u uzuksiz ravishda ijtimoiy muloqot

bo'lan bog'liq, u barcha voqelik hodisalarini o'zida umumiylashdir, aks ettiruvchi jarayondir.

Texnik fikrash tafakkurning bir turi hisoblanadi. P.K. Engmeyerring fikricha, aqning maxsus usuli, bichimi mayjud lashami borliqni mantiqiy aks etish shakllaridan deb ataladi. M.I. Shubas texnik fikrashni borliqni mantiqiy aks etish shakllaridan deb ataladi. Texnik fikrash laydi va u tabiat bilan jamiyatni bilish deb sifatida ta'rif-sudida texnik vositalar va texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, yaratish hamda ishlatishga yo'naltiriladi, deb ta'kidlaydi. Texnik fikrashga yana texnik vazifalarni mustaqil ravishda tuzish va yechishiga qaratilgan faoliyat sifatida qaraladi. Umumiy holda texnik fikrash deganda, kasbyi-texnik strukturlik, texnologik va boshqa turdosh vazifalarni yechishni ta'minlab beruvchi aql-idroklki jarayonlarni vazifalarni yechishni ning kompleksi tushuniladi.

Texnik fikrash texnik vazifalarni yechishni vazifalarni xususiyatlari bo'lgan qandaydir fikrlar bilan band bo'ldi. Ularning bo'lakchalligini, u bilan amalga oshiriladigan fao-usullarini aniqlaydi. Bunda fikrning ba'zi bir tomonlarini ko'pturanishi, fikrash komponentlarini kuzatiladi.

Texnik materialning o'ziga xos xususiyatlari sodir bo'ladi. Texnik fikrash operatsiyalari ya'ni solishtirish turlari kabib ma'lum analiz, sintez, tasniflash va boshqalar, qarama-qarshi qo'yish, Bunda texnik fikrashga xos ravishda yuqorida aytilib o'tilgan operatsiyalar fikrash jarayonida texnik materialda rivojlanadi. Texnika sohasida ishllovchi va muttasil ravishda texnik ham-sodir bo'ladi fikrash jarayoni boshqalash uchun shug'ullanган insonda jarayonidan farq qildi, ya'ni bunda u texnik yo'nalishga ega bo'ladi.

Texnik fikrash analiz va sintez kabi fikrash usullari orqali valambor texnika va texnologiya atamalari bilan bevosita bog'liqidir. Texnika va texnologiya tushunchalarini bir-biriga uzviy tushunchalar bo'lib, texnika deganda – mehnat qurollari va sitalari tushunilsa, texnologiya deganda – ko'z oldimizda xom-

ashyo va yarimtayyor hamda tayyor mahsulotlarni tayyorlash qayta ishlash jarayonlari, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish usullari, texnologik yechimlar va vositalar keladi.

Texnik fikrlash mahorati mahsulot ishlab chiqarish jarayonda yuz beradigan bancha hodisalar mafmuasini fikran tasavvur qila olish mahorati bilan o'chanadi va fikrning texnik aniqligini talab etadi.

3.2. Kimyoviy-teknologik fikrlashni shakllantirishda asosiy faoliyat turlari

Talabalarda kimyoviy-teknologik fikrlashni shakllanish jarayonda avval texnik va texnologik tushunchalarning dastlabki tizimi shakllanadi hamda texnologik jarayon, asboblar va jihozlar haqidagi bilimlar to'planadi, keyin texnologik jarayonning turli variantlari hisob-kitob ishlari, solishtirish hamda taqqoslash asosida muhokama qilinadi va nihoyat texnik hamda texnologik xarakterga ega bo'lgan, o'zida yangilik elementini saqlagan samarali yechimlar qabul qilinadi.

Bunda o'qituvchi texnik ijodiy fikrlashni shakllantirish magsadida, o'qitishning har xil usul va vositalaridan foydalangan holda, guruhning yosh xususiyatlарини, fikri rivoji darajasini, talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini, ularning individual xususiyatlарини hisobga olishi kerak.

O'qituvchilar talabalarda texnik fikrlashni shakllantirishi uchun quyidagi larga amal qilishlari lozim:

- ◆ o'rganilayotgan faoliyat turi yoki obyektlarga ijobiy munosabatda bo'lishni ta'minlashi, mehnat faoliyatining mazmun-mohiyatini, istiqbollarini tushuntirib, ko'rsatib berishi kerak;
- ◆ o'quvchilarни mustaqil ta'lingga jalb qilishi, **tadqiqot ishlarini olib borishga** о'rgatishi kerak;

- ◆ texnik bilimlar bazasini rivojanishi, texnika va texnologiyalarni **boshqarish ko'nikmalarini** shakllanishi uchun ishlab chiqarish jarayonlari va texnologiyasini puxta o'zlashtirishi, mahsulot ishlab chiqarishni **texnik usul va usulublarini** bilishini ta'minlashi kerak;
- ◆ mazvuni tushunishda guruhli, individual ishslash usullari dan foydalanishi kerak. Bunday usullardan foydalanganda

0'quvchida taqlid qilish, o'xshatish kabi xususiyatlar rivojananadi **ya durs** mavzusini tushunishi osonlashadi.

Kimyoviy-teknologik fikrlash mahorati har qanday ishlab chiqarish sharoitiда mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida vujud keladigan hodisalar kompleksini fikran tasavvur qila olish mahorati bilan o'chanadi. BUNDAN TASHQARI, U TALABANING MARJU YECHIMINI fikran mumkin bo'lgan variantlarini solishtirish, ularni baholash va ulardan samaraliroq ini tanlash qobiliyatiga huan bog'iq. Ishni tayyor texnologik jarayon bo'yicha bajarish huan fikrlash jarayonisiz amalga oshmaydi, lekin bundagi fikrlash oldindan ishlab chiqigan texnologik jarayon «chegegaralari» bilan cheklangan bo'ladi. Ayni paytda fikrlashning yuqori bosqichi esa ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni mustaqil tahvilini ko'zda tutadi va buning asosida berilgan sharoitda yangi texnologik tizimli mustaqil ravishda ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Bu holda fikrlash faoliyat kengayib, ring-baranglik tusini oladi.

Talabalarda kimyoviy-teknologik fikrlashni shakllantirish jarayonida quyidagi faoliyat turlarini kuzatish mumkin.

Aqliy faoliyat.

Barcha turdag'i mashg'ulotlarda talabalarga savollar, yechish masalalar va bajarish uchun mashqlar beriladi. Ular quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Tushunchalar, qonun va qoidalarni aniq tarzda ifodalash.
2. Tushuncha, qoida, qonunlarning qo'llanishini aniq milogik sxemalarni tuzish.
3. Hodisalar orasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash.
4. Formulalarni keltirib chiqarish va isbotlash.
5. Hisob ishalarni bajarish, texnik chizmalarini chizish, texnologik sxemalarni tuzish.
6. Amaliy harakat usullarini tavsiflash va hokazolar.

Chizmalarни tushunish.

Talabalarni politexnik jihatdan taylorashning asosiy bo'limlaridan biri – bu ularda grafiklarni tushunish mahoratini shakllantirishdir. Chizmalar, sxemalar, texnologik xarijalarni shinasozlikda ham, barcha turdag'i ishlab chiqarish sohalarida ham ishlataladi.

Har qanday mahsulotni ishlab chiqarish yihalashtirish, yaratish hamda undan foydalaniш jarayonlarda, albatta, texnik va texnologik hujjatlardan foydalaniлadi. Bu hujjatlar grafik, sxema, chizma va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Soha olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, ayrim talabalarda texnik obyektlarning hajmiy ko'rinishidan chizmaga o'tish qiyinchilik tug'dursa, ayrimlarda chizmalarдан shartli sxemalarga o'tish murakkab hisoblanadi, yana boshqalarda esa bu jarayonlar unumman osonlik bilan kechadi.

Texnik vazifalarni yechishda ko'rgazmali-tehnik vositalarni idrok etishga, fazoviy bog'janishlar va munosabatlardan foydalananishga tayanish muhim rol o'yaydi. Bunda chizma orqali uch o'ichamdag'i obyektni tasavvur qilish va uni chizmaga o'tkazishni bilish hali yetarli hisoblanmaydi, ushbu ko'nikmalar eng muhim ko'nikmalar qatoriga kirmaydi, balki ular masalani muvaffaqiyatli yechimini topishda asosiy shartlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asosiy talab esa texnik qujilmalardagi alohidagi qismilar harakatini ko'ra bilish orqali dinamik fazoviy tasavvurni rivojlantirishga qo'yildi. Shular qatorida, harakatlanayotgan detallarning fazoviy bog'janishlari va munosabatlarni tasavvur qilishni ham rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, texnik xarakterdagi va ishlab chiqarishga oid masalalar o'z mazmuni jihatidan turli-turmandir. Ularни yechishda ko'rgazmali vositalarning u yoki bu turidan foydalananish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p hollarda ko'reg'mali-grafik shaklda berilgan texnik hujjatlarni o'qish faoliyatning asosiy maqsadiga aylanadi. Ular bilan ishlash ko'rgazmali vositani o'qish, idrok etish, tushunish, undan foydalaniш jarayonlari bilan birga kechadi, bu esa fazoviy tasavvurni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Texnik tasvirlarni o'qish va ulardan foydalaniшda sxemalar o'zinинг ko'rgazmallilik mazmunini yo'qotmasdan tushunchalar va ularning tizimi bilan qo'shilib ketadi. Sxematik tasvirlarga real obyektlar, ularga oid tushunchalar va ular orasidagi bog'janishlarni o'mini bosuvchi simvollar tizimi kiradi. Obyekt, uning sifatlari va munosabatlari bunda ma'lum tarzda kodlanadi. Tasvir obyektning asosiy tomonlarini aks etgani uchun u ortiqcha ma'lumotni saqlamaydi. Statik tasvir orqali bunda

dinamik xarakterga ega bo'lgan fazoviy obraz shakllanadi. Shu sababdan, sxemalarni o'qish simvollarni oddiy tildag'i fizikkynyoviy tushunchalarga qayta kodlash va statik tasvurni fizik-orqali amalga oshiriladi. Bu amallar «statika» orqali «tasavvur» va «dinamikaga» o'tishda talabada qiyinchiliklar bo'lsa, ancha inurakkab kechadi.

Sxemalar keyinchalik amaliy harakatlar uchun manba bo'lib xizmat qilgan hollarda, ularni o'qish maxsus sharoitlarni talab qiladi. Bunda sxemalarni tanish va ulardan foydalaniш avvalambor, ma'lum nazarli qoidalarni bilish bilan bog'liq bo'lib, sxemalar sifatlarni differensiasiya qilishni taqozo etadi. Sxemalik tasvirlardan foydalananib yechiladigan bir qator masalalar esa abstraktidan konkretga o'tishni talab qiladi, bu esa ko'p hollarda talabalarda qiyin kechadi.

Produktiv fikrlashda intellektual faoliik va boshhqacha aytganda intellektual tashabbuskorlik katta ahamiyatga ega. Ayrim intellektual qobiliyati kuchli insonlar masala yechimini topishda oson usullardan foydalananidir. Bu esa aqliy tashabbuskorlik, faoliik orgali amalga oshadi. Intellektual faoliig'i past talabalar o'quv materiallarni yaxshi o'zlashtira olmaydilar, ammo ularga bu materiallarni o'yin holida tushuntirilsa, ular hech qanday qiyinchiliklarsiz ularni o'zlashtirishlari mumkin. Demak, ularda intellektual tashabbuskorlik xususiyati yetishmaydi.

Mustaqil faoliyat.

Fikr yuritishning mustaqilligi deganda, insonning shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga yaqqol maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazarli xususiyatlari faraz (taxmin, gipoteza) qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan muammoni hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmassiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul, vosita topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatini tushunish kerak.

Mustaqil fikrlash shaxsnинг bilimlarni egallashda, borliqni bilishda zarur bo'lgan umumiy ko'rikma va malakalarni muhammal egallash, yangi vaziyatlarda ularni ijodiy tarzda qo'ilaski bilan bog'liq qobiliyatidir. Mustaqil fikrlash ikki tomonga, ya'mi o'quvchiga va o'qituvchiga bog'liq bo'radi. Ijodiy fikrlash

qobiliyatiga ega bo'lmagan o'qituvchi o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrni rivojlantirsa olmaysdi. Insonda fikrash, xulosa chiqarish qobiliyati mavjud bo'lgandagina, biron narsani bilishi mumkin.

O'quvchilarda mustaqil fikrashning rivojlanganlik darajasini maxsus ajratilgan mezonlar yordamida aniqlash mumkin. Ular quyidagilar: o'rganilayotgan mayzuni tahlil qilish; hodisa va jarayonlarda muhim belgilarni topish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-qibat munosabatlarni aniqlashi; o'rganilayotgan mayzuni amalda qo'llash, o'z ishlarni o'qituvchining topshirig'i bo'yicha va mustaqil rejalashtirish va shu kabilar. Mustaqil fikrashning muhim belgilardan biri o'quvchining muammoni anglash darajasi, farazni mustaqil ravishda ilgari surish, yechimni izlash rejasini mustaqil ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini o'rganilayotgan obyekt bilan bog'liqligini aniqlash va ularning ishonchiliginini tekshirishdan iborat.

Mustaqil ijodiy fikrni rivojlantirish o'quvchilarda divergent tafakkurni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Qo'yilgan muammoni, masalani faqat bir yo'l bilan yechadigan konvergent tafakkuridan farqli ravishda, divergent tafakkurda munammo hal qilishning turli usullari izlanadi.

Ma'lumki, bilishga oid mustaqillik ya aqliy mustaqillik o'xshash tushunchalar bo'lsa ham, lekin ular bir xil emas. Bilishga oid mustaqillik ijodiy va izlanuvchanlik xarakteriga ega bo'lsa ham, lekin har vaqt ham o'zida tadqiqot elementlarini saqlamaydi. Aqliy mustaqillik esa gipotezalarni, ularning yechimlarini va yangi sharoitlardagi tadqiqotchilikni, mustaqil bilishi tahlil qiladi.

Darslarda ishlatalidigan mustaqil ishlarning turi ko'p bo'laadi, bunga sabab, birinchidan, ular har xil didaktik maqsadlarda o'tkaziladi (yangi materialni o'rganish, egallangan bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish, o'zlashtirish darajasini tekshirish); ikkinchidan, har xil turdag'i bilishga oid faoliyatni ko'zda tutadi (takror ishlab chiqarishdan tadqiqotchilikkacha); uchin-chidan, har xil tashkiliy shakllarda bajariladi (frontal guruhli, individual-differensial); to'rnichidan, o'quvchilar har xil bilim-va o'quv usullaridan foydalanadilar (kitob bilan ishlash, eksperiment o'tkazish, masalalar yechish, targatma material bilan

ishlash, modeldar yordamida vazifalar bajarish) va hokazolar. Har qanday turdag'i mustaqil ishda aytib o'tilgan belgilari uyusligini ko'rish mumkin.

Mustaqil ishlarning mazmuni va shakli o'quv mavzusi bo'yicha darsni rejalashtirish jarayonida aniqlab olinadi. Bunda har bir darsga oid o'quv materiali puxta tahil qilinadi va quyida pilarga alohida e'tibor qaratiladi:

1. Darsda birinchi marta qayday bilimlar egallanib, qanday ko'nikmalar shakllanmoqda.
2. Yangi bilimlarni shakllantirishda qanday bilim va ko'nikmalar tayanih lozim.
3. Yangi bilimlar qaysi yo'l bilan, ya'ni induktiv, deduktiv yoki analogiya bo'yicha kiritilishi lozim.

Ilimiy tadqiqotchilik faoliyati.

Teknik fikrashni rivojlantirishning yana bir usulidan biri bu ilmiy-tadqiqotlar uyyustirishdir. Tadqiqotchilik faoliyatida o'quvchi qo'yilgan maqsad yo'lida izlanishlar olib boradi, tajribalar o'tkazadi, olingan natijalar bo'yicha fikr mulohazzalamni tahlil etadi, umumlashtiradi, taqposlaydi va xulosalar chiqaradi. Garchi, o'quvchilar tomonidan yaratilgan yangiliklar fan uchun yangilikdir. Shuning uchun o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati yaqgol mustaqil izlanuvchan xarakterga ega bo'lgan faoliyat turidir.

I.Ya. Liner fikricha, tadqiqotchilik metodi o'quvchiga «joydi faoliyat malakasi»ni beradi.

O'quv-tadqiqotchilik faoliyatining maqsadli dasturi maktab o'quvchilarini intellektual rivojlanish dasturi bo'lib xizmat qilsa, olty o'quv yurti talabalarini uchun – ixtisoslashgan rivojlanish dasturi bo'lib xizmat qiladi.

3.3. Talabalarда texnik va ijodiy fikrashni shakllantirish yo'llari

Talabalarни texnik fikrashga o'rnatish quyidagi fikrash bosqichlari yordamida amalga osdiriladi:

- ◆ axborotni bilish;
- ◆ reproduktiv fikrash;

- produktiv fikrash;
- ijodiy fikrash.

Talabani ma'lumotlarni eslab qolish, ya'ni yod olish darajida o'zlashtirishi **axborotni bilish** bosqichida ro'y beradi. Bu usul fikrashning dastlabki bosqichi bo'lsa ham, lekin dalillar, voqealar, tafsiflar, ifodalar, qonunlar va hokazolarni eslab qolish zaruriyatini tug'diradi. Axborotni bilish nazoratida talabani eslab qolish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan bilmirlari tekshiriladi.

Reproduktiv fikrash bosqichida talaba yod olgan ma'lumotlarini eslab, turdosh vaziyatlarda ishlata bilishi lozim. Bu bosqichda talabarning fikrashi ma'lum darajada chegaralangan bo'ladi. Uillardan oldingi yodlangan algoritmlar va qoidalarni eslash talab etiladi. Bunda nazorat testlariiga murakkabroq topshiriqlar kiritilishi lozim.

Produktiv bosqichda talabadan avvalgi olgan bilimini no'an'anaviy vaziyatlarda masalalarni yechishda mustaqil fikr yuritish asosida qo'llash talab qilinadi. Bu faoliyat tayyor qoida yoki tasvir asosida emas, balki talaba tomonidan tuzilgan ketma-ketlik asosida amalga oshadi. Ushbu bosqich talabada aqliy tahlil qilish, yangi yechimlarni ishlab chiqish, bilim va tajribaga taynish, topshiriqlarni analiz va sintez qilish, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan mantiqiy xulosalar chiqarish kabi qobiliyatlarini shakllantiradi. Produktiv o'zlashtirish darajasi topshiriqlari katta tashxis va didaktik ahamiyatga ega. Ularning bajarilishi uzviy bog'liqlikni, fikrashni, aqiy tahlilni, algoritim tuzishni, yangi yechim'arni ishlab chiqishni talab etadi. O'qitish natijalarini bu holda bilim va tajribaga tayananadi.

Produktiv o'zlashtirish darajasi tekshirilayotganda o'quvchidan olgan bilmirlari asosida **no'an'anaviy xarakterdagi masalalarini yechishda mustaqil fikr yuritishiga yo'naltirilgan masalalar beriladi**. Bunda talabaning faoliyat tayyor qoida yoki tasvir asosida emas, balki u tomonidan tuzilgan algoritim bilan bog'liq bo'ladi.

Produktiv darajadagi test topshiriqlariga murakkab hisob-lashlar kiritish shart emas, eng asosiysi, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan mantiqiy xulosalarga tayanish lozim.

Ijodiy darajadagi fikrash bosqichida talabada soha bo'yicha olgan bilimlari asosida ijodiy fikrash, no'an'anaviy yondashuv, tasavvur va fantaziya qilish qobiliyati rivojlantiriladi. Ijodiy fikrlagan talabada mantiqiy fikrash, yangi vazifalarga ijodiy yondashish va ularni topqirlik bilan yechish qobiliyati shakllanib boradi.

Ijodiy darajadagi bilim sinayayotganda taklif etilayotgan masalani yechish uchun tayyor qoida mayjud bo'lmaydi, uni ishlab chiqish lozim. Bunday masalalar hatto o'qituvchilar uchun ham ba'zida qiyinchilik tug'diradi.

Misol tariqasida «**Don va don mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasidagi xomashyo va materiallar**» fani o'quv dasturidagi materiallarni talabalar tomonidan o'zlashtirish jarayonini ko'rib chiqamiz.

Talaba dastlab axborot bosqichida non va non mahsulotlari, makaron hamda qandolat mahsulotlari, ularning turlari, ularmi olinish uchun ishlatalidigan xomashyolar, ya'ni sut va sut mahsulotlari, shakar va asal, tuxum, tuz, xamir yetiltiruvchillari, solod preparatlari, yangi hamda qayta ishlangan mevalar, kaxmal va kaxmal mahsulotlari, ta'm beruvchi mahsulotlar, ozuqaviy organki kislotalar, ozuqaviy yog'lar, moylar, jele hosil qiluvchi moddalar, ko'pik hosil qiluvchi hamda xushbo'y moddalar, ozuqaviy moddalar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Reproduktiv fikrash darajasiga yetgan talaba esa boshhoqli ekinlarning dukkaklı ekinlaridan farqini, ularning mevasini morfologiya va anotomiyasini, don hamda don mahsulotlarni ishlab chiqarish tarmog'ida omixta yem, non, makaron va qandolat mahsulotlari tayyorlashda ishlataladigan xomashyo hamda materiallarning taysifini bilibgina qolmay, balki ularning turlari, xossalari, afzalliklari, kamchiliklari, ularga qo'yiladigan talablar, ularni saqlashning maqbul sharoitlari va muddatları haqida o'zi mustaqil ravishda mulohaza yurita oladi.

Talaba non, makaron va qandolat mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xomashyolarni sifatiga ko'ra bir-biridan

farglasa, ya'ni afzalliliklari va kamchiliklarini ajrata olsa, ularmi tayor mahsulot sifatiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlay olsa, sifatsiz mahsulotni chiqish sababini anglasa, ushbu fikrlash darajasi produktiv fikrlashga kiradi.

Va nihoyat, produktiv fikrlash bosqichidagi talaba mayjud bilimlarini amalda tabbiq eta olsa, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan kamchiliklarini bartaraf etishning maqbul yo'llarini izlab topa bilsa, texnologik jarayonga yangilik kiritish qobiliyatiga ega bo'isagina u ijodiy fikrlash bosqichiga qadam qo'ygan bo'ladi. Demak, talabalarda texnik fikrlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib, fikrlash jarayonidagi axborotni biliш, reproduktiv fikrlash, produktiv fikrlash, ijodiy fikrlash bosqichlari o'zaro uzviy bog'lanishda bo'lil, dastlabkilari keyingilarini uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kimyoviy-tehnologik fikrlashni shakllantirishning samarali usullaridan biri – bu dars jarayonida muammoli vaziyatni ketirib chiqarishdir. Bunda o'quvchining fikri taranglashadi, tassavuri kengayadi, izlanadi va bahslashadi. O'quvchining vazifikasi esa bu jarayonni to'g'ri boshqarishdir.

Kimyoviy-tehnologik fikrlashni yanada yuqori darajada rivojiantirish uchun ilmiy-tadqiqotlarni yo'liga qo'yish zarur. Bunda o'quvchilarning faoliyati mustaqil izlanish xarakteriga ega bo'ladi.

Kimyoviy-tehnologik fikrlashga o'rgatish murakkab jarayon bo'lub, uni bosqichma-bosqich rejalashtirish va amalga oshirish zarur. Talaba texnik atama bilan tanish bo'masa va uning mazmuni yetarli darajada tushunmasa, texnik fikrlashga o'rgatib bo'imaydi.

Shu sababli o'rgatishni eng avvalo texnik atamani to'g'ri ta'riflash, tushuntirib berishdan boshlash kerak.

Bunda masalan, «**Chizmachilik**» fanidan «frontal proeksiya» atamasining mazmunini tushuntirish, u qanday holatlarda, qanday jarayonlarda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berish zarur bo'ladi. Bunda talaba texnik fikrlashning dastlabki – «ma'lumoti bilish» darajasiga erishadi.

Talaba ikkinchi bosqichda buyumning yaqqol ko'rinish turgan umumiyy ko'rinishiga qarab frontal proeksiyanı chizib be-

rishi mumkin. Bu bosqichda talaba «reproduktiv fikrlash» darajasiga erishadi, ya'ni nafaqat ma'lumotni bildi, balki bilimini (belgilangan andoza – proeksiyalash usuli asosida) amalda qo'llay oladi.

Agarda talaba masalani ham yechha olsa, u yuqoridaq bilim va ko'nikmalaridan tashqari yana qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi zarur. Ya'ni endi u bu bilimlarini o'ziga tanish bo'lmagan murakkab masalalarni yechishda qo'llashga, qisqa ijdodiy faoliyatga ehtiyoj sezishi zarur. Shuningdek, bu bosqichda talabaning reproduktiv o'zlashtirishi endi awalgidan yuqoriroq bo'lishi, ya'ni texnik chizmalarini o'qish malakasiga ham ega bo'lishi kerak. Bu masalaning avvalgisidan farqi shundaki, bu yerda mavhum bo'lgan yangi proeksiyanı o'ylab topish zarur. Bu bosqichda talaba «ijodiy fikrlash» darajasiga erishadi, ya'ni talaba bilimini turli, murakkab masalalarni yechishda qo'llay oladi.

Biroq ishlab chiqarishda talaba turli nostandart vaziyatlarga, muammolarga duch keladi. Shuning uchun ham talabaga faqat o'ylab topish darajasida bilim yetari emas. Ayniqsa, iqtidorli talabalarga qo'shimcha qiziqarli masalalar, uy vazifalari berish orgali ularni jiddiy maqsadga yo'naltinish zarur.

Masalan, chizmada keltirilgan buyumni yasash uchun uning qolipi qanday ko'rinishga ega bo'lishini bilishi uchun talaba yuqoridaq barcha bosqichlarini o'zlashtirgan bo'lishi va yana qo'shimcha ravishda «muhandislik ko'nikmalarini» amalga qo'llay olishi zarur. Qolipning chizmasini chizib began o'quvchi «frontal proeksiya» tushunchasini «samarali fikrlash» darajasida o'zlashtirgan hisoblanadi.

Bu tavyсиya qilinayotgan o'zlashtirish bosqichlarini amalda qo'llash uchun avvalo o'qituvchi o'zida bunga o'shash vazifalarni bajara olish qobiliyatini shakllantirishi zarur. Talaba bilimini ushbu o'zlashtirish bosqichlari asosida baholashda quyidagi baholash mezonlariidan foydalanan maqsadga muvofiqdir:

- ✓ »reproduktiv o'zlashtirish» darajasiga erishsa – «qoniqarli»;
- ✓ «ijodiy o'zlashtirish» darajasiga erishsa – «yaxshi»;
- ✓ «samarali o'zlashtirish» darajasiga erishsa – «a'lo».

Shulardan kelib chiqqan holda, texnik fanlari o'qitishda avvalambor, o'qituvchining o'zi yuqori darajada texnik fikrlay olish, har bir muammoni texnik nuqtayi nazardan talqin qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Texnik ijodiy fikrlashda o'ziga xos jarayondir. Bu esa texnik va texnologik masalalarning o'ziga xos xususiyati hamda yechimi jihatidan faoliyat shartlari orqali tushuntiriladi.

Texnik fikrlashda maqsad birlamchidir. Misol tariqasida «**Polimer kompozision materiallar yaratish texnologiyasi**» fanini ko'rib chiqaylik. Talaba shu fan bo'yicha ilmiy ish qilmoqchi. Ilmiy ishga kirishishdan oldin, u shu fan bo'yicha hamma nazariy bilimlarни: adsorbsiya hamda adegeziya nazariyalarini, to'ldirgichlar, pigmentlar xossalarni va hokazolarni o'rGANIB chiqadi (reproduktiv fikrlash). Ilmiy ishida esa bu talaba o'zlashtirgan bilimlarni tadqiqot ishlariда tajribalar o'tkazib ijodiy izlanishta bo'ladi. Har XII to'ldirgichlar, ingradiyentlar, pigmentlar qo'shish natijasida tajriba o'tkazilayotgan materialning xossalari o'zgarishini: chidamliligini ortishi, soyuqbardoshligi yoki issiqbardoshligini kamayish yoki ortishini kuzatib boradi va eng optimal variantlarini tanlaydi (ijodiy fikrlash). Samarali (produktiv) fikrlashda esa talaba olingan mahsulotni qanday va qaysi sharoilarda qo'llash mumkinligini, uning tannarxi qanchaga arzonlashganligini hisoblab ko'rsatib bera oladi. Ko'rinish turibdiki, bu yerda maqsad birlamchi.

Ijodiy yo'nalishda ish yuritayotgan insonlarda esa **fantaziya birlamchidir.** Bunday insonlar ham reproduktiv fikrlash bosqichini bosib o'tishadi. Masalan, rassomlar rassomchilikka oid fundamental bilimlarni: bo'yoqlarning, mo'yqalamlar turi, chizmalarining, ko'rinishlarning turi kabi bilimlarni **reproduktiv fikrlash** doirasida o'zlashtiradi. Faoliyati davomida ular **samarali fikrlash** bosqichini qo'llaydi, ya'ni bilimlarni amaliyotda qo'llaydi: chizgilar chizadi, portretlar, natyurmortlar yaratadi va

hokazolar. Analiyotdagι bilim va ko'nikmalarga tayangan holda ijodiy izlanishda (ijodiy fikrlash) bo'ladi, yangi rasmlar yaratadi. Bu misoldan ko'rinish turibdiki, ijodiy fikrlashda fantaziya birlamchidir.

Texnik fikrlaydigan insonlarga aniqlik, maqsadga intilish, samaralilik kabi xususiyatlar xos bo'lsa, ijodiy fikrlaydigan insonlarga fantaziya, rang-baranglik, uzuksiz izlanish, o'sish, iltamchidir. O'qitish sifati o'qituvchi ishining qanday tashkil qilinganligi hamda o'quvchilarning fikrlash faolligiga qanchalik ta'sir etayotganligi bilan belgilanadi.

Texnik fikrlashni shakllantirishning samarali usullaridan biri bu dars jarayonida **muammloli vaziyatni** keltirib chiqarishdir. Ma'lumki, muammochni aniqlash orgali, ularni shakllash va yechish hamda yechimlarni tekshirish – bu muammoli o'qitish jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Bu jarayonda muhandis-pedagogning muammloli vaziyatni tashkil qiliш qobiliyatni koriladi.

Dars jarayonida muammloli vaziyatni tashkil qiliш orgali o'qituvchi bilim olish jarayonini kuchaytiradi va faollashtiradi: fikr taranglashadi, tasavvuri kengayadi, o'quvchilar izlanishadi, oldingi bilimlarni esga olishadi, bahslashishadi. O'qituvchining vazifasi esa shu izlanish, bahslarni aniq qo'yilgan masaladan cheqmasligini ta'minlashdir.

Ta'lim jarayonida samarali o'qitish texnologiyalaridan biri bu muammloli o'qitish hisoblanadai. Ushbu uslub yordamida faol bilim jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot usulini shakllantirishga erishish mumkin.

Muammloli vaziyat – bu pedagog tomonidan ongli ravishda yaratilgan qiyinchilik bo'lib, bu qiyinchilik o'quvchilar da ijodiy izlanishni vujudga keltiradi.

Pedagog muammloli vaziyatni tashkil qilayotganida muammoni shunday shakllantirishi lozimki, bunda noaniq narsa ilgari o'rganilgan bilimlar bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Muammloli xarakterga ega masalalarni quyidagi mazmunlarda tuzish mumkin:

- ◆ masala shartiga etishmovich ma'lumotlar orgali. Bunda

o'quvchi bir qancha variantlarni topishi va builar ichidan eng samarali yechimni aniqlashi kerak. Bu masalani ishlashda etish-movchi ma'lumotlarni jadvallar, qo'shimcha o'lchashlar va hokazolar orqali aniqlashi mumkin bo'ladi;

- ◆ shartli sxema ko'rinishi bo'yicha obyeektning yaqqol ko'rnishini chizish yoki sxematik «statik» xarakterdagi ko'rinishdan fazoviy «dinamik» xarakterdagi ko'rinishga o'tish, berilgan me-xanizmni harakatda tasavvur qilish va hokazolar.

Masalan, «**Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi**» fannidan «Polimerlarni issiqbardoshligini aniqlash» mavzusida issiqbardoshlikni aniqlashni ikki usuli: Vika va Martens moslamalari orqali aniqlash usuli ko'rsatilgan. Talabalarga: «Bu ikki usulning farqi nimada?» deb savol berilsa, ular: «Vika usulida temoplast polimerlar, Martens usulida temoreaktiv polimerlarning issiqbardoshligi aniqlanadi», deb javob beradilar. «Bu usullar orqali issiqbardoshlikni aniqlash qaysi kuchlar hisobiga boradi?» degan savolga talabalar javob berishida **samarali fikr-lash** talab qilinadi. Bunda talaba, issiqbardoshlik Vika usulida – botuvchi kuch, Martens usulida – eguvchi kuch hisobiga issiqbardoshlik aniqlanishini aytilib bera oladi.

Savollar bo'yicha talabalarни fikrlari tinglanadi, muhokama qilinadi va xulosa chiqariladi. Har bir bildirilgan fikrni rag'bat-lantirib turish maqsadga muvoqif. Savollarni berishda uni muammolik darajasiga e'tibor berish lozim. Savollarni iloji borichna kitobda berilgan ma'lumotlar asosida emas, balki mustaqil izlashga va o'ylashga majbur qiladigan qilib tuzish kerak bo'ladi. «**Yog'lar va moyli xomashyolar kimyosi**» fannini o'qitishda «Muammo» texnologiyasini qo'llash talabalarни fanni puxta egallashlarida muhim omil hisoblanadi. «Muammo» texnologiyasidan foydalanilganda, talaba yoki o'quvchilarda o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan holda, turli muammolari masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topish, muammo-ning mohiyatini aniqlash, muammo yechimining usullarini tahsil qilish hamda ularni to'g'ri tanlash, muammoni kelib chiqish sabablarni va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlash kabi ko'nikma va malakalarни shakllantiradi. Masalan, «Glitserim» mavzusi bo'yicha talabalar tayyorlarligini

muhabiga olib muammoni toraytirish va ularning konvergent liklarini talab etuvchi kichik muammoli savollar qo'ygan holda quyidagicha muammoli vaziyatni yaratish mumkin.

«Glitserim ishlab chiqarishning qanday tizimi samarali?», «Distillyator unumdorligi yoki distillyatsiyalash tezligining samaradorligini oshirish mumkinmi?», «Distillyatsiyalash sifatini oshirish uchun nima qilish kerak?», «Distillyatsiyalashda qanday murakkabliklar bor?». Mana shunday o'zaro bog'liq bo'lgan savollar talabalarни mavzu bo'yicha mustaqil fikr yuritishga, ol-gan bilimlarni kengaytirishga, qo'yilgan muammolarini to'g'ri hal qilishga undaydi.

Ushbu jarayonlarni inobatga olgan holda «**Yog' va moylar texnologiyasini nazarli asoslar**» fannini o'tish jarayonida muammoli vaziyat yaratish texnologiyasini qo'llash yuqori natijalarini beradi. Bu uslub yordamida mavzu yuzasidan muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga undaladi. Uning vazifasi talabani faol bilish jaryoniga yo'naltirish va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoni o'qitish ijobjiy faol shaxs tarbiyasi maq-sadlariga mos keladi.

Masalan, «Margarin xomashyolarini tayyorlash» mavzusiga «Muammoni vaziyat yaratish» texnologiyasini qo'llash yordamida talabalarни mavzuga bo'lgan qiziqishini ortirish mumkin. Bu usulni qo'llashning asosiy sharti tuzilgan muammoli savollarning o'zaro bog'liglidir. Misol tariqasida, mavzu yuzasidan muammoli ma'ruza darsini keltiramiz:

Dars borishida, birinchchi uzviy savolni muhokama qilish jarayonida muammoli keng vaziyatni vujudga keltirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi talabalarغا «Nima sababdan biz darsni margarin mahsulotini ozuqaviy xususiyati to'g'risidagi masaladan boshladik?» degan savol bilan auditoriyaga murojaat qiladi. Bu savol muhokamasi asosida talabalar mavzuni o'rganishni, mavzuni shu savoldan boshlaganligiga qanoat hosil qilishlari kerak.

Birinchchi bosqichda, talabalarga «Nima sababdan margarin mahsulotlari turli assortimentlarga bo'lingan?» deb murojaat qilindi. Bunda talabalar turlihalar javob berishlari mumkin, ba'zi-

lar uning ozuqaviy qiymatini belgilash uchun kerak, deb aytishi mumkin. «Sizningcha kim haq? Buning sababi nima?» degan savollar qissacha muhokama qilingandan so‘ng, «Margarining turari ko‘pligini bildik, ularning farqi nima?» degan savol bilan murojaat qilindi. Talabaldardan javob olingach, ma’ruza davom etadi. Margarin turli guruhlarga bo‘linishini tushuntirilgach, «Nima sababdan turli jihatdan yondashib, guruhlarga bo‘lib chiqdik. Buning zaruriyatni bormi? Guruhlarga bo‘imasdan o‘rganib qo‘ya qolsak bo‘lmaydim?» deb murojaat qilish mumkin.

Ikkinchchi savolni muhokama qilishi «Agar marginining turli guruhlarini ishlab chiqarish uchun ishlatalidigan xomashyolarni miqdorini kamaytirib, mahsulotni tejab qoladigan bo‘lsak, moliyaviy tomondan yutildi. Bunda marginining sifati va ta’mi o‘zgarmaydi, degan hulosha chiqarsak, bo‘ladimi?» degan muammollari savol qo‘yiladi. Bunda o‘qituvchi muhokama jarayonida talabalar ishlab chiqarish qoidalari va me’yorlariga rioya qilish zarurligiga amin bo‘lishi kerak. Muhokama asosida ma’ruza o‘qish davom ettiriladi.

Uchinchchi savol «Margarining ta’mi va sifatini yaxshilash uchun ozuqaviy xususiyati yuqori bo‘lgan tabiiy xomashyolar kerakligi, agar kimyoiy xususiyatlari bilan inson uchun zararli bo‘ladigan qo‘shimchalar qo‘shiladigan bo‘isa, bu qanday oqibatarga olib keladi?» degan muammollari savollar bilan boshlanadi.

Margarin ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy xomashyolarning turlari aytib o’tiladi va talabalgara: «Hozirgi kunda ba’zi mutaxassislar kulinar va markali margininlar tabiiy yog‘ mahsulotlar o‘rnini bosa oladi desa, boshqalari buning aksini aytmoqda. Siz qaysi fikrga qo‘shilasiz?» deb murojaat qilinib, talabalarни munozaraga chorlash mumkin. Shu tarqa, talabalar fikrini, diqqatini oziq-ovqat sanoatining bosh muammosini o‘rganishga qaratiladi «Bir tomonidan marginin mahsulotlarini ishlab chiqarish oson va uni keng miqyosda ishlab chiqarish yo‘iga qo‘ylgan, ikkinchi tomonidan tabiiy yog‘lardan olingan mahsulotlar zaraarisiz va organizm uchun foydali, lekin uni ishlab chiqarish chegaralangan» ulardan qaysi birini bosh muammo deb

aytamiz? Ushbu muammoni hal qilish mumkinmi? Buning uchun nima qilish kerak? Ushbu muammmo bo‘yicha talabalarning fikrlarini eshitib, o‘qituvchi ularning tarafdarlarini aniqligi asosianadi va shundan so‘ng munozaraga yakun yasaladi. Texnik fikrlashni shakllantirishning muhim omillaridan biri – bu talabalarning texnik adabiyotlar, ma’lumotnomalar, jadvallar, dinamik plakatlar bilan ishslash malakalarini oshirishdir. Bu malakalar nafaqat fikrashni rivojlantirishga yordam beradi, balki ularsiz talabalarda fanga qiziqish uyg‘otish, mustaqil faoliyat va tashabbuskorlikni tarbiyalash ham mumkin emas.

Tajribalar shuni ko‘rsatadi, ko‘pchilik talabalar savollarga javob berayotganda asosidan ikkinchi darajali narsalarni, umumiyyadan xususiyti ajratma olmagan holda matndan konspektga ko‘chirma qilib oладilar. Bunday «mustaqil faoliyat»dan foyda kam, bu tariqa to‘plangan bilimlar yodlab olingan bo‘lib, tezda o‘quvchining yodidan ko‘tariladi.

Adabiyotlar bilan ishlasshing bir qancha xususiyatlari bor. 1. Adabiyotni o‘qib chiqish va uning mazmunini tushunish uchun talabadan *dīqqat-e ‘tibor* hamda sabr talab etiladi. Sabr sizlik diqqatsizlikni keltirib chiqaradi va oqibatda kitob o‘qil maydi, balki varaqlab chiqiladi, xolos. Kitob o‘qiyotganda, birinchi navbatda, kitob muallifi kim ekanligini bilish, so‘ngra bu kitobning 1-sahifasida kitobdagagi ma’lumotarning qisqagina mazmuni keltirilgan joyini, mundarijani ko‘zdan kechirish kerak. Undan so‘ng kitobni to‘liq o‘qishga kirishiladi.

2. Adabiyotlarni o‘qishda *analiz* va *sintez* jarayonini «Insert» usulida ko‘rib chiqish mumkin. Bu usul quyidagicha amalga oshiriladi. Talaba kitobni o‘qiyotganida har bir abzasa shartli belgilan qo‘yib boradi, ya’ni:

«+» – bu abzasa o‘zi uchun yangi ma’lumotlar bor;

«–» – abzaslardagi fikrlarga e’tirozi bor;

«\» – berilgan ma’lumotlar ma’qui bo‘ldi;

«?» – so‘zlar mujmal bayon etilgan, tushunarsiz.

Talaba shu usul bilan kitobni o‘qib chiqadi va qo‘ylgan


belgilarni bilimlarini umumlashtiradi.

olsa, u har doim shu vaqtida o'qishga ehtiyoj sezadi va natijada o'qish jarayoni samarali kechadi.

6. Kitob o'qish jarayonida faoliyatni o'zgartirib turish ham joyda beradi. Agar inson uzoq vaqt mobaynida bir xil holatda kitob o'qisa, u toliqib qoladi va diqqatini o'qishga jaib qila olmaydi. Bunday vaziyatlarda ozgina dam olish, 1–2 daqiqa bosqcha ishlarga chalg'ish yaxshи natija beradi.

Ko'rgazmali materiallar ta'lim jarayonida muhim ahamiyatiga ega. Illyustrativ materiallar darsning ko'rgazmaliligini oshiradi. Ko'rgazmali darslarda talabatarning tasavvur qilish, fikr-lash, xotira, diqqat kabi qobiliyatlarini tarbiyalash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu qibiliyatlar esa «Jadval», «Video», «Foto», «Rasm», «Chizma», «Sxema», «Grafik», «Matn», «Og'zaki bayon» kabi axborot elementlari orqali shakllanadi. Bu axborot elementlarning ta'rif, o'zaro bog'liqligi va taqqoslashlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Axborot elementi	Ta'rif	Oldingi elementga nishbatan kamchiliq	Oldingi elementga nishbatan afzalligi
Jarayon	Yaxlit tasavvur bo'лади, hamma sezgi organlari ishtirok etadi.		
Video-tasvir	Jarayondagi hodisalar ekrannda, ya'ni tekislikda aks ettiriladi	Ko'rish va eshitish-ishtirok etmaydi	Fantaziya, imitatsiya elementlарini qo'shish mumkin.
Foto	Obyekti haqida foto nusxalar orqali ma'lumot olinadi	Harakat va ovoz bo'lmaydi	Diqqatni jalaylati, tasvir elementlari qo'shiladi
Rasm	Fotodan farqi shuki, bunda tasvir inson tomonidan yoritiladi	Tasvir sifati ras-somming mahoratiga bog'liq	Ranglarni tanlash imkonini mayjud.
Chizma	Obyektlarning muhandislik tili bilan ifodalangan tasviri	Tasvir yo'qoladi. Obyektdagi soya va ranglar to'liq ifodalanmaydi	Fikrlash konsensiyasi kuchayadi. Masshtab vostasida aniqlashtirish mumkin.



3. Ko'pincha talabalar kitobdagi asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajrata olmaydilar. Ayrim kitoblarda asosiy ma'lumotlar to'q rang bilan chop etiladi, boshqalarida bu kuzatilmaydi. Adabiyotlardagi asosiy ma'lumotlarga qonunlar va ularning tafsifi, qoidalar, teoremlar; texnik uskuna, jihozlarning ishlash prinsipi hamda ishlash rejimlari haqidagi ma'lumotlar; jarayonlarni borishiga ta'sir etuvchi omillar haqida ma'lumotlar va hokazolar kiradi. Ikkinchisi darajali ma'lumotlarga esa: qonun, qoidalarini keltirib chiqarish, teoremaning isboti; texnik uskuna va jihozlarni ta'mirlash ishlari haqidagi ma'lumotlar, ta'sir etuvchi parametrlarning sifatlari, kattaliklari to'g'risida ma'lumotlar va hokazolar kiradi. Kitobdagi asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni aniqlashtirib olish uchun talaba shu ma'lumotlar berilgan joyga shartli belgilari qo'yib borishi mumkin. Asosiy ma'lumotlarni daftarga konspekt qilib olishi mumkin.

4. Talaba adabiyotlar bilan ishlaganda *umumiyyat* ma'lumotlardan xususiy ma'lumotlarni ajrata olishi lozim.

5. Adabiyotlar bilan ishlaganda, albatta, ma'lum rejim asosida o'qishga odatlanish kerak, bunda inson faoliyatga ko'nikish hosil qiladi. Har kuni bir vaqtida o'qishga ko'nikish hosil qila

Jadvalning davomi

Sxema	O'rganilayotgan obyekt har xil shakllar tarzida ifodakanadi	Obyektning ko'rinishi yo'qoladi, fantaziya yo'qoladi	Obyektg'a bog'liq bo'lgan rang-larni kritish mumkin, texnik fikrlash vujudga keladi
Grafik	Bunda o'rganilayotgan obyektg'a ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini ko'rish mumkin	Bitta jarayonni aks ettiradi, boshqa jarayonlar yo'qoladi, obyektning shakl ko'rinishi umuman yo'qoladi	Chiziqilar yordamida qonuniyat-larning ko'rgaz-maliligi ortadi, miqdoriy va o'chanuvchi ko'rsatkichlar qo'shiladi.
Jadval	Bir nechta grafiklar jamlanmasi, bir nechta pog'onalardan iborat bo'lgan keng ma'lumotlarni jamlab olgan	Uzukturlik, ko'rgazmalilik yo'qoladi, tasvir yo'qoladi.	Matematik fikrlash vujudga keladi
Mart	O'rganilayotgan obyekt haqidagi ma'lumotlar ma'rufalar yozma shaklda bayon etiladi	Chiziqli tasvir yo'qoladi, matematik fikrlash yo'qoladi	Izoh kirillishi mumkin. Diqqat kuchayadi. Analiz, sintez qilish qobiliyatlari kuchayadi.
Og'zaki bayon	Obyekt haqidagi ma'lumotlar ma'rufachi tomonidan og'zaki ravishda bayon etiladi	Yozuv yo'qoladi	Qonuniyatlar so'z bilan ifodalanadi, talaba uchun yengil yoki og'ir bo'lishi mumkin

IV bob. KIMYO VA OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASIGA OID FANIARNI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNDAN FOYDALANISH

4.1. Talabaning o'zlashtirish darajalari haqida tushuncha

Ma'lumki, **o'qitish** – bilim, ko'nikma va malakalarni ma'lum muddat ichida o'zlashtirish jarayonidir.

O'zlashtirish deganda, ta'llim jarayonida talabalar tomonidan ma'lum bir faoliyatni egallangan mahorat darajasi tushuniladi.

Ming yillar davomida o'zlashtirish darajasini baholashda o'qituvchining subyektiv fikri asosiy mezon bo'lib hisoblangan. O'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'quv maqsadlarini ishlab chiqish bo'yicha eng birinchi qadam B. Blum tomonidan amalga oshirilgan. 1956-yilda B. Blum «Ta'llim maqsadlari taksonomiysi: bilish sohasasi» nomli kitobini yozgan va bu kitobda oltita o'quv maqsadlarining moniyati ilmiy jihatdan ochib berilgan.

«Taksonomiya» tushunchasi narsalarning tabiiy bog'liqligi va xosiyatlariga ko'ra ko'p bosqichli (ierarxik) tuzilishi asosida tavsiflash va tizimlashtirishni anglatadi. B. Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi dunyodagi eng keng qo'llaniladigan taksonomiyalardandir.

B. Blumning bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiysi quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi:

1. Bilish.

Bilish kategoriysi eng soddha kategoriya bo'lib, obyekt hodisa, voqeа, jarayonlarning nomini bilish, ularga ta'rif berish bilan bog'liqdir.

2. Tushunish.

Tushunish kategoriysi narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini tushunish, og'zaki nutqni yozma nutqga o'tkazish, or-gangan bilimlarni o'z so'zi bilan gapirib berish, mustaqil ravishda misollar keltirish bilan bog'liq.

Shunday qilib, kimyoviy-tehnologik fikrlashni shakllantirishda muammolgi vaziyatlarni yaratish, adabiyotlar va illyustrativ materiallar bilan ishslash yaxshi samara beradi.

3. Usulular, qoidalar va umumiyyat tushunchalarni qo'llash.

Qo'llash kategoriyasi oldingi ikkita kategoriyaga nisbatan murakkabroq bo'lib, nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash bilan bog'liq.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch turdag'i maqsadga erishish uchun biz an'anaviy o'qitish shakli va usullaridan (ma'ruza, suhbatt, ko'rgazmali usullar, mashqlar, nazorat topshiriqlarini bajarish) foydalanishimiz mumkin. Chunki bu maqsadlar aniq nazarli bilim berish bilan bog'liq.

B. Blum taksonomiyasidagi qolgan uch kategoriya o'z mo'hiyatiga ko'ra murakkab bo'lib, ular talabalarning mustaqil fikr-lashini talab etadi.

4. Tahhil.

Analiz (tahhil kilish) kategoriyasi predmet, narsa va hodisalarni taqqoslash va shu asosida qandaydir bir xulosaga kelishni bildiradi.

5. Sintez.

Sintez kategoriyasi narsa, hodisa, jarayonlarning umumiyyatlarini topish, ularni klassifikatsiyasini yaratish, muammolar yechimini topish bilan bog'liq.

6. Baholash.

B. Blum taksonomiyasidagi eng murakkab kategoriya – baholash kategoriyasıdir. Bunda talaba o'tilgan mavzu bo'yicha narsa, hodisa va jarayonlarga baho berishi kerak bo'ladi.

Analiz, sintez va baholash kategoriyalaridagi o'quv maqsadlariga erishish uchun faktigina an'naviy usullardan foydalananish yetarli emas.

Ushbu kategoriyadagi maqsadlarga erishish uchun faol va interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki analiz, sintez va baholash kategoriyalarini ayman mustaqil faoliyatda rivojlanadi.

Quyida «**Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi**» fanning o'quv materiallari mazmun va mohiyati jihatidan chukur tahil qilinib, kognitiv sohaga tegishli o'quv maqsadlarining qaysi bir kategoriyasiga mos ekanligi haqidagi mulohazalar to'plandi.

Chunonchi, o'quv materiali mazmuni asosan umumiyyat tushunchalarni bayon etish, tayanch so'z va iboralar bo'yicha

atama hamda ta'riflarni keltirish, belgilarni qo'yish, qonun va qoidalarni ta'riflashga bag'ishlangan bo'lsa, ushbu ma'ruzani **bilish** kategoriyasi bilan bog'liqligi haqidada xulosalar chiqarildi.

Shu borada, agar ma'ruza mazmunida masalaning mohiyatini boshqa maqsadda ochib berish, olingen natijalardan foydalanimish va ularni tabbiq etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, uni **tushunish** kategoriyasiga bog'lash lozim deb topildi. Ma'ruzaning o'quv materiali o'z mazmuni jihatidan qoidalar va umumiyyat tushunchalar bilan ularni aniq vaziyat va konkret topshiriglarni hal qilishda qo'llash masalalariga bag'ishlangan bo'lsa, uni **qo'llash** kategoriyasi bilan bog'liq, deb topildi. Agarda ma'ruzaning o'quv materiali o'z mazmuni bilan turli xomashyolar, aniq oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish texnologiyasini qismlarga, bosqichlarga ajratgan holda ular o'rta-sidagi munosabatni **tahil qilishga**, xato-kamchiliklarni hamda tafovutlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, uni analiz kategoriyasi bilan bog'lash lozim, deb topildi.

O'tiladigan ma'ruzaning o'quv materiali mazmuni mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonini yaxlit qiyofasini yaratish, ozuqa mahsulotlarini resepturasni, shuningdek, texnologik jara-yondagi mayjud muammolarni hal etish rejasini tuzishga qaratilgan bo'lsa, uni **sintez** kategoriyasi bilan uyg'unlikda ekanligi haqida fikr yuritildi.

Agar ma'ruzaning o'quv materiali mazmuni mahsulot ishlab chiqarishda bir yoki bir necha turdag'i texnologik jarayonlarni taqqoslash, ularga **baho berish**, mahsulot sifatini davlat andozasasi talablariga javob berishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, uni baholash kategoriyasi bilan bog'liq, deb topildi.

Shu tarixa o'rganilayotgan fanning har bir moduliga tegishli ma'ruzalarni ularda berilayotgan o'quv materialining mazmu-nini tahil qilish asosida B. Blum taksonomiyasining kategoriyalarini bilan qanday munosabatda ekanligi haqida xulosa qilindi (jadvalga qarang).


«**Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi**» fanidan yig'ilgan ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda o'quvchilarga mashg'ulot davomida yetkaziladigan o'quv materiallарining mazmuni Blum taksonomiyasining bilim kategoriyalari bilan muvoqilik darajasi hamda o'qitish metodlarini tanlash mezonlarini e'tiborga olgan holda, darslarda qaysi o'qi-

tish metodlaridan foydalanish yaxshi samara berishi haqida xulosalar qilindi.

«Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi» fani o'quv materiallariini Blum taksonomiysi kategoriyaliga muvoqiqligi

Mazru mavzulari	Mazmuni	Qaysi bilim kategoriyasi bilan uyg'uligi aniqlangan
1. Xamir qorish. Xamir qorishining xamirning reologik xossalariiga ta'siri	Non tayyorlash jarayonining texnologik bos-qichilar, ya'ni xamirni qorish, yarimtayyor mahsulotini achish jarayoni, xamirni bo'lak-larga bo'lish jarayoni, xamirega shakl berish va tindirish jarayoni, pishirish jarayoni hamda sovitish va saqlash jarayonlari haqidagi sovutish va saqlash jarayonlari haqidagi sodir bo'lish ketma-ketligi va texnologik parametrlari haqida ma'lumotlar berildi.	Sintez, baholash, qisman bilish kategoriyalari
2. Big'ishda kechadigan jarayonlar. Xamirning yumshashi	Xamirning bij'ishi va yetilishi davomida kechadigan muhim kimyoviy va biologik jarayonlar, ularga ta'sir etuvchi omillar va ta'sir ko'rsatish jarayoni, xamirni yumshash jarayoni va yumshash usullari batfsil tarzda tahlil etilib, ushbu jarayonlarning fizikkimyoviy mohiyati ochib beriladi.	Tahlil, baholash, qisman tushunish kategoriyalari.
3. Bug'doy uni bilan xamir ishlab chiqarish retsepturasini tuzish	Xamir qorish usuli asosida ishlab chiqarish retsepturasini tuzish va uni hisoblash bo'yicha ko'nikmalar beriladi. Unda tegishli texnologik parametrlarni hisoblash retsepturasini tuzish metodikasi bayon qilindi.	Qo'llash, qisman bilish kategoriyalari
4. Xamir qorish usullari tavsiyi	Xamir qorishda qo'llaniladigan turli usullar, ulardagi texnologik jarayonlarni bosqichma-bosqich kechishni, afzalliklari va kam-chiliklari, ularni qaysi tayyor mahsulot olish uchun qo'llash bo'yicha tavsiyalar, ma'lumotlar berildi.	Qo'llash, baholash kategoriyalari

Keyingi yillarda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajalarini aniqlashni azallashirishda ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Ularning ichida V. Bespalkoning faoliyatni o'zlashtirish darajalari diqqatga sazovordir.



V. Bespalkoning sikricha, faoliyatni o'zlashtirish darajalarini to'rt guruhga bo'lindi: tanishuv, qayta tiklash, evristik, ijodiy.


Bu darajalarni Blum taksonomiya darajalariga taqqoslash mumkin. Blum taksonomiyasidagi bilish va tushunish kategoriyalari tanishuv, qo'llash kategoriyasi qayta tiklash, analiz, sinitez, baholash kategoriyalari evristik darajalariga mos keladi.

Blumdan farqli ravishda V. Bespalko ijodiy o'zlashtirish darajasini alohida ajratib ko'rsatgan. Hozirgi kunda aynan ijodiy o'zlashtirish darajasiga alohida e'tibor berilmoqda, chunki u innovasion ta'limgan texnologiyasining mazmun-mohiyati va maqsadiga hamohangdir. Jumladan, L.V. Golish tomonidan ta'limgan beruvchi va ta'limgan oluvchilar hamkoriy faoliyatini tashkilashdirish yo'li va o'quv faoliyatini natijalarini asosida ta'limgan metodlarini guruhlarga ajratilishi zaminida ham o'zlashtirish darajalarini yotadi.

Ushbu o'qitish metodlarining guruhi larga ajratilishi talabanining o'zlashtirish darajasiga mos ravishda taqsimlangan.

O'zlashtirishning birinchи darjasи o'quvchilikka oid daraja deb belgilangan. B. Blum taksonomiyasida bu daraja bilish va tushunish kategoriyalara mos keladi. O'quv materialini o'zlashtirishning birinchи darajasida talabalar faoliyati reproduktiv xarakterga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi axborot berishdan iborat bo'ladi. Talabardan axborotni qabul qilish, uni esda saqlab qolish, xatosiz qayta tiklash talab etiladi.

Bilim, ko'mikma va malakalarni o'zlashtirishning birinchи darajasiga erishish uchun asosan reprodiktiv o'qitish metodlari qo'llaniladi. Bularga o'qitish jarayonida an'anaviy tus olgan hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ko'rsatma berish, namoyish, ko'rsatish, videometod va boshqa metodlar kiradi. Bulardan tashqari «Klaster», «Sinkveyн», «T-jadval», «Konseptual jadval», «B/B/B» kabi faol va interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki ushbu noan'anaviy ta'limgan metodlari egallangan bilimlarni bir tizimga solishga, xotirada saqlashga, jarayon, hodisa va tushunchalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniqlashga yo'naltiradi.



O'zlashtirishning ikkinchi darjası tartiblikka oid (algoritm, namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatianish) daraja deb belgilangan. B. Blum taksonomiyasida bu daraja qo'llash va tahlil qilish kategoriyalariga mos tushadi. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning ikkinchi darjasida talabalar faoliyat reproduktivdan produktivga qarab o'zgarib boradi. Lekin asosiy faoliyat reproduktiv xarakterga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkilash-tirishdan iborat bo'ladi. Talabalar esa o'qituvchining rahbarligida ma'lum bir namuna bo'yicha faoliyatni amalga oshiradilar, o'r ganjan narsalarini o'xshash sharoitlarda sinab ko'ra oladilar.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning ikkinchi darjasiga erishish uchun asosan reproduktiv o'qitish metodlari qo'llaniladi. Bularga ham o'qitish jarayonida an'anaviy tus oлган kitob bilan ishlash, laboratoriya metodi, mashq, amaliy ish metodi va boshqa metodlar kiradi. Bulardan tashqari «Venn diagrammasi», «Rezyme», «Bumerang», «Tushunchalar tahlili», «Mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi», «SWOT tahlili» kabfaol va interfaol o'qitish metodlaridan foydalananish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu noan'anaviy ta'lim metodlari talabalar faolligini oshiradi, o'zlashtirilgan materialni tahlil qilishga, tegishli xulosalar chiqarishga, mustaqil fikr yuritishga undaydi.

O'zlashtirishning uchinchchi darjası ijodiy fikriochilikka oid (evristik harakatlarni tanlash) daraja deb belgilangan. B. Blum taksonomiyasida bu daraja sintez va baholash kategoriyalariga mos keladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning uchinchchi darjasida talabalar faoliyat produtiv xarakterga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltirishdan iborat bo'ladi. Talabalar esa ijodiy fikrlash harakatlari asosida aniq natjalarga erishish faoliyatini amalga oshiradilar: mustaqil tuzilgan reja bo'yicha mustaqil izlanadilar, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarni egallaydilar, yangi bilmlarni izlab topadilar, o'zlashtirilgan bilmlarni yangi sharoitlarda qo'llay oladilar.

Bu darajadagi o'zlashtirishga erishishni «Suhbat», «Bahs», «Aqliy hujum», «Ta'limi o'yin», «Pinbord», «Nima uchun?»,

«Qanday?», «Nilufar gul», «Baliq skeleti» kabi faol va interfaol o'qitish metodlari ta'minlaydi. Bu metodlar yordamida talabalar nostandart vaziyatlarini tahlil qilish, muammoli masalalarni vechish, mustaqil fikr yuritish va tanqidiy mulohazalar bildirish kabi ko'nikma hamda malakalariga ega bo'ladir.

O'quv materialini o'zlashtirishning to'rtinchchi darjası ijodiy fikrlashga oid (evristik harakatlarni tanlash) darajasideb belgilinchchi darjasida talabalar faoliyati ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchining vazifasi ta'lim oluvchilarga maslah-qiziqitradigan muammino yechimini izlashga harakat qiladi, tadbiqot obyekti va predictmetini topadi, tadbiqot farazi hamda va zifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini turzadi, tajribadan o'tkazadi, tajriba natijalarini asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi.

Bu darajadagi o'zlashtirishga erishilganda talabalar faoliyatini mustaqil tadbiqotchilik faoliyatini egallaydi. Ushbu darajaga erishish uchun yuqori darajadagi ijodkorlikka undovchi interfaf metoddardan «Keys-stadi» va «Loyiha texnologiyasi»ni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu metodlar asosida berilgan muammoni hal qilish jara-yonida talaba yuqori darajadagi mustaqillikni namoyish etadi, muammoring yechimini topishda turli yo'llarni izlab, eng maqbulini tanlash, uning ijobjiy hamda salbiy tomonlarini taqqoslash hamda to'g'ri xulosalar chiqarish ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda yuqorida ko'rsatilgan o'zlashtirish darajalariga erishish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo'llanilgan marasmini oshirish uchun zamin yaratadi. Quyida qo'llanilgan faol va interfaol metodlar bo'yicha to'plangan tajribalardan missollar keltiriladi.

4.2. 1-o'zlashtirish darajasiga oid interfaol o'qitish metodlari

«Klaster» metodi


«Klaster» metodi o'rgangan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan materiallarni umumlashtirish, tushunchalar o'rtasidagi aloqadorliklarni o'rnatish, olingen bilimlarni xotirada uzoq vaqt da-vomida saqlash imkoniyatini beradi. Bu metod yordamida fan bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar bir tizim sifatida shakllanadi, narsa, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi aloqadorliklar aniqlanadi, talabalar qiziqishlari ortadi, yangi g'oyalar vujudga keladi.

«Klaster» metodidan kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid tushunchalar, qomuniyatlar, texnologik jarayonlar, xomashyo materiallari, mahsulot turlari hamda texnologik jihozlarning mohiyatini ochish, ularni toifalash maqsadida foydalanish mumkin. O'qituvchi tomonidan tayyor holda taqdim etilgan «Klaster» talabalarga mavzu bo'yicha yangi ma'lumotlarni oson tarzda o'zlashtirishi uchun yordam beradi hamda katta hajmida o'quv materialinini bog'lam tarzida ixchamlashtirigan holda namoyish etish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster»dan ma'ruza va amaliy o'quv mashg'ulotlarining da'vat, tahlii va fikrash bosqichlarda foydalanish mumkin, chunonchi da'vat qismida talaba mavzu haqidagi nimalarni bishimi, fikrash bosqichida qanday yangi bilmlarni egallagani,ular qanday o'zlashtirilganligi, talabaning voqeasi yoki premet haqidagi bilimlarni qay darajada kengayganligini aniqlash hamda olingen bilimlarni bir tizimga keltirish, umumlashtirish maqsadida foydalaniлади.


«Klaster» metodi talabani mazuzaga taalluqli tushuncha va aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan ketma-ketlikda tarmoqlashga o'rgatadi.

«Slikdarining strukturiyaviy tuzilishi» mavzusiga tuzilgan «Klaster».







«Sabzavollar» soziغا түзгөлән «Klaster»



«Ozbek Chinnsiing rivojlantish tarixi» mavzusiga түзгөлән «Klaster»



«Non mahsuldar» soziqa tuzilgean «Klasteri»



«Mevlalarining turkumaniishi» ihorasiiga tuzilgean «Klasteri»

«Sinkveyн» metodi


«Sinkveyн» metodi o'quv materiali bo'yicha mustaqil fikr yuritishga o'rnatadi, o'zlashtirilgan o'quv materialini analiz va sintez qilish imkoninini beradi.

Bu metod orgali tababaning fikrlash qobiliyati samarali rivojlanadi. Chunki «Sinkveyн»ni tuzish uchun mavzu bo'yicha mayjud bilimlarni analiz va sintez qilishga to'g'ri keladi. Mu-kammal ishlab chiqilgan «Sinkveyн» mavzu yuzasidan bilimlar to'g'ri shakllanganligidan darak beradi. Bu metoddan yangi mavzuni o'rganishdan oldin va keyin foydalanish maqsadga muvofigdir. Yangi mavzudan oldin tuzilgan «Sinkveyн» va ma'lum bir yangi bilimlarni o'zlashtirilgandan keyin tuzilgan «Sinkveyн» namunalarini, odatda, bir-birdan ancha farq qiladi.


«Sinkveyн» metodi yordamida kimyo va oziq-ovqat texnologiyasi bilan bog'iq bo'lgan har qanday tushunchalar, qoldalar, jarayonlar, texnologik yechimlar, mahsulot turлari, texnologik parametrlar, uskuna hamda jihozlarning mazmuniga chuqur kirib borish, ularning mohiyatini ochish, puxta va mukammal o'zlashtirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini egallash maqsadida foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarda «Sinkveyн» metodini qo'llash texnologiyasi bir obyekt bo'yicha ko'p sonli sinkveyн namunalarini tuzish uchun imkoniyat yaratadi, ularda so'z va iboralar takror ishlatilmasa, talabaning fikrlash doirasi yanada kengayadi.

«Sinkveyн» metodidan foydalanish nisbatan qulaydir. Chunki u tayyorlarlik ko'rish va ijro uchun ham ko'p vaqtini talab etmaydi. Ushbu metodni yakkta tartibda va jamoaviv tarzda bajarish ham yaxshi natijalarga olib keladi. Shu sabab, ushbu metoddan barcha turdag'i mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.


«Dalil» turлariга tuzilgan «Sinkveyн» namunalarini



«Sirpanish» so'ziga tuzilgan «Sinkveyн» namunalari




«Slikatlarining struktura tuzlari» bo'yicha tuzilgan «Sinkveyн» namunalari




«Ikki komponentli sistemlар holat disgrammalarining qurilish elementlari» bo'yicha tuzilgan «Sinkveyn» namunalar

«Shisha» so'ziga tuzilgan «Sinkveyn» namunalar



«Shisha» so'ziga tuzilgan «Sinkveyn» namunalar



«Tunnelli pech» mavzusiga tuzilgan «Sinkveyn» namunalari

«Korroziya» so‘ziga tuzilgan «Sinkveyn» namunalari

1. Korroziya.
2. Kamyoviy, mexanik.
3. Metallarning xossalarni pasaytiradi.
4. Fastiqi muhit bilan o‘zaro ta sriashuv natijasida yuzaga keladi.
5. Reaksiya.

1. Korroziya.
2. Zarari, noxush.
3. Metallarning xossalarni o‘zgartiradi.
4. Uning tezligiga turli omillar ta sir ko‘rsatadi.
5. Yemirilish.

Korroziya

1. Korroziya.
2. Ichki, tashqi.
3. Nam havoda kuzatiladi.
4. Mahsulotlarni iflostanishiga sabab bo‘ladi.
5. Jarayon.

1. Korroziya.
2. Saitby, reaksiyon.
3. Qoplamalar yordamida cheklanadi.
4. Metalilar yuzzasini zarafashi mumkin.
5. Zang.



Tunnelli pech

1. Pech.
2. Tunnelli, kanalli.
3. Chinni olishta ishlataladi.
4. Uzunligi – 93–94 m, eni – 1,3–1,5 m, unga 50–56 ta vagonetta sig’adi.
5. Agregat.

1. Pech.
2. Tunnelli, tunli-tuman.
3. Uzun yo‘lakdan iborat.
4. Ichida vagonetkalar harakat qiladi.
5. Uskuna.

1. Pech.
2. Tunnelli, uzluksiz.
3. Olovbardoshlar olishta qo’llanadi.
4. Uzunligi – 120 m, eni – 3 m bo‘lib, unga 40 ta vagonetta sig’adi.
5. Qurilma.

«Plastmassa» soʻziga tuzilgan «Sinkveyn» namunalari



«Gisht» soʻziga tuzilgan «Slikveyn» namunalari

**«Don zaxirasi zararkunandalar» mazusiga tuzilgan
«Sinkveyн» namunalari**

«Qo'ng'izlar» so'ziga tuzilgan «Sinkveyн» namunalari

1. Zararkunandalar.
2. Ehlyotkor, turli tuman.
3. Jadal sur atda ko'payadi.
4. Makoni dala, ximon, omboriarda bo'itadi.
5. Yebtoymaslar.

1. Zararkunandalar.
2. Yashirin, zararlovchi.
3. Laboratoriya usulida aniqlanadi.
4. G'illaning oziqlik sifatini yo'qotadi.
5. Jonivorlar.

1. Zararkunandalar.
2. Oziqxao'r, ochofat.
3. Endosperma qismini yeydi.
4. Kermiruvchi tipdagi og'siz apparatiga ega.
5. Isiroqgar.

1. Qo'ng'izlar.
2. Xitnigan, qanoqli.
3. Unuchanlik darajasini pasaytiради.
4. Issiq joylarda to'planib oлади.
5. Muғombirilar.

Zararkunandalar


1. Qo'ng'izlar.
2. Abraviv, ta'siri.
3. To'rt bosqichda ko'payadi.
4. Endospermani xush ko'navchi hasharot hisoblanadi.
5. Maxluqjar

Qo'ng'izlar

1. Qo'ng'izlar.
2. Turli tuman, zararlovchi.
3. Donni iftosantirib yuboradi.
4. Mahsulotni o'yib, uning eg'irigini yo'qolishiiga sabab bo'itadi.
5. Sifatsizlantiruvchilar.

«Hamir» so‘ziga tuzilgan «Sinkvey» namunaları

«Bilishni xohlayman. Bilib oldim» metodi




Bu metod yordamida talabalar ma'ruza yoki amaliy mashg'ulot jarayonida o'rgangan yangi bilimlarini eski bilimlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu metod o'qituvchiga yangi mavzuni o'zlashtirishda aynan nimalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Ayniqsa, «Bilishni xohlayman» ustunimi to'ldirish orqali talabalar o'rganilayotgan narsa, hodisa va jara-yonlarga bo'lgan qiziqishlarini aks ettiradilar.


Ushbu metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida mavzuni talar-balar tomonidan qanchalik o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida foydalanish qulay hisoblanadi. Bunda talabalarga yakka tartibda ishlash uchun jadval ko'rinishidagi tarqatma materiallar beriladi va u dars davomida talabalar tomonidan to'ldirib bori-ladi. Bu metodning afzalligi shundaki, olingan ma'lumotlar o'qituvchiga mavzuni o'zlashtirilganligi haqidada ma'lumot bersa, talabada olgan bilimlatini yozma ravishda bayon etish, bir tizimga solish, ularni ahamiyatini anglash kabi ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Ushbu metoddan kimyo va oziq-ovgat texnologiyasiga oid


fanlarni o'qitish jarayonida ixtiyoriy mavzuni o'zlashtirish davrida foydalanish mungkin. Bunda talaba o'z fikr mulohazalarini yozma nuiq tarzida bayon etar ekan, o'zida mayjud bo'lgan bilimlarini xotiraga solishga, ularni analiz va sintez qilishga, ayrim darsda o'ilayotgan mavzuga diqqatini qaratishga, berilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini chuqr tushunishga, o'zida mayjud bo'lgan potensial bilimlarini samarali tarzda yuzaga chiqarishga, bo'lgan tizimlashtirilgan holda yozma ravishda bayon etish, o'z-larini tizimlashtirilgan holda yozma ravishda bayon etish, o'zini nazorat qilish, fikr-mulohazalarini to'g'ri va erkin bayon eta olish ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.




«Silikatlarining struktura turlari» mavzusiga tuzilgan B.B. Javdov



«Uch komponentli sistemalarining holat diagrameasi» mavzusiga tuzilgan B.B. Javdov




tuzlgean B.B. Javdali
«Keramika va olovbarodsh materiallar texnologiyasida quritish jarayoni» mavzusiga



tuzlgean B.B. Javdali
«Keramik materiallarning yugor dispers holdi» mavzusiga tuzlgean B.B. Javdali

«Xamit ettileruvchilar» mavzusiga tuzilgan B.B. jadvali



4.3. 2-o'zlashtirish darajasiga oid interfaol o'qitish metodlari

2-guruh interfaol metodlariga quyidagilar kiradi: «Venn diagrammasi», «Rezyume», «Tushunchalar tahlili».

«Venn diagrammasi» metodi


«Venn diagrammasi» mavzuning yoki asosiy tushunchalarning 2–3 va undan ortiq jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash, fargli jihatlarini ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladi.


Bu metod talabaga o'tilgan mayzularni yodga olishga, mantiqian fikrlab, mavzuga taalluqli bo'lgan obyekt, jarayon va hodisalarни taqqoslashga, ularni baholashga, ijobjiy va salbiy tomonlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Metodning maqsadi talabalarни dars jarayonida mantiqiy fikrlashga, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon etishga, yakka va kichik guruhlarda ishlashga, boshqalar fikrini hurmat qilishga o'rnatishdan iboratdir. Ushbu metoddan kimyo va oziq-ovqat texnologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli jarayonlar, texnologik usullar va yechimlarni, texnologik jihoz hamda uskunalarni bir-biriga solishtirish, ularning o'ziga xos tomonlarini va o'xshashliklarini aniqlash maqsadida foydalanish maqsadga muvoqdir. Ushbu metod talabaga mavzuni chuqur va puxta o'zlashtirilishi uchun yordam beradi hamda ularдан amaliy foydalanishda to'g'risini va samaraliroq 'ini tanlash ko'nikmalarini shakllanishi uchun zamin yaratadi, talabaga analiz, sintez, umumiashtirish usullari yordamida mayzuga chuqrir kirib borishi, uni puxta o'zlashtirish, solishtirilayotgan obyektlarning mazmun-mohiyatini anglash, maqbolini asosli ravishda tanlash ko'nikma'larini shakllantiradi.

Bu metoddan yangi mavzuning yakunida foydalanish maqsadga muvoqidir. «Venn diagrammasi»ni tuzish uchun ko'p vaqt kerakligini hisobga olgan holda, uni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash tavsija etiladi. Ma'ruza mashg'ulotlarda esa «Venn diagrammasi» vosita sifatida qo'llanilib, tayyor holda o'qituvchi tomonidan talabalarga taqdim etilishi mumkin. Maxsus fanlarni o'qitishda 3 tadan ortiq tushunchalarini taqoslash risbatan murakkabdir.

«Emperik tadqiqot usullari» mavzusiga tuzilgan Venn diagrammasi






«Ilmiy bilishning nazaryy poғ onalar» mavzusiga тузилган Venm diagrammasi




«Ilmiy bilishning nazaryy poғ onalar» mavzusiga тузилган Venm diagrammasi

«Koordinata topları» məzvusişa təzhibən Venn diagramması




«Kristall pənsarınlığı nüqsənləri» məzvusişa təzhibən Venn diagramması







«Chini va fayans buyumlarimiga tur» mavzusiga tuzilgan Venm diagrammasi



«Kimyoviy va elektrokimyoviy korrozija turari» mavzusiga tuzilgan Venm diagrammasi




«Portlandsement ishlab chigartsh» mavzusiga tuzilgen Venn diagrammasi




«Keramika va olvabardosh materiallari kuydritsh uchun tunnelli va konveyerli pechlar»

mavzusiga tuzilgen Venn diagrammasi



«Urug'U va danakki mevalar» mavzusiga tuzilgan Venm diagrammasi



«Elektro Pechalar» mavzusiga tuzilgan Venm diagrammasi

«Rezyume» metodi

Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, muammoli mavzularni o'rganish jarayonida ishlatalidi. Metodning afzallik tononi shundan iboratki, bunda bir vaqtning o'zida mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularning har biri atrof-licha muhokama qilinadi, ya'ni afzallik va kamchiliklari, foydali va zararli tononlari o'raniлади.

Metodning maqsadi talabalarни erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoada ishlashga, o'z fikrlarini to'g'ri bayon etishga, qarorlarni qabul qilishga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga qaratilgan.

Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid texnologik fanlarni o'qitish jarayonida ko'p hollarda aniq mahnisoluni ishlab chiqarishda mayjud bo'lgan texnologik usullar hamda yechimlar ha-qida ma'lumot beriladi, ularning ijobjiy tononlari va kamchiliklari tahlii etiladi. Ana shunday mazmunday darslarda «Rezyume» metodini qo'llash samarali natija beradi. Bir necha obyektlarni solishtirish hamda taqqoslash maqsadida talaba texnologik jarayonning mohiyatini chuqur anglashga, texnologik parametrlar qiymatini tahil qilishga, uskuna va jihozlarning tuzilishi, soddal-murakkabligi, tannarxi, mahsulot sifatiga ko'r-satadigan ta'siri yuzasidan fikr-mulohazalar qilishga majbur bo'ladи va mustaqil ravishda eng maqbul yechimni o'zi tanlaydi.

«Rezyume» metodiga oid jadval esa talabaga katta hajmda muhim ma'lumotlarni tushunarli tarzda bir yerga to'plash va undan kelgusi faoliyatida ham foydalanimish imkonini beradi.

«Rezyume» metodini barcha turdagи mashg'ulotlarda jahmoaviy tarzda, yakka tartibda, kichik guruhlarda qo'llash mumkin. Undan yakuniy baholash savollarini shaklantirashda ham foydalananish yaxshи samara beradi. Tajribalarning ko'rsatishicha, «Rezyume» metodi texnik va texnologik fanlarni o'qitishda eng sodda, shu bilan birga eng maqbul usul hisoblanadi. Talabalar uni osон tushunadi hamda qiziqish bilan bajaradi, ushbu metod o'qiturchidan avvaldan tayyorlarlik ko'rishni talab etmaydi va yuqori darajadagi natijani kafolatlaydigan metod hisoblanadi. Avvaldan tayyorlab olingan «Rezyume»ni o'qituvchi maveruza darslarida vosita sifatida qo'llasa ham bo'ladi.

Metalloji korroziyadan salash uchun dayasi kimyoysi qoplama ma'qulroq?

«Korrozija jarayoni» mavzuisinga tuzilgan «Rezyume»

Xulosasi: metalloji korroziyadan salash uchun yupqa pardall qoplama samaraliroq.

Afzalligi	Kamchiliklari	Afzalligi	Kamchiliklari	Afzalligi	Kamchiliklari
Yupqa pardall	Yupqa list ko'inishidagi	Futrovovali			
• Har qandiy murakkab shakkagi yuzaga	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Oddali texnoloji-ya	• Yuzaga bilan amal-giya bo'limesa,	• Muhoferza etib-chidamlari emas.	• Qoplama og'ir-atmosferadani qilmayadi.
• Afzalligi	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Yuzaga bilan amal-giya bo'limesa,	• Tashqi kuch mekanik uslubda	• Qoplama tashev-
• Kamchiliklari	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• May qoldadi.	• Ilyotgan yuzaga bilan yaxshi ilashadi.	• qilmayadi.
• Afzalligi	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Texnologik chegarasi yugor.	• Kimyoysi qulayda da ishllovchi hisoblanadi.	• Qoplama tashev-
• Kamchiliklari	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Kislotaqaga chiq-damli emas.	• Narxi azor.	• Ilyotgan yuzaga bilan yaxshi ilashadi.	• qilmayadi.
• Xamir qorish texnologik parametriari haqida ma’lumotlar berish		«Venn diagramasi», «Rezyume»

Diqqat qiling! Ushbu jadvalda keltirilgan ma’lumotlar qat’iy va o‘zgarmas emas. Ushbu ma’lumotlardan ijodiy foydalananeng eng asosiyi o‘zingiz tanlagan metodni asoslab bering.

1. Guruhda ishtirokchilar o‘rtasida dars loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo‘yicha vazifalar va faoliyat turilarini tasimlang.
2. Ish rejasini tuzing.

Loyihani bajarish bo‘yicha ish rejasi

Ishirokchilar F.I.Sh.	Vazifa, taoliyat turi	Ish mazmuni	Tayyor mahsulot turi	Bajarish muddati

- Axborot manbalarini aniqlang, axborotni yig'ing va unimatn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiyitashtiring (*Diqqat! Usibbu vazifani barcha guruh ishtirogchilarini bajaradi*).
- Loyihani Microsoft PowerPoint bo'yicha tayyorlash yorin nomasidan foydalanih, taqdimotga tayyorlang.
- Loyihani taqdimotida guruh a'zolari o'retasisidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayvorgarlik vaqtida uning qoidalariiga riyoqa qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.

Tavsiya etiladigan «Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi» modulidan ma'ruza darslari ishlammasi

Titul varag'i.

Annotatsiya.

Kirish (loyihaning dolzarbligi ochib beriladi). «Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi» moduliga oid ma'ruza darslarini o'tishda o'quv maqsadlarini to'g'ri ishlab chiqish va ularga mos ravishda metodlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu ta'lum samaradorligiga ta'sir etadigan eng asosiy omildir.

Ma'ruza ishlammasi (har bir reja bo'yicha tanlangan metodlar va ularning qo'llanilishi ochib beriladi). «Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi» moduliga tegishli bo'lgan ma'ruza mazvularini keltiramiz:

- 1-mavzu.** Xamir qorishning xamirning reologik xossalariiga ta'siri.
- 2-mavzu.** Bijg'ishda kechadigan jarayonlar. Xamir yumshashi.
- 3-mavzu.** Bug'doy uni uchun ishlab chiqarish retsepturasi tuzish.
- 4-mavzu.** Xamir qorish usullari tavisi.

Loyiha ishi to'g'risida hisobotning tuzilishi (1-mavzu bo'yicha misol):

- Titul varag'i (mavzuning nomi, bajargan talabalar ismi-sharifi, topshirgan sanasi).

2. Loyihaning dolzarbliji.
Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lum metodlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Mahoratlari o'qituvchi an'anavy ta'lum metodlardan tashqari faol va interfaol metodlardan ham foydalanishi kerak. Metodlarni to'g'ri tanlashda Blum taksonomiyasini tuzishda ish qanday ketma-ketlikda olib borildi, nomiyasi yordam beradi.

3. Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi muammo, loyiha maqsadi, yakuniy natija, foydalarnuychilar.

«Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi» moduliga oid «Xamir qorishning xamirning reologik xossalariiga ta'siri» mavzusi bo'yicha ma'ruza darsida innovation ta'lum texnologiyalaridan foydalanimish. 4. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting, ya'ni dars ishlammasini tuzishda ish qanday ketma-ketlikda olib borildi, kimlar qanday vazifalarni bajarildilar.

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi

Ishlirokchilar F.I.	Vazifa, faoliyat turi	Ish mazmuni	Taylor mahsulot turi	Bajarish muddati
1. Alimov I.	1. O'qitish metodlari haqida ma'junot to'plash.	1. Keng tarqalgan an'-anavy va interfaol o'qitish metodlari haqida ma'lumot yig'ib, ulurni tahsil etish.	1. Metodlar- ning turkumlari niisli jadval ko'rinishida taqdim etiladi.	1 hafta
2. Botirov M.	2. O'quv materialini mazmuni va mohiyati jihatidan tahsil etib, Blum taksonomiyasi kategoriyalariga mos- lashirish.	2. O'quv materialini mazmuni va mohiyati jihatidan tahsil etib, Blum taksonomiyasi kategoriyalariga mos- lashirish.	2. Tahsil materiali taqdim etiladi.	1 hafta
3. Jalolov K.	3. Blum taksono- miyasi asosida va boshq. va	3. O'quv materiali maz- muni va Blum taksono- miyasi asosida ma'ruza darslarining xususiyat- larini e'tiborga o'gan metodlарini tanlash.	3. Ma'ruza darsida qo'llaniladigan o'qitish metodlari taklif etiladi.	1 hafta

5. Bajaruvchilarni ko'rsatgan holda ma'lumotnomma tuzi-jishining qisqa bayoni.

Alimov I. va boshq. ma'lumotnomasi. Bugungi kunda faol va interfaol metodlarning 100 dan ortiq turлari mayjud. Lekin ma'ruza darslari katta hajmdagi o'quv materialini qisqa vaqt ichida bayon qilishga qaratilganligi, unda aksariyat hollarda nazariy ma'lumotlar keltirilishi sababli barcha metodlardan foydalaniшning imkoniyati yo'q. Ma'ruza darslariда o'qitishning an'anaviy metodlaridan mutloq woz kechib bo'lmaydi. Ularni saqlab qolgan holda darsga ajratilgan qisqa vaqt ichida interfaol samarali o'qish metodlaridan va ularning elementlaridan foydalaniш yaxshidamalga oshirshda yuzaga keladigan muammolar, talab etiladigan sharoitlar va unga surʼaf etiladigan vaqt, metodni qo'llash usullari va yo'llarini e'tiborga olish katta ahamiyatga ega. Metodlarni tanlashda o'quvchilarning o'zlashishlarning darajalariga alohida etibor qaratish lozim.

«Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi» moduliga oid «Xamir qorish. Xamir qorishning xamirning reologik xossalariга ta'siri» mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining asosiy maqsadi talabalarga xamir qorish jarayoni bo'lib, yicha nazariy bilimlarni berish hisoblanadi. Bunda non tayyorlash jarayonining texnologik bosqichlari, ya'mi xamirni qorish, yaxyor mahsulotni achish jarayoni, xamirni bo'saklarga bo'tish jarayoni, xamirga shakl berish va tindirish jarayoni, pishirish jarayoni hamda sovutish va saqlash jarayonlari haqida, ularni so'dir bo'tish ketma-ketligi va texnologik parametrлari haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu o'quv materiallarini Blum taksonomiyasi kategoriyalari asosida tahlil qilsak, ular aksariyat holda sintez kategoriyasiga mos keladi.

Sintez kategoriyasiga asoslangan o'quv materiallарini bayon etishda yuqori samara beradigan metodlar qatorida «Nima uchun?» va «Qanday?» metodlарini tahlil qilamiz. «Nima uchun?» metodi muammoli ta'lim metodlaridan biri bo'lib, muammoni hal etish yo'llarini qidirib topishga undaydi, talabaning tanqidiy tafsakkurini rivjalantiradi. «Nima uchun?» metodi turli muammoli masala va vaziyatlar yechimini to'g'ri topishga o'rgaradi, talabalarlarda muammoning mohiyatini amiglash bo'yicha ko'nikma va

malakalarini rivjalantiradi. Bu metod yordamida talabalar non tayyorlash texnologiyasi jarayonining bosqichlarini chugur tahlil qiladilar, ularni amalga oshirish sabab va oqibatlарini o'rganadilar. Bu metod produktiv o'quv faoliyati hisoblanib, kichik surʼularda amalga oshirisa, yaxshi samara beradi. Bu metodning ko'p vaqt talab eganligini nazarga oлgan holda, uni ma'ruza mashg'ulotlariда tayyor grafik organayzer ko'rinishida qo'llansa, maqсадga munofiq bo'sadi. Buning uchun o'quv materiali o'qituvchi tononidan oldindan tayyorlanadi va darsda taqdим etiladi. «Qanday?» metodi ham muammoli ta'lim metodlari qatoriga kiradi, talabalarga narsa, hodisa va jarayonlar o'rasidagi aloqadorliklari topishga, ularni bir-biri bilan taqoslashga yordam beradi. «Qanday?» savoliga javob berish uchun talaba o'zida mayjud bo'lgan barcha bilimlarini ishlatadi. Bu metod «Nima uchun?» metodidan keyin qo'llanisa, yaxshi samara beradi. Ushbu metodlar yordamida non tayyorlash jarayoni texnologik bosqichlari ketma-ketligi, har bir bosqichning nima uchun va qanday amalga oshirish sabablarini va natijalari chugur tahlil etiladi, u yerda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar aniqlanib, ularni barotaraf etish yo'llari izlanadi va maqbuli tanlanadi. Bunda «Nima uchun?» metodi texnologik bosqichlari amalga oshirish ketma-ketligi va sabablarini aniqlashga qaratilsa, «Qanday?» metodi uni amalga oshirish yo'llari, u yerda kechadigan jarayonlarni ilmiy va texnologik jihatdan asoslashga yo'naltiriladi. Natijada o'ilayotgan modulga oid o'quv materiallari samarali takrorlanadi va mustahkamlanadi. Bu metod ham kichik guruhlarda tashkil etilishi lozim. Bu metod o'ilayotgan ma'ruza materialining mazmun va mohiyatini ochib berishda yugori samara berishini va «Nima uchun?» grafik organayzerini tahlil qilinganligini e'tiborga oлgan holda, uni jamoaviy tarzda doskada ham qo'llash mumkin.

6. Loyha sifatini, loyha ustida ishslash jarayonini: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklari va uni yengib o'tish yo'llarini baholash (Talabalar tomonidan loyihani bajarish jarayonida ma'ulomtlarni yig'ish, adabiyotlarni tahlil qilish, bosqqa tillardan taryim qilish, ma'ruza darslarining o'ziga xos muammoli xususiyatlarga ega ekanligiga doir qiyinchiliklар bayon etiladi. Talabalar o'zlarini ishlariga baho beradilar).

1.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Vizual taqdîmnot tuzilishi:

1. Loyiha mavzusi. Bajaruvchilar.
2. Loyihani dolzarbligi
3. Loyiha doirasida o‘z yechimini topuvchi, muammo, loyiha maqsadi, yakuniy natija, foydalanuvchilar.
4. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.
5. Loyiha mahsuli: ma’lumotnomasi:
 - ◆ titul varag‘i;
 - ◆ annotatsiya;
 - ◆ mundarija.
6. Loyiha sifatini, loyiha ustida ishslash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o’tish yo’llarini boshlash.

O‘quv soati – 4 soat	Talabalar soni: 10–15 ta
O‘quv mashg‘ulot shakli	Axborotli ma’ruza
Ma’ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Silikatlarning tuzilishiha hoziri zamони нигоҳи. 2. Silikatlardagi qattiq eritmalar. 3. Qattiq eritmalarning turlari. <p>Izomorfizm.</p>
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	Talabalarni silikatlarning tuzilishi haqidagi zamонавий talqinlar bilan tanishtirish, silikatlardagi qattiq eritmalar, ularning turlari va izomorfizm hodisasi bo‘yicha nazariy bilimlarni berish.
Pedagogik vazifalar:	<p>O‘quv faoliyatni natijalari:</p> <p>Silikatlarning tuzilishiha hozirgi zamони нигоҳи haqida gapirib beradi.</p> <p>Silikatlardagi qattiq eritmalarni biladi.</p> <p>Silikatlarning tuzilishi bo‘yicha zamонавий talqinlarni biladi.</p> <p>Qattiq eritmalarning turlarini va izomorfizm hodisasini biladi.</p> <p>Qattiq eritmalarning turlari va izomorfizm hodisasini izohlab beradi.</p> <p>O‘qitish vostitalari.</p> <p>O‘qitish metodlari.</p> <p>O‘qitish shakllari.</p> <p>O‘qitish sharoiti.</p> <p>Monitoring va baholash.</p>

Baholash mezonini va ko‘rsatkichlari

- Guruhi loyiha quyidagilar baholanaadi:*
- ◆ loyiha mahsuli – dars ishlanmasi (eng yuqori 20 ball);
 - ◆ loyiha hisoboti (eng yuqori 10 ball);
 - ◆ loyiha taqdimoti (eng yuqori 10 ball).

4.6. Har xil shakldagi mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasi

Ma’ruza

«Keramika va olovbardosh materiallarning fizik kimyosi» fani dan axborotli ma’ruza namunasasi.

2-mavzu	Keramika va olovbardosh materiallarning kristall holatlari
---------	--

1.2. «Keramika va olovbardosh materiallarning kristall holati» mavzusining texnologik xaritasi

O'tilgan mavzu bo'yicha bilmalarni mustahkamlash uchun savollar

1-ilova

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining maznumi	Tinglovchi faoliyatining maznumi
1-bosqich. Mavzuga kirish (15 daq.)	1.1. Talabalarini mayzuning nomlanishi, maqsadi va kutiladigan naijalar bilan tanishitiradi. 1.2. O'tilgan mavzu bo'yicha bilmalarni mustahkamlash uchun blis-soroy o'tkazadi (1-ilova).	Tinglaydilar Savollarga javob beradilar
2 -bosqich. Asosiy qism (130 daq.)	2.1. Ma'ruba rejasini bilan tanishitiradi (2-ilova). 2.2. Silikatlarning tuzilishiga hozirgi zamон nigohi haqida gapirib beradi (3-ilova). 2.3. Mayda va yirik kationli silikatning struktura elementlariga oid rasmiyi namoyish qiladi (4-ilova). 2.4. V.L. Bregg ta'limotining molniyatini chuquiroq ochish maqsadida tayyor holdagi «Baliq skeleti» asosidagi topshirigini tahlili qilishni taysiya etadi (5-ilova). 2.4. Silikatlardagi qattiq eritmalar bilan tanishitiradi (6-ilova). 2.5. Qattiq eritmalarning turlari va izomorfizmni izohlab beradi (7-ilova).	Rejani yozib oladilar Tinglaydilar va asosiy ma'lumotlarni konspekt daftarlariiga yozib oladilar Silikatning struktura elementlariga oid rasmiyi chizib oladilar «Baliq skeleti» grafik organayazzeri bo'yicha tayyor materialni jamoaviy tarzda tahlil etadilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (15 daq.)	2.6. Silikatlardagi qattiq eritmalarning turiliga doir topshiriqni «Venn diagrammasi» yordamida bajarishimi takif etadi (8-ilova). 2.7. Izomorfizm so'ziga «Klasterni takif qiladi (9-ilova). 3.1. Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun blits-so'rov o'tkazadi (10-ilova). 3.2. Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini bilan tanishitiradi (11-ilova).	Tinglaydilar va asosiy ma'lumotlarni konspekt daftarlariiga yozib oladilar. Doskada «Venn diagrammasi» va «Klasterni takif qilishni bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun blits-so'rov o'tkazadi (10-ilova). Adabiyotlar ro'yxatini yozib oladilar.

1-ilova

- «Keramika va olovbardosh materiallarni fizik kimyosi» fanning maqsadi va vazifalari.
- Kimyoviy bog'lar haqida umumiyligi ma'lumotlarni keltiring.
- Kremniyning qanday modifikatsiyalari mavjud?
- Si—O va Si—O—Si bog'larining mohiyatini ochib bering.
- Silikatlar tarkibiga kirgan metall atomlari kislordor atomi bilan qanday bog'lar orqali bog'lanadi?
- Qiyin suyuqlanadigan metall oksidlarida Me—O bog'i haqida ma'lumot bering.
- Boridlar va karbidlardagi kimyoviy bog'lar haqida ma'lumot bering.
- Nitridlar va silitsidlardagi kimyoviy bog'larining tabiatini qanday?

2-ilova

Ma'ruba rejasini

- Tuzilishiga hozirgi zamон nigohi.
- Silikatlardagi qattiq eritmalar.
- Qattiq eritmalarning turlari. Izomorfizm.

3-ilova

Silikatlarning tuzilishiga hozirgi zamон nigohi

- Silikatlarning tuzilishini o'rganishning birinchi bosqichi V.L. Bregning nomi bilan bog'liq. 50-yillarning bosqichi A.V. Belov va uning maktabi tomonidan yangi zanjir, tas-shida va boshqa motivlar toplilib, ularning asosida yolg'iz tetraedlar emas, balki diortogruppalar yotishi aniqlangan.
- V.L. Bregg o'zining tadqiqotlarini asosan Mg^{2+} , Al^{3+} va ularning o'rinni bosuvchi Fe^{2+} , Fe^{3+} kationli silikatlar bilan olib borgan. Bu kationlarning silikat strukturalaridagi koordinatsiya sonlari 6 ga tengdir. $[SiO_4]^{4-}$ tetrædrilari qirrasining uzunligi (Mg , Al)li oktaedr qirrasining uzunligiga yaqindir. Shuning uchun yer qobig'ining Mg^{2+} , Al^{3+} , Fe^{2+} silikatlarini bo'lmish asosiy to'q rangli minerallari O^{2-} , (OH^-) , F^- ionlari

zich taxlangan bo'lib, ularning oktaedrik bo'shilqulari Mg^{2+} yoki Al^{3+} bilan to'lgan.

N.V. Belov yirik kationli (Na^+ , Ca^{2+} va sh.k.) silikatlarni o'rgangan. Shu kationlar asosida hosil bo'lgan oktaedrlarning o'lchamlari yolg'iz tetraedrlar qurrasining o'lchamiga to'g'ri kelmaydi va bu holda diortogruppa ya'ni $[Si_2O_7]^{6-}$ strukturaning asosiy kremniy kislorodli birligi bo'lib xizmat qiladi.

Diortogruppa ishtirokida tuzilgan zanjirlarga vollastonitli va rodonitli zanjirlar misol bo'la oladilar. Vollastonitlarda biqini bilan terilgan oktaedrlardan tashkil topgan cheksiz ustunlar strukturaning asosini hosil qiladi. Bunda har ikki oktaedrlardan biri birdagina diortogruppaning ikkala tetraedri bilan ulanadi. Lekin, diortogruppaning balandligi Ca-oktaedri qirrasining uzunligidan biroz katta bo'lganligi sababli, diortogruppaning shakli buzildi, u cho'zilib, Ca-oktaedrlarning o'lchamiga yakinsa boradi. Oktaedrlarning qarama-qarshi qirrasi esa cho'zilib, 2 ta diortogruppani bir-biri bilan faqat birgina ortogruppa $[SiO_4]^{4-}$ orgali bog'lanishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Rodonit zanjirida esa, Ca va Mg-oktaedrlarning birikishida qaytariluvchi elementlar bo'lib, 2 ta diortogruppa va bitta ortogruppa xizmat qiladi. Struktura tuzilishi yanada murakkablashib, 2 ta vollastonit zanjirining qo'shilishidan hosil bo'igan ksonotitli tasmalardan farqli ravishda oltita emas, balki saktsma amfibol tasmalardan tuziladi.

Uning radikali $[Si_6O_{17}]^{10-}$ dan iborat. Ksonotitli tasmalar ko'pgina kalsiyli gidrosilikatlar tuzilishining asosini tashkil etadi (ksonotit, foshagit, gillebrandit, tobermorit) va strukturaga mustaqil radikallar yoki kondensatsiyalangan qavatlar holida kiradilar. Ushbu gidrosilikatlar sementning gidratlanishi va qotishda muhim rol o'yinaydilar.

Yugori temperatura sharoitida tasmalar va qavatlarning uzilishi ro'y beradi, ko'pgina gidrosilikatlar vollastonitga aylanadi.


Qavat-qavatlari silikatlarda esa amfibol tasmalardan tuzilgan oltiburchakli halqalar asosidagi to'rlardan (talk, slyuda, kaolinit) tashqari ksonotit va undan ham murakkab tasmalarning kontentsatsiyalani shidan hosil bo'lgan to'rlar ham vujudga keladi. Ularning tuzilishida ksonotitli tasmalardagi kabi diortogruppa $[Si_2O_7]^{6-}$ yaqqol namoyon bo'ladi. Diortogruppalarni yana tar-

kibida yirik kationlari bo'lgan sinchli silikatlarda hamda ba'zi bir halqali silikatlarda ham kuzatish mumkin.

Bellovning xulosalariga ko'ra, silikat strukturalarining tuzilishi asosiy rolini kation mativvari o'ynaydi, kremniy kislorodli radikallar esa ularga moslashadilar, xolos. Silikat strukturalarida kationni o'rabb turgan kislorod atomlari orasidagi joyni kremniyning mayda ionlari egallaydi. Bunda har bir kremniy atomi 6 ta qo'shami tetaedr bo'shilg'idan birini egallaydi, chunki Poling qoidasiga ko'ra tetaedrlarda umumiy qirralarning bo'lishi mumkin emas. Kremniyning atomi bir tetaedrdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi mumkin, bu esa kremniy kislorodli radikallarni kristall strukturaning asosiy motivlariga moslashuvidan darak beradi. Agarda asosiy kationlarning o'lchamlari o'racha bo'lsa, tuzilish radikali an'anaviy tetraedrlar asosida boradi, agarda kationlar ancha yirik bo'lsa, unda kremniy kislorodli radikal diortogrupplardan tashkil topadi.

Biegning silikatlar kristallkimyosi bo'yicha an'anaviy ta'llimotlari hozig'i kunda kristallkimyoning faqat birinchi bobি deb tan olansa, uning ikkinchi bobи sifatida N.V. Belov tomonidan ilgari surilgan yirik kationli silikatlarning tuzilishi haqidagi zamoniaviy dunyoqarashlar qabul qilingan.

4-ilova



1-rasm. Mayda va yirik kationli silikatlarning struktura elementlari:
1 – ortogruppa; 2 – mayda kation atrofidagi oktaedr;

3 – yirik kation atrofidagi oktaedr. a – vollastonit zanjiri, b – rodonit zanjiri.

Silikatardagi qattiq eritmalar

Qattiq eritmalar deb, ikkita va undan ortiq komponentlar dan tashkil topgan va o'zgaruvchan tarkibga ega bo'lgan bir jinsli tizimlarga ayliladi. Qattiq eritmalar kimyoviy birikmalar dan shunisi bilan farq qildiki, kimyoviy birikmalarning kristall panjarsida atomlar ma'lum bir qonun asosida joylashsalar, qattiq eritmalarda bir-birini almashayotgan atomlar o'zaro tartibsiz ravishda joylashadi. Kimyoviy birikmalarning tarkibi o'zgarmas bo'sha, qattiq eritmalarning tarkibi keng miyosda o'zgaruvchan bo'ladi. Qattiq eritmalar 3 turda bo'ladi:

1. Kristall panjaranning tugunida joylashgan bir komponentning atomlari (ionlari) 2-komponentring atomlari (ionlari) bilan almashinishi natijasida almashinish qattiq eritmasi hosil bo'ladi.


2. Biror-bir moddaning atomlari (ionlari) boshqa bir mod daning kristall panjarasidagi tugunlararo maydoniga kirib olsalar, suqilib kirib olish qattiq eritmasi hosil bo'ladi.

3. Kristall panjarada bir yoki ikkala komponentning atom (ionlari) joylashib turadigan ba'zi bir o'rinalar bo'sh qolsa, ayrisht qattik eritmasi hosil bo'ladi.

Qattiq eritmalarining turlari. Izomorfizm.

Almashinish qattiq eritmalar.

Almashinish qattiq eritmalarida bir komponentning zarra-chalari (atom, ionlari) kristall panjaraning tugunlarida joylash-gan boshqa komponentning zarrachalari (atom, ionlari) bilan statistik usulda almashadilar. Almashinish qattiq eritmalarini birinchi jinsli qattiq eritmalar deb ataladi. Izomorfizm deb atom, ion va molekulalarni kristall strukturalarda o'zgaruvchan tarkibga ega bo'lgan gomogen faza hosil qilib, almashinish qobiliyatiga ayliladi. Agarda bir atomning ikkinchi atom bilan



«Balg'ig skeleti» metodi

almashinishi ixtiyoriy miqdorda ro'y bera, uni mukammal yoki to'liq izomorfizm deb, agar chekli miqdorda ro'y bo'lsa, mukammal bo'lmasagan izomorfizm deb ataladi. Agarda strukturada B atomlari A atomlarining ko'p bo'lmasagan soniga almashsa, B atomlari izomorf aralashmalar yoki izomorf qoshimchalar deb ataladi. A atomlarining ko'pchiligi B atomlariga almashgan holda aralash kristallar yoki qattiq eritmalar hosil bo'ladi. Ba'zi bir hollarda, yuqori harorat sharoitida ikkita birikma bir-biri bilan qattiq eritmalarning uzluksiz qatorini hosil qildi, oddiy haroratda esa ular parchalanib ketadi. Bunday holat natirli va kaliyli dala shpatlari (albit va ortoklaz) orasida kuzatilib, yuqori haroratda ular qattiq eritmani (anortoklazni) hosil qildilar, past haroratda esa ushbu qattiq eritma har bir komponenntning mayda kristallariga parchalanib ketadi.

Izomorfizmning sodir bo'lishi uchun birikmalardagi atomlarning koordinatsion soni bir xil bo'lishi shart. Kovalent bog'li birikmalarda esa bog'ning konfiguratsiyasi o'xshash bo'lishi kerak. Bundan tashqari, qo'shimcha shartlar qatoriga almashyoqigan ionlar o'chamidagi yaqinlik, bir xil qutblanuvchanlik va elektron qobiqlarining bir xil tuzilishi kiradi. Mukammal izomorfizmning borishi uchun assosiy va qo'shilayotgan komponentlarning ion radiuslari orasidagi farq 15 %dan oshmasligi kerak. Aks holda almashinish to'liq bo'lmay qoldi, yoki yuqori harorat sharoitidagina ro'y beradi. M: natriy va kalsiy ionlarining radiusi bir-biriga yaqin bo'llib, 0,098 va 0,104 nm ga tengdir, shu sababdan ular qattiq eritmalarning uzluksiz qatorini hosil qildilar. Natriy va kalsiy ionlarning radiuslari orasidagi farq 15 %dan oshadi (0,098 va 0,133 nm), shunga ko'ra, ular qattiq eritmalarни faqat yuqori harorat sharoitida hosil qildilar, oddiy temperaturada esa ular parchalanib ketadi. Ion radiuslari bir-biriga yaqin bo'litsiga qaramay, elektron qobiq'ining tuzilishi har xil bo'lgan ionlar orasida izomorfizm hodisasi sodir bo'lmasdi. M: Na⁺ va Cu⁺ ionlarning ion radiuslari bir xil, lekin elektron qobiq'ining tuzilishi Na⁺ da s² p⁶, Cu⁺ da s² p⁶ d¹⁰ shaklida namoyon bo'ladi, shu sababdan, mis hech qachon

natriyini almashmaydi. Silikatlarda barcha haroratlardagi mukammal izomorfizm kation radiuslari orasidagi farq 0 dan 4–8 %gacha bo'lgan hollarda uchraydi (masalan, olivinlardagi Fe²⁺ → Mg²⁺ almashinishlar), o'rta va yuqori haroratlardagi izomorfizm – ushbu farq 4–8 dan 10–15 %gacha bo'lgan hollarda (granatlardagi Mg²⁺ → Ca²⁺ almashinishlar), mukammal bo'lmasagan izomorfizm – bu farq 15 dan 25–30 %gacha bo'lgan hollarda (evdialittdagi Zr⁴⁺ → Ti⁴⁺ almashinishlar) va o'ta mu-kammal bo'lmasagan izomorfizm – farq 30 %dan katta bo'lgan hollarda (Ba²⁺ → Mg²⁺, Ti⁴⁺ → Si⁴⁺) uchraydi.

Almashinish qattiq eritmalarini hosil bo'lishiha atomlarning absolyut o'chammlaridan tashqari elementar yacheylekalarning tuzilishi va o'chammlarida ham o'xshashlik bo'lishi kerak. M: od-diy birikmalarda (LiCl) Na⁺ ioni Li⁺ ionini almasha olmaydi, chunki ularning radius o'chammlarida (Na⁺ = 0,098 nm, Li⁺ = 0,068 nm) katta farq bor, bu farq oddiy birikmlarning elementar yacheyleka o'chamiga katta ta'sir ko'rsatadi. Lekin, ushbu kationlар murakkab birikmalarda (masalan, LiMnPO₄ va NaMnPO₄) ma'lum bir chegarada bir-birini almasha oladi, chunki bunda elementar yacheyleka o'chamining o'zgarishi nisbatan katta bo'lmaydi. Qutblanish xususiyati bir-biridan jiddiy farqlanadigan yaqin o'chamli ionlar ham keng ravishda bir-birini almasha olmaydi, masalan, K⁺ bilan Pb²⁺ va boshqalar. Kuchli kovalent bog'iga ega bo'lgan birikmalarda valent bog'lar konfiguratsiyasi bir-biriga mos tushmasa, izomorfizmning kechishi juda qiyinlashadi. Shu sababdan, bir-birini ion bog'lar nishli birikmalarda almasha oladigan kationlar (masalan, karbonatdagi Zn²⁺ va Fe²⁺) kovalent bog'lanishli birikmalarda izomorf ravishda almashina olmaydilar yoki fakat bir yo'naliish bo'ylab almashadilar (ZnS dagi Fe²⁺ Zn²⁺ ni almashmaydi). Qattiq eritmalarini hosil bo'lish shartidan yana biri shundan iboratki, izomorf almashti shinishlar jarayonida panjaraning elektroneytalligi saqlanib qolishi kerak.

Izomorfizmning izovalent va geterovalent turlari mavjud.

Izovalent izomorfizmda bir xil zaryadga ega ionlar almashadi. M: olivnillardagi Mg^{2+} ning Fe^{2+} ga almashinishi misol bo'la oladi. Geterovalent izomorfizmda esa har xil zaryadga ega ionlar almashadi. M: aluminosilikatardagi Si^{4+} ni B^{3+} bilan almashinini, Na^+ ning Ca^{2+} ga, Mg^{2+} ning Al^{3+} ga almashinishi geterovalent izomorfizm turiga kiradi. Bunda musbat zaryadlar sonining yig'indisi manfiy zaryadlar sonining yig'indisisiga teng bo'lishi kerak. Si^{4+} va Al^{3+} almashinishi radikalda manfiy zaradlar sonini bitraga oshib ketishiga olib keladi: $([SiO_4]^{4-}, [AlO_4]^{5-})$ ortiqcha zaryadni qoplanishi uchun boshqa kationlar orasida ham almashuv ro'y beradi: M: plagioklazlarda, ya'ni albit $Na[AlSi_3O_8]$ va anortit $Ca[Al_2Si_2O_8]$ asosida hosil bo'lgan qattiq eritmalarida bir vaqtning o'zida Na^+ va Si^{4+} lar Ca^{2+} va Al^{3+} ga almashadi. Almashuvchi ionlar zaryadlarining yig'indisi:

$$Na^+ + Si^{4+} \rightarrow Ca^{2+} + Al^{3+} \rightarrow$$

Katta bo'shiqlarga ega bo'lgan strukturalarda, masalan, seolitlarda ikki zaryadli ion ikkita bir zaryadli ionga almashinishi mumkin:

$$Ca^{2+} \rightarrow 2Na^+ \rightarrow$$

Silikatlarda ko'p uchraydigan o'zaro almashuvchi ion juftlariغا qo'yidagilar kiradi:

$$Na^+ + Si^{4+} \rightarrow Ca^{2+} + Al^{3+}$$

$$Ca^{2+} + Al^{3+} \rightarrow Mg^{2+} + Ce^{3+}$$

$$2Ca^{2+} \rightarrow Na^+ + Ce^{3+}$$

$$Li^+ + Al^{3+} \rightarrow 2Ca^{2+}$$

$$Li^+ + Al^{3+} \rightarrow 2Mg^{2+}$$

$$2Li^+ + Si^{4+} \rightarrow 3Fe^{2+}$$

Qattiq eritmalarini hosil bo'lish davrida elektronetylallikning saqlab qolinishi asosiy modda panjara sida vakansiyalarning yuzaga kelishi hisobiga ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan shpinelda ($MgO \cdot Al_2O_3$) Al_2O_3 ning qattiq eritmasi hosil bo'lganida, uchta Mg^{2+} kationi ikkita Al^{3+} kationi bilan almashadi, panjaraning bitta kationli tuguni esa bo'sh qoladi:

$$3Mg^{2+} \rightarrow 2Al^{3+} + \square Mg$$

Bu yerda, $\square Mg^-$ magniy kationiga tegishli bo'lgan vaksansiyali

tugun. Ko'pgina qavat-qavatlari tupoq minerallariда Si^{4+} Al^{3+} ga yoki Al^{3+} Mg^{2+} ga, yoki Mg yoki Fe^{3+} ga almashganda vujudga kelgan ortiqcha manfiy zaryad zarrachalarning sirtiga va qavatlar orasiga adsorbsiyalananadigan ionlar hisobiga qoplanadi. Ko'pincha geterovalent izomorfizmda zaryadning qoplanishi elektron-teshikli markazlarning hosil bo'lishi hisobiga ham boradi.

Geterovalent almashinishi anionlarga ham xosdir, masalan, kislorod F^- yoki Cl^- ionlari bilan almashadi.

Silikatlardagi izomorfizm hodisasini o'rganish jarayonida A.E. Fersman geterovalent izomorfizmga davriy sistemaning chap tepa burchagidan pastki o'ng burchagiga qarab diagonal bo'ylab joylashgan elementlar kirishi haqidagi qonuniyatni kuzatgan. Ushbu ionlar deyarli bir xil o'chamga egadirilar. Ushbu hodisa Fersmanning diagonal qatorlar qoidasi deb nom olgan (2-rasm).

Li	Be	B						
$q_{0.00}$	$q_{0.01}$	$q_{0.02}$	$q_{0.03}$	$q_{0.04}$	$q_{0.05}$	$q_{0.06}$	$q_{0.07}$	$q_{0.08}$
Na	Mg	$Al + Si$						
$q_{0.09}$	$q_{0.10}$	$q_{0.11}$	$q_{0.12}$	$q_{0.13}$	$q_{0.14}$	$q_{0.15}$	$q_{0.16}$	$q_{0.17}$
K	Ca	Sc	Ti	V				
$q_{0.18}$	$q_{0.19}$	$q_{0.20}$	$q_{0.21}$	$q_{0.22}$	$q_{0.23}$	$q_{0.24}$	$q_{0.25}$	$q_{0.26}$
Rb	Sr	V	Zr	Nb				
$q_{0.27}$	$q_{0.28}$	$q_{0.29}$	$q_{0.30}$	$q_{0.31}$	$q_{0.32}$	$q_{0.33}$	$q_{0.34}$	$q_{0.35}$
Cs	Ba	Lanthanoidai	Hf	Ta				
$q_{0.36}$	$q_{0.37}$	$q_{0.38}$	$q_{0.39}$	$q_{0.40}$	$q_{0.41}$	$q_{0.42}$	$q_{0.43}$	$q_{0.44}$
Ra	Ac	Th-U	\square W					
$q_{0.45}$	$q_{0.46}$	$q_{0.47}$	$q_{0.48}$	$q_{0.49}$	$q_{0.50}$	$q_{0.51}$	$q_{0.52}$	$q_{0.53}$
Mo	Re							

2-rasm. Fersmanning diagonal qatorlar qoidasi

Kristal panjaraning parametri kimyoiy tankibuning funksiyasi bo'lib, qattiq eritma tarkibining o'zgarishi bilan u ham to'g'ri chiziq bo'ylab o'zgaradi. Bu qoida Veqard qoidasi deb ataladi. Bu qoidaga bo'ysunmaslik bir necha foizdan oshmaydi, ko'pin-

cha qattiq eritma panjara sinning parametrlari to'g'ri chiziq qonumiyatidan bir oz kichikroq bo'shib chiqadi. Izomorf atomlarni siqilish koefitsiyenti nolga teng bo'lgan holda yoki ular bir xil bo'lgan holda Vegard qoidasi to'liq amla qildi. Qattiq eritma larning ko'pgina fizik xossalari, jumladan, zichligi va optik xossalari ham tarkibning funksiyasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, plagioklazlarning tarkibi sindirimish ko'sratkichi bo'yicha aniqlanishi mumkin (albitning N = 1,536; anortitning N = 1,589, oraliq tarkiblarniki esa shu qiymatlar o'rtasida bo'ladi).

Minerallarda izomorf almashinishlar juda ko'p uchraydi, silikat minerallari uchun esa ular odat tusini olgan. Silikatlar kamdan-kam oddiy kimyoiy birikmanning ideal tarkibiga ega bo'ladi. Tabiiy va texnika mahsulotlari tarkibida uchraydigan silikatlarning o'ziga xos xususiyatlardan biri bu ular tarkibining murakkab bo'lishidir. Ushbu hol aynan izomorf almashinishlar bilan chambarchas bog'liqidir. Izomorf almashinishlar ayniqsa qavat-qavatli va sinchli strukturaga ega silikatlar uchun xosdir.

Suqilib kirib olish qattiq eritmalari. Suqilib kirib olish qattiq eritmalari bir komponentning zarrachalari (atom, molekula, ionlari) ikkinchi komponentning kristall panjarasidagi tugunlar orasidagi joyga suqilib kirib oldilar. Suqilib kirib olish qattiq eritmalari ikkinchi jinsli qattiq eritmalar deb ataladi. Ularda bir elementning atomlari ikkinchi elementning atomlariga almashmaydi, balki ular orasidagi joyni egallaydi. Shu sababli, suqilib kirib oluvchi atomlarning o'lchami kichik, ya'ni strukturadagi bo'shlilarning o'lchamiga yaqin bo'lishi kerak. Ko'pincha H(0,46 · 10⁻¹⁰ m), N(0,71 · 10⁻¹⁰ m) va C(0,77 · 10⁻¹⁰ m)lar ushbu atomlar sifatida namoyon bo'ladi. Suqilib kirib olish qattiq eritmasiga eng yaqqol misol bo'lib po'lat hisoblanadi, u temirning panjara siniga uqlerodring suqilib kirib olishidan hosi bo'lgan qattiq eritmadir.

Suqilib kirib olish qattiq eritmalaringin hosil bo'lish shartlari almashinish qattiq eritmalarning hosil bo'lish shartlariga ko'p jihatdan qarama-qarshidir. Avvalambor, suqilib kirayotgan

atomlarning o'lchami eritma hosil qilayotgan moddarining tugunlari orasidagi bo'shlilalar hajmiga to'g'ri kelishi kerak. Masalan, zich taxlangan strukturalarda u asosiy atomning o'lchamidan kichik bo'lish kerak, chunki faqat shu holdagina u tugunlar orasiga sig'ishi mumkin. Metallarning zich taxlangan kubik va geskagonal strukturalarda suqilib kirib olish qattiq eritmalari $r_x/r_{me} \leq 0,59$ shart bajarlardagina sodir bo'lish mumkin (r_x va r_{me} — nometall va metall atomlarining radiusi).

Ayirish qattiq eritmalari. Ayrim qattiq eritmalarda aralash kristallarning hosil bo'lish jarayonida to'lmay qolgan struktura pozitsiyalari saqlanib qoladi. Ayirish qattiq eritmalari faqat kimyoiy birikmalar asosida hosil bo'ladilar xolos. Komponentlardan birining miqdori stexiometriq tarkibga to'g'ri kelmaydigan ko'pgina moddalar ma'mur. Bunday moddalar atomlar yoki ionlar bilan to'lmay qolgan struktura joylari mavjuddir. Nostexiometriq birikmlarning paydo bo'lishiga sabab, berilgan kristall fazada atrof-muhit yoki boshqacha fazalar orasida ro'y beradigan modda almashuvining termodinamik nuqtayi nazaridan muqarrarligidir. Stexiometriyadan chetlanishlar avvalam bor, birikmaning fizik-kimyoiy tabiatiga bog'liq bo'lib, turli birikmalar uchun turilchadir. Ko'pgina birikmlarda, masalan o'zgaruvchan valentlikka ega bo'lgan o'tkinchi metallarning oksidlarida, qiyin eruvchi boridlar, karbidlar, nitridlar va silisidlardan stexiometriyadan yuqori darajada chetlanishlar kuzatiladi.

Qattiq eritmalarning individual kimyoiy birikmlardan farqi, qattiq eritmalarning strukturasi. Tasavvur qilaylik, ikki turdagiligi atomlardan (A va B) tashkil topgan individual kimyoiy birikma va xuddi shunday atomlardan tuzilgan va xuddi shunday tarkibga ega bo'lgan almashinish qattiq eritmasi berilgan. Individual kimyoiy birikmani qattiq eritmadan ajratib olishning yagona yo'lli — bu kristallarning nafis strukturasidagi fargi anglay olishdir. Individual kimyoiy birikmada A va B atomlari qat'iy bir tartib asosida o'zlariga tegishli bo'lgan tugunlarda joylashadilar. Bunday strukturadan go'yoki ikkita panjarrachalarni ajratib olish mumkin. Ularning biridagi tugunlarda faqat A

atomlari joylashadi, B atomlari esa u yerdalarda bo'lmaydi va aksincha ikkinchisidagi tugunlar faqat B atomlari bilan to'lgan bo'ladi, yerdalarda A atomlar bo'lmaydi. Qattiq eritmalar esa A va B atomlari panjaraning tugunlarida joylashsalarda, ularning bir-biriga nisbatan joylashishi statistika nuqtayi nazaridan tartibsiz bo'ladi, ya'ni panjaraning berilgan nuqtasida ham A atomlari, ham B atomlari joylasha oladi. Har bir atomning panjaraning qattiq eritmalarining nuqtasida bo'lish etimoli shu atomning qattiq eritmalariga atom ulushiga proportionaldir. Masalan, agar qattiq eritma tarkibida A atomlaridan 70 %, va B atomlaridan 30 % bo'lsa, unda berilgan panjara tugunini A atomlar bilan to'lish extimolligi 0,7 ga, B atomlar bilan to'lish extimolligi 0,3 ga teng. Qattiq eritmalarning bunday strukturasini izomorfizmning kristallografik mohiyatidan kelib chiqadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'pgina silikatlarning kremliv kislordi motivida kremliv alyumininiya almasha oladi. Avvallari kremliv bilan alyumininiy strukturada hech ajratib bo'lmaydi, deb hisoblanilar edi, chunki rentgen nurlari ostida bu kationlarni tarqalish qobiliyatli bir-biriga yaqin bo'llib, Si va Al ning tarqalish xarakterini haqida hech qanday ko'rsatmalar bo'lmasan. Shunga ko'ra, u yoki bu silikatni kimyoiy birkimgaga yoki qattiq eritmaga kiritish ko'pincha shartli ravishda bajarilgan, keyinchalik dala shpatlarini o'rganish jarayonida Al^{3+} kationlarini kremliv-kislordi motividagi tartiblik darajasi aniqlangan. Bu natija $[AlO_4]^{5-}$ - gruppasi $[SiO_4]^{4-}$ gruppasiga qaraganda bir muncha katta hajminga ega ekanligi asosida olingan. Buning oqibatida kaliyli dala shpatining turli shakllari ($K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$) bir-biridan tetradrik pozitsiyalarda joylashgan Si va Al larning tartiblanish darajasi bilan kuchli farqlanishi topilgan. Ortoklazda taqsimlanishi to'liq tartiblangan holda bo'lsa, mikrokinda Si a Al larning hamda Na va Ca larning turli tartiblanish darajasi plagioklazlarda (anortit $CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ va albitt $Na_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ ning bir-biri bilan hosil qilgan qattiq eritmasi) ham mavjuddir. Keltirilgan misollar strukturna elementlarining tartiblanish

darajasi kristall faza tartibligiga bog'liq ekanligini va oxirigacha o'rnilmag'anligini ko'rsatadi.


Stabil qattiq eritmalar hosil bo'lishining termodynamik sababları.

O'z-o'zidan boradigan ixtiyoriy bir jarayon kabi stabil qattiq eritmalarning hosil bo'lishi Gibbs energiyasining kamayishi bilan boradi, bunda tizim energiya jihatidan yutadi. Erituvchi strukturasiga eruvchi komponentning bir oz miqdorda kirishi, ya'ni qattiq eritmaning hosil bo'lishi entropiyaning (S) keskin ortishiga olib keladi, chunki bunda erituvchining tartibli strukturasida eruvchi moddaning atom va ionlari tartibsiz ravishda taqsimlanadi, tartibli strukturaning tartibsiz strukturaga aylanishi esa entropiyaning ortishi bilan boradi. Demak, qattiq eritmalar hosil bo'lganda ΔS har vaqt noldan katta bo'ladi, unda $\Delta G < 0$, ya'ni qattiq eritmaning yuzaga kelishi tizim uchun energiya nuqtayi nazariyadan afzal bo'llib qoladi, chunki Gibbs energiyasining kamayishi bilan kechadi. Bundan shu xulosha kelib chiqadiki, qattiq eritmalarning o'z-o'zidan hosil bo'lishiga yagona sabab — bu entropiyaning ortishidir.

Shunday qilib, ixtiyoriy tartiblangan kristall jism o'zinig strukturasiga ma'lum miqdordagi yot qo'shimchalarning atomlari strukturasiga harakat qiladi, yot qo'shimchalarning atomlari struktura da tartibsiz ravishda joylashadi, chunki shundagina tartiblangan strukturuning stabilligi oshadi. Shu sababdan bir-birida absolyut eritmalarning moddalarning o'zi bo'lmaydi, balki gap ularning erish darajasi haqida ketadi. Aynan shuncha ko'ra, o'ta yuqori darajada toza bo'lgan moddalarni olish juda murakkab vazifa hisoblanadi.


Almashinish, suqilib kirib olish va ayirish qattiq eritmalarini Venn diagrammasi yordamida taqqoslang

- Bir komponentning zarrachalari kristall panjaringan tugunlari dagi bo'shqaga komponentning zarrachalargiga almashadi.
- Birinchchi jinsli qattiq eritma.
- Mukammal va mukammal bo'lmagan holda kuzatiladi.
- Izomorf almashmalar.
- Aralash kristalllar.
- Yuqori haroradka kuzatiladi.
- Olivinlar misol bo'la oladi.



- Bir komponentning zarrachalari ikkinchi komponentning kristall panjasidagi tugunlari orasidagi joyga kirib oladi.
- Ikkinchi jinsli qattiq eritma.
- Suqilib kirib oluvchi atomlarning o'charchi kichik bo'ladi, tugunlari orasidagi bo'shligilar hajmiga to'g'ri ketadi.
- H, N va C larda namoyon bo'ladi.
- Po'lat misol bo'ladi.
- Aralash kristallarning bo'shilish jarayonida to'lmay qolgan struktura pozitsiyalari saqlanib qoladi.
- Kimyoiyiv birkimalar asosida hosil bo'ladi.
- Stexiometrik tarkibga to'g'ri kelmaydigan moddalarlarda uchraydi.
- O'zgaruvchan valentli o'tkinchi metallarning oksidlari, boridlar, karbidlar, nitridlar, silitsidlarda uchraydi.
- Vyustit misol bo'ladi.

«Klaster» metodi



10-ilova

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun blits-so'rov savollari

1. Bregg ta'lomoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Belov ta'lomotining mohiyati nimadan iborat?
3. Qattiq eritmalarini hosil bo'lish sabablarini aytib o'ting.
4. Qattiq eritmalarining qanday turlari mayjud?
5. Silikatlar ishtiroykidagi qanday qattiq eritmalarini bilasiz?
6. Izomorf almashinuvchi ionlarga qaysi ionlar misol bo'la oladi?
7. Qattiq eritmalar va kimyoviy birikmalar orasidagi farq nimadan iborat?

11-ilova

Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati

1. J.I. Alimjonova, A.A. Ismatov. Silikat va qiyin eriydigan nonmetall materiallari fizik kimyosi. – T.: «O'qituvchi». 2009.
2. Горшков В.С., Савельев В.Г., Федоров Н.Ф. Физическая химия силикатов и других тупоплавких соединений. Москва. «Высшая школа». 1988.
3. Физическая химия силикатов / Пол ред. Пашенко А.А. Киев. «Высшая школа». 1986.
4. Бабкова Н.М. Физическая химия силикатов. Учебник. Минск. «Высшая школа». 1984.

Ko'rib turganimizdek, ushbu ma'ruzada ikkita interfaol o'qitish metodlaridan foydalandik: «Venn diagrammasi» va «Klaster». Nima uchun aynan shu ma'ruzada ularni interfaol metodlar deb atadik? Chunki taklif etilgan jadvallar, chizmalar o'qituvchining yordами bilan talabalar tomonidan to'ldirildi. Agar bu kabi jadval, chizma va rasmlar tayyor holda o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilib, auditoriyada taqdim etilsa, ular **grafik organayzerlar** deb ataladi. Bizning holatda, «Baliq skeleti» metodi grafik organayzer sifatida qo'llandi.

Amaliy mashg'ulot

Keramik materiallarning tarkibi va tuzilishini o'rganish. Ishning maqsadi va vazifalari

Ushbu amaliy mashg'ulotni o'tkazish jarayonida keramik materiallarning tarkibi va tuzilish qoidalari batfsil tarzda o'rnatildi. Buning uchun avval talabalar bilan nazariy materiallarni o'rganish maqsadida seminar uslubidagi mashg'ulotlar o'tkazilib, so'ngra har bir talabaga vazifa sifatida ma'lum bir birikmaning nomi beriladi. Amally mashg'ulotni bajarish davomida talaba berilgan birikma uchun struktura ko'rsatkichlarini to'palab laydi va ular asosida jadval tuzadi. Seminar mashg'ulotlariida kristall panjara va uning parametrlari, Brav'e panjaralari va sin-gonyalar to'g'risida mukammal ravishda tushunchalar beriladi. Keramik materiallardagi kimyoiy bog'lar, ion-kovalent strukturalarining tuzilishi to'g'risidagi Golshmid va Poling qonunlari, koordinatsion son, effektiv ion radiusi, bog' kuchi kab'i tushunchalar o'rganib chiqiladi. Kristall panjaralarning nuqsonlari, nuqsonlidan, nuqtaviy nuqsonlar, chizqli nuqsonlar, yuza nuqsonlari va hajmiy nuqsonlar, ularning kristall jismlarning xossalari va'siri haqida ma'lumotlar beriladi.

Silikatlarning struktura xususiyatlарини о'rganish davomida kreminiy kislorodli motivilar, alyumosilikatlar, alyuminiiyning silikatlarini to'g'risida tushuncha olinadi. Bunda ximoyalangan tetraedrlardan tuzilgan strukturalar, halqalar, zanjirlar, tasmalar asosidagi strukturaga ega bo'lgan birikmalar, qavat-qavatli va sinh tuzilishidagi silikatlarning tuzilishi o'rganiladi. Qattiq emalalar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishiladi. Keramik materiallarning xossalarini bilan struktura tuzilishi orasidagi muvofiqlik o'rganiladi.

Nazariy qism

Silikatlar noorganiq birikmalar ichida alohida bir sinfini tashkil etib, ularning barchasida struktura birligi sifatida alohida ximoyalangan yoki bir-biri bilan bog'langan ortosilikat ioni, ya'ni kreminiy kislorodli tetraedrdan tashkil topgan $[SiO_4]^{4-}$

guruhi ishtirok etadi. Tetraedr guruuhlari bir-biri bilan umumiy bo'lib qoladigan kislород atomi, ya'ni ko'priк kislород atomi orgali birikib, Si—O—Si bog'ini hosil qiladi. Bunda har bir tetraedr guruhi o'ziga qo'shni bo'lgan guruuhlar bilan bir, ikki, uch va nihoyat to'rttala uchi bilan ham birikish imkoniyatiga ega bo'ladi va natijada, kreminiy kislород motivlari yoki radikal-lar deb nomlanuvchi turli-tuman komplekslar vujudga keladi.

Silikatlarning kimyoviy tankibi o'ta murakkab hisoblanib, ularda kreminiy kislород guruuhidan tashqari ko'pgina boshqa ionlar, jumladan Li, Na, K, Be, Mg, Ca, Ti, Mn, Fe, Zn, B, Al, Ba, O, H, F va boshqalar ham bo'ladi.


Silikatlar tarkibida bo'lgan Al alohida rol o'yinaydi. Al⁺³ kationi kreminiy kislородли тетраедрда Si⁺⁴ kationining o'rнига joylashib olishi yoki o'zi alyumokislородли oktaedri hosil qilishi mumkin.

Ishqoriy va ishqoriy-er metallarining kationlari, hamda Fe, Mn, Ti, Zn larning ionlari kreminiy kislород motiviga kirmaydi va uning tashqarisida joylashadilar.

Ideal kristallarning panjaraalarida struktura elementlari ma'lum tartibda joylashib, simmetriya qonunlariga bo'yusunadilar. Real kristallarning tuzilishida esa ma'lum daraadagi buzilishlar va chetga chiqishlar kuzatiladi. Ularni odatda kristall panjaraning nuqsonlari deb ataladi. Nuqsonlar o'zlarini ishg'ol etgan maydonlarning o'chamlariga ko'ra nuqtaviy, chiziqli, yuzali va hajmiy turlarga bo'lindi. Panjara nuqsonlari silikat materialning elektr xossalariiga, mustahkamligiga va yuk ta'siriga bo'lgan bardoshligiga, qattiq holda boradigan reaksiyalarning tezligiga katta ta'sir ko'rsatadilar.

Qattiq eritmalar nuqsonlari safiga kirib, ular o'zgaruvchan tankibga ega bo'lgan bir jinsi kristall fazalardan iboratdir. Agarda bir-birkimaning atom va ionlari ikkinchi birikma-ning panjaraiga kirib olib, uning tugunlaridagi atom va ionlarning joyiga almashib joylashib olsa, unda almashinish qattiq eritmasi hosil bo'ladi. Almashinish qattiq eritmasining hosil bo'lish jarayoni izomorfizm deb ataladi. Silikatlarda izomorfizmning namoyon bo'lishi uchun turli xildagi termik jarayon-

lar, ya'ni yuqori haroratgacha qizdirish, suyuqlantirish va kristolitirish hamda gidrotermal jarayonlar talab etiladi. Silikatlarda izomorf jutfini hosil qiluvchi ionlar asosan quyidagilardir:



Izomorf almashuvlar minerallarda tez-tez uchrab turadi, silikat minerallارida esa ular hattoki qonun tusini olgan. Izomorf almashuvlar ayniqsa qavat-qavatli va sinch tuzilishdagи silikatlarda ko'p uchraydi.

Ushbu mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish metodikasi quyidagicha bo'ladi:

Vaqti: 4 soat	Mashg'ulot shakli	Talabalar soni: 10–15 nafar
